Shaharning yirik avtomagistralar qoʻshilishiga yerida joylashganligi unda koʻp tarmoqli sanoatning tez rivojlanishiga sabab boʻldi. Respublika sanoati umumiy mahsulotlarining 20 % ini Nukus shahri sanoat korxonalari beradi. Shaharda 50 dan ziyod sanoat korxonalari bor. Metalsozlik, qurilish materiallari, oziq-ovqat, yengil, yogʻochsozlik va poligrafiya sanoati tarmoqlari bor. Nukusda qurilish materiallari sanoati yaxshi rivojlangan, yirik panelli uysozlik va silikat-beton zavodlari, qurilish materiallari kombinatlari, gʻisht, kabel zavodlari, mramor ishlab chiqarish boʻyicha Qoraqalpoq-Italiya qoʻshma korxonasi, non, goʻsht, sut-moy, vino-aroq, pivo-limonad zavodlari, bozorlar ishlab turibdi.

Nukus shahrining iqlimi Qoraqalpogʻistonning boshqa hududlari singari keskin kontinental [5]. Qish oylarida harorat keskin pasayib, yoz oylarida boʻlsa harorat birdan koʻtarilib ketadi. Shuningdek, yil davomida muntazam esib turadigan shamollar ham shaharning asosiy iqlim koʻrsatkishlaridan biri sanaladi.

Shaharning iqlimini tavsiflashda Nukus gidrometeorologiya stantsiyasi (2010-2023) maʼlumotlaridan foydalanildi. Ushbu maʼlumotlar asosida shahar iqlimining keskin kontinentaligi, haroratning sutka

davomida o'zgarib turishi, yoz faslining quruq va issiq bo'lishi, kuz oylari birmuncha iliq hamda qishning sovuqligi tasdiqlandi (1-jadval).

Jadval ma'lumotlari bo'yicha havoning o'rtasha harorati 2010-yilda +13,9°C hamda 2023-yilda +14,9°C ni tashkil etgan (1-rasm). Eng yuqori yillik o'rtasha harorat 2023-yilda kuzatilgan. Eng sovuq bo'lgan harorat 2014-yilda qayd etilgan. Bu yanvar va fevral oylarida haroratning keskin pasayib ketishi bilan bog'liq. Mos ravishda ushbu yilda o'rtacha havo harorati yanvar oyida -5,8°C ni va fevral oyida -9,5°C ni tashkil qilgan. Nukus shahri va

uning atrofida odatda qish noyabrning uchinchi dekadasi-dan boshlanadi [3]. Eng sovuq oy yanvar hisoblanib, ayrim adabiyotlarda 15–20°C gacha bo'lishi qayd etilgan. Nukus gidrometeorologiya stantsiyasi ma'lumoti bo'yicha 2012-yilda havoning minimal harorati -25,9°C ni tashkil qilgan. Nukus shahri sharoitida eng yuqori harorat yilning iyul oyida kuzatiladi. 2018-yilda havoning yuqori harorati +46,0°C ga ko'tarilgan. Havo haroratning keskin pasayib ketishi oktyabr oyining ikkinchi o'n kunligidan boshlanadi. Ayrim yillarda birinchi o'n kunligida ham havo harorati pasayishi qayd etilgan.


**1-jadval. Yillik havo haroratining o'zgarishi, °C**

Yillar	Oylar												O'rtacha yillik
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	
2010	-3,1	-5,0	7,3	16,6	22,8	29,6	30,4	27,7	19,8	13,4	7,3	0,6	<b>13,9</b>
2011	-5,4	-5,2	5,3	16,2	23,8	27,7	30,1	28,5	17,4	13,1	0,6	-4,3	<b>12,3</b>
2012	-6,7	-6,9	4,2	21,1	23,9	28,6	30,9	28,2	19,3	13,9	3,4	-6,0	<b>12,8</b>
2013	-2,3	1,2	8,9	14,7	22,8	27,4	29,1	26,0	22,3	11,8	6,0	-1,0	<b>13,9</b>
2014	-5,8	-9,5	6,0	12,4	25,7	29,4	27,6	29,3	20,1	9,0	-0,0	2,2	<b>12,2</b>
2015	-2,4	-0,9	4,6	15,9	22,6	29,5	30,2	26,4	20,4	10,5	3,2	2,1	<b>13,5</b>
2016	1,4	3,8	10,2	15,5	22,8	27,9	29,5	28,0	21,3	8,9	0,0	-0,8	<b>14,0</b>
2017	-1,5	-1,7	5,5	14,5	23,0	27,2	30,4	27,6	21,3	11,6	6,5	-5,0	<b>13,2</b>
2018	-4,0	-2,8	7,7	14,0	22,0	26,7	32,4	26,2	19,9	12,9	1,8	-2,0	<b>12,9</b>
2019	0,9	0,7	9,2	14,3	23,7	28,5	31,9	25,7	17,9	13,0	-0,2	0,5	<b>13,8</b>
2020	-0,2	3,8	9,0	15,2	24,1	28,7	30,3	26,1	18,9	10,9	0,9	-7,5	<b>13,3</b>
2021	-5,4	-5,2	5,3	16,2	23,8	27,7	30,1	28,5	17,4	13,1	0,6	-4,3	<b>12,3</b>
2022	-1,9	4,6	5,6	19,2	21,7	29	29,9	26,8	21,5	12,4	5	-6,5	<b>13,9</b>
2023	-5,3	1,3	12,5	17,3	22,9	28,8	31,2	28,0	19,9	13,6	9,7	-0,6	<b>14,9</b>

**2-jadval. Yillik yog'ingarchilik miqdori, mm**

Yillar	Oylar												O'rtacha yillik
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	
2010	2,7	12,7	5,8	2,7	3,1	0,5	12,1	1,3	-	0,5	2,9		<b>44,3</b>
2011	2,9	9,0	17,0	6,8	6,7	0,8	-	1,7	-	2,9	6,2	7,1	<b>61,1</b>
2012	12,1	0,3	43,6	0,6	-	-	-	-	1,6	6,6	4,9	11,9	<b>81,6</b>
2013	13,3	0,4	13,6	36,7	-	0,6	0,4	5,2	-	0,3	0,3	27,6	<b>98,4</b>
2014	14,6	6,2	22,8	28,0	-	-	-	-	0,3	1,3	33,3	0,7	<b>107,2</b>
2015	8,4	18,8	17,1	8,8	26,8	-	0,4	-	-	14,6	23,1	19,9	<b>137,9</b>
2016	6,3	-	32,7	10,3	20,4	7,0	1,7	-	31,3	12,6	24,7	18,3	<b>165,3</b>
2017	4,1	1,6	13,4	33,1	11,3	5,6	0,7	-	-	30,7	10,3	8,6	<b>119,4</b>
2018	5,2	35,6	8,1	16,9	-	0,3	-	7,2	-	12,0	15,6	6,2	<b>107,1</b>
2019	6,5	11,6	17,7	22,2	14,8	1,3	11,8	4,3	-	-	0,3	0,8	<b>91,3</b>
2020	3,5	7,6	5,2	31,6	18,2	-	3,2	0,4	0,3	-	3,6	2,0	<b>75,6</b>
2021	2,9	9,0	17,0	6,8	6,7	0,8	-	1,7	-	2,9	6,2	7,1	<b>61,1</b>
2022	11,9	12,4	10,2	19,1	58,1	2,4	-	0,4	7,7	0,9	7,4	1,1	<b>131,6</b>
2023	0,4	5,9	3,6	6,4	2,9	2,7	3,4	3,1	3,9	13	1,6	2,6	<b>49,5</b>

Nukus shahri hududida yog'ingarchilik fasllar bo'yicha notekis taqsimlangan (2-jadval). 2010-2023-yillarda yillik yog'in-sochin miqdori 44,3-165,3 mm ni tashkil qilgan. Eng seryomg'ir yil sifatida 2016-yil qayd etilgan (165,3 mm). Yillik yog'in-sochinlarning ko'p miqdori, ya'ni 45 % bahor oylarida, 27 % qish oylarida tushadi. Ushbu yildagi yog'in miqdorining 38,4% bahor oylariga, 14,9 % qish oylariga, 41,5 % kuz oylari hamda 5.3% yoz oylariga to'g'ri kelgan. Nukus shahrida yoz oylarida deyarli yomg'ir kuzatilmaydi. 2012 va 2014-yillarda yoz oylarida umuman yomg'ir kuzatilmagan.



*1-rasm. Nukus shahrida havo harorati va yog'ingarchilik miqdorining o'zgarishi*

Nukus shahrining suv resurslari asosan Amudaryodan keladigan suv oladigan kanallar bilan bog'liq [1]. Shahar markazidan Doslik va Kattag'ar kanallari oqib o'tadi. Shaharning sharqiy tarafida Ashshiko'l va Qoshko'l ko'llari joylashgan. Shimoli-sharqiy tarafida bo'lsa KS 3 kollektorining boshlanish nuqtasi joylashgan.

Nukus shahri atrofining tabiati har xil. Relyfi asosan past-baland tekisliklar, janubiy qismida Amudaryo past tekisligi, sharqiy bo'limi qumli balandliklardan iborat. Sharq va janubi-g'arbiy qismida yer usti Amudaryo suvlari oqizib kelgan unumdorli allyuvial yotqiziqlardan tuzilgan [4, 6]. Asosan botqoqlik, o'tloqli-botqoqlik, o'tloqli-taqir, Amudaryo bo'ylarida bo'lsa bo'z-qo'ng'ir va o'tloqli-cho'l tuproqlar tarqalgan. Bu yerlarda dehqonchilik, chorvachilik va o'rmon xo'jaliklarini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar bor. Baland tepaliklar Amudaryo bo'yidagi kichik allyuvial pasttekisliklar bilan almashib boradi. Landshafti jihatdan sharqdagi baland qumliklar bo'limi Shimoli-g'arbiy Qizilqumning davomi hisoblanadi.

Yovvoyi o'simliklardan cho'l bo'limida qora saksovul *Haloxylon aphyllum* va bir-necha turdagi cho'l o'simliklari (juzdim *Calligonum aralense*, akatsiya *Ammodendron conollyi*, qandim *Calligonum acanthopterum* va h.) o'sadi [2]. Amudaryo qayirlarida to'rang'il *Populus ariana*, tol *Salix songarica*, jiyda *Elaeagnus orientalis*, yulg'un

*Tamarix androssovii*, ajriq *Aeluropus lagopoides*, qorabaroq *Halostachys caspica*, qamishlar *Phragmites australis* yaqshi rivojlangan. Qirlarda sho'ralar *Amaranthus albus* keng tarqalgan. Shaharning markazida manzarali daraxtlar ekilgan.

Qamishzorlik va to'qaylarda chiyabo'ri *Canis aureus*, quyon *Lepus tolai*, ondatra *Ondatra zibethicus*, bo'rsiq *Meles meles*, qushlardan qirg'ovul *Phasianus colchicus*, yovvoyi o'rdak *Anas platyrhynchos*, kaptarlar *Columba livia*, qarqaralar *Ardea cinerea*, saqoqush *Pelecanus onocrotalus*, qoravoylar *Phalacrocorax carbo*, qumri *Streptopelia decaocto* va boshqalar uchraydi. Sudralib yuruvchilardan toshbaqa *Testuda horsfieldi*, kaltakesaklar *Eremias velox*, sut emizuvchilardan kemiruvchilar *Citellus fulvus* yashaydi. Amudaryo va ko'llarda sazan *Cyprinus carpio*, oq sla *Stizostedion lucioperca*, oq amur

*Tenopharyngodon idella*, laqqa *Silurus glanis* va boshqa baliqlar bor.

Shaharga yaqin yerlarda qishloq xo'jaligining ko'pchilik tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Asosan poliz ekinlari, g'allachilik, paxtachilik, mevachilik, uzumchilik, go'sht va sut maxsulotlarini yetkazib beradigan chorvachilik yaxshi rivojlangan. Bu yerlarda ko'pchilik qushlar uya quradi va oziqlanadi. Ular qishloq xo'jaligiga zarar keltiruvchi hasharotlar, kemiruvchilar bilan oziqlanib ularning sonini boshqarib turadi va haddan tashqari ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

So'ngi yillarda Nukusda shahar alqomeratsiyasining rivojlanishi bu yerda yashaydigan qushlarning hayot tarzining o'zgarishiga va bazi bir sinantrop turlar sonining ko'payishiga olib kelmoqda. Ularning biologiyasi va ekologiyasini o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

#### Adabiyotlar

1. Аметов М. Птицы Каракалпакии и их охрана. – Нукус: «Каракалпакстан», 1981. –С. 138.
2. Ережепов С.Е. Флора Каракалпакии, ее хозяйственная характеристика, использование и охрана. –Т.: «Фан», 1978. –С. 300.
3. Матмуратов Ж. Агроклиматические условия Северо-Западного Узбекистана. –Нукус: «Каракалпакстан», 1989. –С. 255.
4. Ametov Ya., Ametova N., Jumanov M., Ayimbetova Sh., Abdikarimova M. Fauna and ecology of the Nukus city birds // Journal of Advanced Zoology. ISSN: 0253-7214. Volume 44. Issue S-2. – India: 2023. - P. 3186-3192.
5. Matekova G.A., Turdibaev K., Ametova N.I., Ametov Ya.I., Jumanov M.A. Ecological features of the ornitofauna of the karakalpak part of the Usturt Plateau // International Journal of Entomology Research, Volume 7, Issue 12, 2022. – P. 25-28.
6. Turdimuratova J., Ametov Ya., Ayimbetova Sh., Alpibaeva A., Jumabaeva A. Health Impact Assessment of the Surface Water Pollution in Nukus, Karakalpakstan // International Journal of Genetic Engineering 2024, 12(4): DOI: 10.5923/j.ijge.20241204.02. – P. 48-53.

**РЕЗЮМЕ.** Мақолада Қорақалпоғ'истон Республикаси пойтахти Нукус шаҳрининг табиий-географик ва экологик ҳолатига оид материаллар келтирилган. Jumladan, shaharning geografik joylashuvi, oxirgi 14 yildagi (2010-2023-yillar) havo harorati va yog'ingarchilikning o'zgarishi, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining hozirgi holati bayon etilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье излагаются материалы по естественно-географическому и экологическому состоянию Нукуса – столицы Республики Каракалпакстан. В частности, описано географическое положение города, изменения температуры воздуха и осадков за последние 14 лет (2010-2023 гг.), современное состояние почвы, флоры и фауны.

**SUMMARY.** The article presents materials on the natural-geographical and ecological state of Nukus, the capital of the Republic of Karakalpakstan. In particular, it describes the geographical location of the city, changes in air temperature and precipitation over the past 14 years (2010-2023), the current state of the soil, flora and fauna.

### NAVOIY VILOYATI AHOLINING ISH BILAN BANDLIGINING HUDUDIY TAFOVUTLARI VA ULARNI RAYONLASHTIRISH

Sh.Sh.Norov – doktorant

Navoiy davlat universiteti

**Tayanch so'zlar:** mehnat resurslari, mehnatga layoqatli aholi soni, aholi bandligi, aholi dinamikasi, aholi zichligi, sug'orma dehqonchilik rayoni, cho'l-yaylov rayoni, tog'-yaylov rayoni.

**Ключевые слова:** трудовые ресурсы, работающее население, занятость населения, динамика численности населения, плотность населения, регион орошаемого земледелия, пустынно-пастбищный регион, горно-пастбищный регион.

**Key words:** labor resources, working population, population employment, population dynamics, population density, irrigated farming region, desert-pasture region, mountain-pasture region.

**Kirish.** Jahonda mehnat resurslari sonining ortib borishi aholini ish bilan ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish murakkab vazifa bo'lmoqda. Shu sababli mehnat resurslari va aholi bandligi muamolari bilan ko'plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ushbu muammo bilan xoriyda J.Graund, A.Smit, T.R.Maltus, A.Geyar, A.Marshal, A.Piru J.M.Keyns, N.N.Baranskiy, A.A.Asiyeva, E.L.Vidovina, A.Mirta mehnat resurslari masalalari bo'yicha bir qator yondashuvlar va ilmiy nazariyalarni ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonda A.A.Qayumov, A.S.Soliyev, Q.X.Abduraxmonov, O.B.Ota-Mirzayev, L.P.Maksakova, A.A.Ismoilov, N.N.Yuldashv, R.B.Qodirov, L.Z.Ibragimov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Navoiy viloyati aholi bandligining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra alohida ajralib turadigan jihatlari mavjuddir. Viloyat aholi bandligi bir qancha omillar ta'sirida hududiy tafovutlarni keltirib chqaradi. Aholining ish bilan bandligiga ta'sir etuvchi eng asosiy omillarni ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin, ya'ni ananaviy ekzogen va endogen omillar. Geografik geografik tadqiqotlarda birinchi navbatda endogen omillar tadqiq etilib keyingi navbatda ekzogen omillar tahlil qilinadi. Aholi bandligini iqtisodiy-ijtimoiy tadqiq etishda dastlab ekzogen omillarni tahlil qilishni maqsadga muvofiq hisobladik. Chunki, ekzogen omillarni asosini demografik omillar tashkil etib, aholi iqtisodiy – ijtimoiy geografiyada birinchi navbatda o'rganiladigan tarkibiy qism hisoblanadi. Bu omillarga

aholi soni, dinamikasi, yosh – jinsiy tarkibi, mehnat yoshidagi aholi, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi[5]. Ikkinchi navbatda ekzogen omillar tadqiq etiladi. Ekzogen omillar asosini moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining tashkil etilishi hisoblanadi. Navoiy viloyati aholi bandligida muhim o'rin tutadigan ishlab chiqarish tarmoqlarga tog'-kon sanoati, metallurgiya, kimyo, elektroenergetika, qurilish materiallari sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligida paxtachilik, qorako'lchilik tarmoqlari muhim o'rin tutadi. Noshlab chiqarishda chakana savdo, ta'lim, tibbiy xizmat ko'rsatish asosiy o'rin tutadi [4].

Aholining ish bilan bandligi darajasi iqtisodiy faol aholiga nisbatan tahlil qilinadi. Iqtisodiy faol aholi va ish bilan bandlar bir-biriga yaqin tushuncha bo'lishiga qaramay, Iqtisodiy faol aholi tarkibiga ishga joylashishga muhtoj aholini o'z ichiga oladi [1].

Aholining ish bilan bandligining hududiy tafovutlarini 2010-2023-yillarda o'zgarishini tahlil qilganimizda quyidagi natijalarni ko'rishimiz mumkin. 2010-yida Navoiy viloyati aholi bandligida hududlar ulushida viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar, ya'ni, Navoiy, Zarafshon shaharlari va sug'orma dehqonchilik tumanlari Karmana, Navbahor, Qiziltepa, Xatirchi tumanlarining hissasi yuqori bo'lgan(8,9-20,52 foizgacha). Tog' va tog'oldi yaylov chorvachiligiga ixtisoslashgan Nurota tunanida viloyat aholi bandligidagi ulushi ham yuqoridagi mintaqalarga xos bo'lib 9.2 foizni tashkil etgan. Cho'l yaylov chorvachiligiga



ixtisoslashgan Konimex, Uchquduq, Tomdi tumanlari viloyat aholi bandligidagi ulushi juda kichik bo'lib, 2.1- 6.2 foizni tashkil etgan xolos [2].

2023-yilda aholining ish bilan bandligining hududiy tafovutlarini tahlil qilganimizda hududlarning viloyatdagi ulushida o'zgarishlar kuzatildi. Navoiy shahri, Konimex, Qiziltepa, Xatirchi tumanlarida band aholining ulushi o'sgan bo'lsa, Zarafshon shahri, Navbahor, Karmana, Nurota, Tomdi, Uchquduq tumanlarida kamayganligini ko'rishimiz mumkin. G'ozg'on shahri o'rganilayotgan davrda yangi tashkil etilgan (1.2. Rasm.).

2010



1.1. Rasm. Navoiy viloyati aholi bandligida hududlar ulushi (2010 yil foizda)

2023



1.2. Rasm. Navoiy viloyati aholi bandligida hududlar ulushi (2023-yil foizda)

Qishloq tumanlarida tafovut juda katta bo'lib, mehnat resurslarining xo'jalikda bandligiga ta'sir darajasiga ko'ra quyidagicha rayonlarga ajratishimiz mumkin;

I. Sug'orma dehqonchilik rayoni Karmana, Navbahor, Qiziltepa, Xatirchi tumanlari va Navoiy shahri.

II. Tog' va tog'oldi yaylov chorvachiligi rayoni Nurota tumani va G'ozg'on shahri

III. Cho'l yaylov chorvachiligi rayoni Konimex, Uchquduq, Tomdi tumanlari va Zarafshon shahri

**1.1. Jadval. Navoiy viloyati aholisi va mehnat resurslarining qishloq xo'jaligi rayonlari bo'yicha taqsimlanishi**

Rayonlar	Jami aholi		Mehnat resurslari		Iqtisodiy faol aholi		Band aholi	
	Ming kishi	Foiz	Ming kishi	Foiz	Ming kishi	Foiz	Ming kishi	Foiz
Sug'orma dehqonchilik rayoni	779.6	73.9	415.8	71.1	317.7	69.8	297.8	69.8
Tog' va tog'oldi yaylov chorvachiligi rayoni	97.1	9.2	51.4	8.8	40.8	9.0	37.9	8.8
Cho'l yaylov chorvachiligi rayoni	178.8	16.9	117.7	20.1	96.5	21.2	90.7	21.3

Jadval Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

- Sug'orma dehqonchilik rayoni tumanlarida aholi zichligi nisbatan yuqori; har kvadrat kilometr yerga Karmana tumanida 144.4 kishi, Navbahor tumanida 75.7 kishi, Qiziltepa tumanida 72.7 kishi va Xatirchi tumanida 147.7 kishini tashkil etadi. Sug'orma dehqonchilik rayoni hududda aholi soni yuqori o'sish ko'rsatkichlariga ega. Hududlar aholi dinamikasini tahlil qilganimizda Navoiy shahrida 108,3 foiz, Karmana tumanida 198.1 foiz, Navbahor tumanida 157.1 foiz, Qiziltepa tumanida 149.6 foiz va Xatirchi tumanida 149.8 foizga ko'paygan. Mazkur rayonda mehnatga band aholi soni 297.8 ming kishini tashkil etgan holda viloyatdagi ulushi 69.8 foizni tashkil etadi.

Navoiy shahrida rayon xususiyatidan farq qilgan holda aholi sonining dinamikasi o'rtacha ko'rsatkichni tashkil etgan. Shahar aholisining o'sishiga tabiiy ko'payish, migratsiya va ekologik omillar kuchli ta'sir ko'rsatgan. Aholining tabiiy o'sishi qishloq tumanlariga nisbatan past. O'rganilayotgan davrning dastlabki yillarida emigratsiya jarayoni yuqori bo'lib asosan, rusiyabon aholi ishtirok etgan. Ekologik sharoit tufayli aholi asosan shahar atrofidagi qishloq tumanlarida jo'lashadi va mayatniksimon migratsiya ko'rinishida qatnab ishlaydi. Mehnatda band aholining asosiy qismi sanoat korxonalarini va ijtimoiy sohada ishlaydi[3].

Karmana tumani aholisi soni 2000-2023-yillar oralig'ida o'sish ko'rsatkichi eng yuqori darajani tashkil etdi. O'rganilayotgan davrda tuman aholisi soni deyarli ikki baravarga ko'paygan bo'lib, yuqori darajada o'sishga eng avvalo, migratsiya va shahar atrofida joylashganligi asosiy omillar hisoblanadi. Band aholi asosan sanoat tarmoqlarida, qishloq xo'jaligida, xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydi. Aholining katta qismi Navoiy shahriga qatnab ishlaydi,

Qiziltepa tumani aholining umumiy soni dinamikasida o'rganilayotgan davrda doimiy o'sish kuzatildi. Ushbu davrda tuman aholisi deyarli 150 foizga ko'paygan bo'lib o'rtacha yillik o'sish 2.2 foizga to'g'ri keldi. Bunday o'sishning asosiy omili tabiiy ko'payish hisoblanadi. Tuman aholisining asosiy qismi dehqonchilik, qurilish, xizmat ko'rsatish va sanoat tarmoqlarida band.

Xatirchi tumani viloyatda aholi-soni bo'yicha yetakchi hisoblanib, doimiy aholisi soni 2023-yil yanvar holatiga 209,8 ming kishini tashkil etadi. O'rganilayotgan davrda tuman aholisi soni viloyat bo'yicha eng ko'p kishiga o'sgan bo'lib, doimiy aholi 69.5 ming kishiga ko'paygan. Aholi sonining o'sish dinamikasi buyicha Karmana tumanidan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi. Aholi sonining yuqori o'sishiga asosiy omil sifatida, Tuman asosan sug'orma dehqonchilik mintaqasida joylashgan bo'lib, aholining asosiy qismi qishloq aholi manzilgohlarida istiqomat qilishi bilan bog'liq. Tuman aholisining katta qismi qishloq xo'jaligida band bo'lib, sug'oriladigan mintaqalarda dehqonchilik, tog'oldi hududlari chorvachilik bilan shug'ullanadi.

Navbahor tumani aholi soni o'sish dinamikasi bo'yicha yuqori o'rinlarda turuvchi ma'muriy birliklar qatorida turadi. O'rganilayotgan davrda tuman aholi soni doimiy o'sishda bo'lgan, ayrim yillarda tezroq o'sgan. Jumladan, 2010-2015-yillarda eng yuqori o'sish kuzatilgan. Tuman aholisining tez o'sishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatgan. Tuman asosan sug'orma dehqonchilik mintaqasida joylashganligi, aholining asosiy qismi qishloq aholi manzilgohlarida istiqomat qilishi. katta shahar atrofida joylashganligi ichki va mayatniksimon migratsiya kabi omillarning ta'siri yuqori. Band aholi asosan sanoat tarmoqlarida, qishloq xo'jaligida, xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydi. Aholining katta qismi Karmana tumanidek Navoiy shahariga qatnab ishlaydi,

- Tog' va tog'oldi yaylov chorvachiligi rayoni; aholi zichligi past hisoblanib har kvadrat kilometr yerga Nurota tumanida 14.8 kishi to'g'ri keladi. Nurota tumanida aholi soni o'rganilgan davrda 16.4 ming kishiga ko'payib



umumiy o'sish 122 foizga to'g'ri keladi. Rayonda mehnatga band aholi soni 37.9 ming kishini tashkil etgan holda viloyatdagi ulushi 8.8 foizni tashkil etib, mehnatda band aholi soni bo'yicha oxirgi o'rinni egallaydi O'rganilayotgan davrda G'ozg'on shahri Nurota tumani tarkibida bo'lgan. 2019-yil 3-mavda O'zbekiston Respublikasi Oliv Mailisi Senatining qaroriga muvofiq, Navoiy viloyatida G'ozg'on shahri tashkil etilib, bugungi kunda bu yerda 9,1 ming aholi istiqomat qilmoqda. Nurota tumanida aholi sonini dinamikasida o'rganilayotgan davrda juda sekin o'zgargarish kuzatildi. Tumanda aholining tabiiy ko'payishi yuqoriligiga qaramay ichki va tashqi migratsiya manfiy saldoga ekanligi katta ta'sir ko'rsatmoqda. 2020 yildan boshlab aholi sonining kamavishiga asosiy sabab 9.1 ming kishi G'ozg'on shahrining tashkil etilganligi tufavli vuz bergan. Ravon aholisining bandligida chorvachilik yetakchi o'rinni egallaydi. Nurota shahrida turizm va xizmat ko'rsatish sohalari asosiy o'rinni egallagan holda G'ozg'on shahrida marmar qazib olish va pardozlash sohasida aholi band.

- Cho'l yaylov chorvachiligi rayoni, Ushbu rayonda aholi nihoyatda siyrak joylashgan har kvadrat kilometr maydonga Konimex tumanida 4.1 kishi, Tomdi tumanida 0,4 kishi, Uchquduq tumanlari 0.8 kishi ( Shahar aholisini hisobga olmasa 0,09 kishi) to'g'ri keladi. Rayonda mehnatga band aholi soni 90.7 ming kishini tashkil etgan holda viloyatdagi ulushi 21.3 foizni tashkil etib, Mehnat resurslari va band aholi juda tarqoq joylashgan.

Konimex tumanini aholisi dinamikasida o'rganilgan davrda pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, 2000-2005, 2005-2010, 2010-2015- yillardagi davrlar mobaynida aholi soni doimiy kamayib borgan bo'lib 2010-2015-yillar oralig'ida eng katta kamayish kuzatildi. Tuman aholisining kamayib borishiga ichki va tashqi migratsiya manfiy saldoga ekanligi katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Uchquduq tumanini aholisi dinamikasida o'rganilgan davrda pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, 2000-2005, 2005-2010, 2010-2015-yillardagi davrlar mobaynida

aholi soni doimiy kamayib bogan. Tuman aholisining kamayib borishiga ichki va tashqi migratsiya manfiy saldoga ekanligi katta ta'sir ko'rsatmoqda. Asosan qishloqladan ommaviy ko'chib ketish jarayoni kuzatildi.

Tomdi tumanini aholisi dinamikasida o'rganilgan davrda pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, 2000-2015-yillardagi davrlar mobaynida aholi soni doimiy kamayib bogan. 2015-yildan boshlab 2023- yilgacha aholisi va mehnatga layoqatli aholi dinamikasi barqarorlashgan.

Zarafshon shahar aholi dinamikasida doimiy o'sish bo'lib, mehnatga layoqatli aholi soni ham ortib borgan. Shu bilan birga 2012, 2022-yillarda mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonining oldingi yillardagiga nisbatan kamaygan. Zarafshon shaharda aholi va mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonining o'sishiga tabiiy resurslarni qazib olish va qayta ishlash sanoat korxonalarining mavjudligi, yangi ish o'rinlarini yaratilishi va yuqori maosh berilishini asosiy omil sifatida ko'rishimiz mumkin.

**Xulosa.** Navoiy viloyati aholining ish bilan bandligining hududiy tafovutlari va ularni rayonlashtirish masalasini tahlil qilganimizda bir qancha hududiy tafovutlar aniqladi. O'rganishlarimizdan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga keldik;

- Navoiy viloyati aholi bandligida hududlar ulushida viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar, ya'ni, Navoiy, Zarafshon shaharlari va sug'orma dehqonchilik tumanlari Karmana, Navbahor, Qiziltepa, Xatirchi tumanlarining hissasi yuqori bo'lgan.

- aholi bandligida hududlar ulushida Zarafshon shahri, Navbahor, Karmana, Nurota, Tomdi, Uchquduq tumanlarida kamaygan.

- sug'orma dehqonchilik hududlarida band aholining asosiy qismi joylashgan

- tog' va tog'oldi, cho'l yaylov chorvachiligi rayonlarida mehnat resurslari va band aholining hissasi kam va tarqoq joylashgan.

#### **Adabiyotlar**

1. Abduraxmonov Q.X., Abduraxmonov X.X. Mehnat resurslarini boshqarish "tashakkur bo'stoni". -T.: 2014. 23-26-b.
2. Atajanov I.Sh. Xorazm viloyati mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish muammolari. Diis.-T.: 2002.
3. Ibragimov L.Z. Janubi-g'arbiy O'zbekistonda aholi bandligining iqtisodiy geografik xususiyatlari. Diis. -Samarqand: 2022.
4. Soliyev A.S. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. -T.: -"Universitet". 2014.
5. Qayumov A.A. O'zbekiston mehnat resurslarining shakllanishi va rivojlanishning sotsial geografik asoslari. Diis.-T.: 1994.

**REZYUME.** Ushbu maqolada Navoiy viloyati aholining ish bilan bandligining hududiy tafovutlari va ularni rayonlashtirish masalalari tahlil qilingan. Aholi bandligida hududlar ulushi, joylashishi o'rganilgan. Ushbu muammoni rayonlashtirish asosida sug'orma dehqonchilik, tog' va tog'oldi yaylov chorvachiligi, cho'l yaylov chorvachiligi rayonlariga bo'lib tahlil qilingan

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье анализируются региональные различия в занятости населения Навоийской области и вопросы их регионализации. Изучены доля и место регионов в занятости населения. На основе районирования данная проблема проанализирована на регионы орошаемого земледелия, горно-предгорно-пастбищного животноводства и пустынно-пастбищного животноводства.

**SUMMARY.** This article analyzes regional differences in the employment of the population of Navoi region and issues of their regionalization. The share and location of the regions in the employment of the population have been studied. Based on regionalization, this problem was analyzed into regions of irrigated farming, mountain and sub-mountain pasture livestock, and desert pasture livestock.

### **SHAHAR HOSIL QILUVCHI INDUSTRIYA – XORAZM VILOYATIDA URBANIZATSIYANING AYRIM MASALALARI**

**D.R.Ro'zmetov** – katta ilmiy xodim

*Xorazm Ma'mun akademiyasi*

**Tayanch so'zlar:** shahar hosil qiluvchi kuchlar, urbanizatsiya, shaharsozlik, shahar.

**Ключевые слова:** градообразующие силы, урбанизация, градостроительство, город.

**Key words:** city-forming forces, urbanization, urban planning, city.

**Kirish.** Shaharlar qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagani bois, xo'jalikning boshqa tarmoqlari – sanoat, xizmat ko'rsatish sohalari shahar hosil qiluvchi tarmoqlar (korxonalar, soha, kuchlar, faoliyat) sanaladi. Shahar hosil qiluvchi korxonalar va monoshaharlar masalasi chuqur o'rganilgan bo'lib, respublikamizda ushbu sohada bajarilgan so'nggi tadqiqotlar J.Ismatov va Sh.Qurbonovlar tomonidan amalga oshirilgan [2].

**Ishning maqsadi va vazifalari.** Shahar hosil qiluvchi faoliyat turlari va ularning zamonaviy jihatlari hamda Xorazm viloyatida shaharsozlikning bugungi kunda

hududiy tashkil etilishining ayrim muammolarini tavsiflash hamda xulosalar qilish.

**Asosiy qism.** Shahar hosil qiluvchi korxonada shaharning kamida 30 foiz aholisi faoliyat yuritgandagina u shaharni shakllantiruvchi industriya obyekti sifatida gavdalanadi. Agarda ushbu qiymat ortib borsa shaharni shakllantiruvchi korxonalar – soha yoki faoliyat turi shahar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati ma'lum bosqichgacha rivojlangan tor xo'jalikli monoshaharligicha qolib ketadi.

Sanoat yoki xizmat ko'rsatishning qaysi sohasiga tegishligiga qarab korxonaning boshqa korxonalarini tortish

yoki aglomeratsion qobiliyati turlanadi. Agarda shahar hosil qiluvchi korxonalar (aksar hollarda kombinat) metallurgiya, kimyo, yoqilg'i-energetika majmualariga tegishli bo'lsa yirik shaharlar va shaharlar aglomeratsiyasini tashkil eta oladi. Ushbu klassik shahar hosil qiluvchi korxonalar eski sanoat rayonlari deb atalmish Rur, Lotaringiya, Quyi Sileziya, Janubiy Ural kabi industrial o'choqlarni shakllantirgan. Yengil va oziq-ovqat, qurilish sanoati korxonalarini kichik, o'rta va katta shaharlarni shakllantira olish qudratiga ega. Ushbu hol xizmat ko'rsatish sohaslariga ham tegishlidir. Ushbu soha korxonalarini ham yirik sanoat rayonlarini shakllantirishi mumkin, ammo ko'p hollarda vaqt o'tishi bilan hududning iqtisodiy turlanishi va bozor konyukturasi o'zgarib borishi natijasida ko'p qo'l mehnat talab etuvchi ushbu soha (korxonalar) rivojlanayotgan davlatlarga ko'chgan va tabiiyki ma'lum davr eski sanoat rayonlaridagi shaharlar depressiv (rivojlanish) fazani bosib o'tganlar.

Xorazm viloyati qadimiy shahar madaniyatiga ega va shahar manzilgohlari ko'p bo'lgan hududlardan sanalgan. IX – XII asrlarda Xorazm markazi Gurganjda 170 joyda katta va kichik bozorlar, 5 mingga yaqin masjid, 700 ga yaqin madrasa va mingga yaqin hammom ishlab turganligi haqida xabar beradi [1, 2]. Agar har bir machitga o'rtacha 20 kishi namoz o'qishga boradi deb faraz qilsak ham namoz o'qish yoshidagi 100 ming erkak jinsi va 500-700 ming kishi atrofida shahar aholi bo'lgan deb taxmin qilsak bo'ladi. Ayrim manbalar bu davrda Gurganj aholi 1 mln. kishidan ortgan degan ma'lumotlar mavjud [2]. Ammo 1219-yilda Xorazmning mo'g'ullar tomonidan istilo qilinishi, XVI asrda Buyuk Ipak yo'lining Xorazm hududidan o'tgan qismining oldingi ahamiyati yo'qotishi uning ijtimoiy taraqqiyotda orqada qolishiga, jumladan urbanizatsiyalashuvning sust rivojlanishiga sabab bo'lgan.

O'zbekiston, jumladan uning bir qismi bo'lgan Xorazm qadimiy madaniyat o'choqlaridan sanaladi. Bu yerda shaharsozlikning o'ziga xos rivojlagish bosqichini bosib o'tgan bo'lsa-da mavjud qadimiy shaharlarning rejasi jahonning qadimiy shaharlarinikidan unchalik farq qilmaydi. Shaharlarning aksariyati registon, o'rda – shaharning markazidan turli geometriyada (uchburchak, radial va hokazo) boshlanib ketadigan ko'chalar odatda doira yoki unga yaqin shakldagi tashqi devorlar bilan chegarangan. Masalan, Xorazm davlati poytaxti Xiva markazi – Ichan qal'a to'g'ri burchakli to'rtburchak shakliga yaqin bo'lsa, Disha qal'a – ya'ni tashqi shahar radial devorlar bilan tugagan. Respublikadagi eski shaharlarning aksar qismi shu tarzda rejaga ega bo'lgan.



A



B



V

1-rasm. Qadimiy shaharlar markaziy qismi rejalari:

A – Xiva; B – Buxoro; V – Samarqand

Rasmlar <https://www.google.com/maps> sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan, koinotdan zamonaviy ko'rinishi.

Zamonaviy ko'rinishdagi shaharsozlik masalalari O'zbekistonda XX asr 60-70-yillarida vujudga kelgan. Sho'ro davrida butunlay yangidan Gazli, Guliston, Pitnak, Nukus kabi shaharlar barpo etilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi va uning qoshidagi "O'zshaharsozlikLITI" bosh loyiha instituti, "ToshkentboshplanLITI" bosh loyiha instituti, "Qishloq qurilish loyiha" bosh loyiha instituti, Kommunal loyiha ilmiy-tadqiqot instituti, "ToshuyjoyLITI" AJ, "O'zogsanoatloyiha" AJlar loyihalash, qurilish, shaharsozlik va u bilan bog'liq kommunikatsiya hamda sanoat obyektlarini barpo etish masalalari bilan shug'ullanadi.


Shaharsozlik faoliyati sohasida yagona ilmiy va texnika siyosatini amalga oshirish, tegishli axborot bazasini yaratish, shaharsozlik hujjatlarini ishlab va binolar, inshootlar va boshqa obyektlarning loyihalashtirish O'zshaharsozlikLITI" bosh loyiha instituti, "ToshkentboshplanLITI" bosh loyiha instituti yetakchi o'rin tutadi.

Ushbu institutlar va ushbu sohadagi yetakchi xorijiy loyihachilar va kompaniyalar ishtirokida respublikada Toshkent va viloyat markazlarining yangi rivojlantirish loyiha va rejaları ishlab chiqilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda mavjud 120 ta shahardan 118 tasining bosh rejasi ishlab chiqilgan.

Shaharsozlik faoliyati sohasini davlat siyosati amalga oshirishi lozim, bunda hududlarning an'anaviyligiga e'tibor berish, zamonaviy arxitektura va shaharsozlik talablarini va texnologiyalarni hisobga olgan holda mintaqalarni rivojlantirish, turli darajadagi hududlarni rejalashtirish planlari va loyihalari, aholi punktlarining bosh rejalarini tuzish shaharsozlik hujjatlari ishlab chiqish, ularning



ma'qullanishini va ekspertizadan o'tkazilishigacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab olishi lozim. Ayniqsa Xiva, Buxoro va Samarqandga o'xshash turistik ahamiyatga ega shaharlarda milliylikni zamonaviylik bilan uyg'unlashgan shaharsozlik loyihalarni olib borish katta ahamiyatga ega.



Shaharlar, qishloq aholi punktlari va qishloqlar orasidagi hududlarni rejalashtirish va qurishda shaharsozlik normalari, qoidalari va standartlariga rioya etish talab etiladi. Xususan shahar hududi asosan markaziy ma'muriy va moliya boshqaruv muassalarini birlashtirishi keyingi zonada aholi turar joylari hamda unga xizmat ko'rsatishning qator turlari (ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo-sotiq, maishiy va hokazo) hamda 3-zonada transport logistika, sanoat tarmoqlari obyektlari joylashadi (2-rasm).

**2-rasm. Shahar rejasining umumiy sxemasi: 1-boshqaruv; 2-aholi turar joylari; 3-sanoat, transport logistik qism.**

**Manba:** Khamroev M.O., Ruzmetov D.R. Scientific and theoretical issues of urboekological research // Central Asian journal of the geographical researches, No 3-4, 2022., P 40-49.

Shahar ekologiyasiga ta'sir etuvchi obyektlar ekologik me'yor va standartlariga qarab joylashtirilishi lozim.

Respublikada qurilish va arxitekturaviy ishlarni loyihalashda xorijiy mamlakatlar va tashkilotlar bilan xalqaro ilmiy-texnik va iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Xususan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qurilish sohasidagi normativ hujjatlarni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 231-son qarorida Respublikada qo'llanishiga ruxsat etilgan xorijiy normativlarga Yevrokodlarni (European Codes, EC), Britaniya standartlarini (British Standards, BS), Xitoy milliy qurilish standartlarini (GB, CJ, JC, JG va boshqalar), Koreya qurilish kodlarini (Korean building code, KBC), Rossiya qurilish me'yori va qoidalarini (SNiP), AQSh xalqaro qurilish kodlarini (International building code, IBC), Yaponiya milliy standartlarini (Japanese Industrial Standards, JIS) implementatsiya qilish belgilangan.



A



B

**3-rasm. Toshkent (City) (A) va Samarqand (B) shaharlarida yangi kvartallar, ishbilarmonlik markazlari (sariq rang ko'rsatilgan).**

Rasm <https://www.google.com/maps> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Xorijiy institutlar ishtirokida viloyat va tuman markazlari yangi kvartallari loyihalari ishlab chiqilmoqda. Yuqorida Toshkent va Samarqand shaharlaridagi butunlay yangidan barpo etilayotgan shahar kvartallari keltirilgan. Xususan ushbu shaharlarda eski bino va mahallarni buzib o'rniga yangilari barpo etish barobarida yangi kvartallar ham barpo etilmoqda. Ayniqsa yirik shaharlarni rivojlantirinish qarorlari qabul qilinmoqda (3-rasm).

Ammo, respublikada faol qurilish ishlari olib borilishi qatorida shaharsozlik masalalaridan chetga chiqish holatlari kuzatilmoqda. Xususan qishloq joylarda shahar tipiga mansub zamonaviy binolar barpo etishda ko'proq iqtisodiy masalalarga ko'proq urg'u berilmoqda. Hududlarni sochma "urbanizatsiyalashtirish" holatlari kuzatilmoqda.

Shahar tipidagi kvartallar yoki binolar barpo etishda markaziy o'rinlarda turuvchi hududlarga emas (V.Kristaller bo'yicha), balki yer ball boniteti past (bo'sh) joylarda aholini gazlashtirish, doimiy elektr ta'minoti bilan qiziqtirish orqali barpo etish holatlari ham kuzatilmoqda. Tadqiqotlar davomida Xorazm viloyatining bir qator hududlarida shunga o'xshash holatlar, masalan, Urganch tumanida uchradi (4-rasm).



**4-rasm. Urganch tumanida shahar arxitekturasi xos qurilgan ko'p qavatli binolar va mavzular.**

Rasm <https://www.google.com/maps> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

**Xulosa.** Yuqoridan ko'rinib turibdiki, shahar arxitekturasiga mos yangi ko'p qavatli binolarning ma'lum qismi o'sish qutblaridan ancha uzoqda qurilgan. Ushbu hol oddiy aytganda mablag' iqtisodi bilan bog'liq. Chunki shaharcha hududida yangi tipdagi mavzela tiklash aholi vaqtincha yoki doimiy yangi hududlarga yoki binolarga ko'chirish hamda u bilan bog'liq xarajatlarni quruvchi tomonida qoplanishini talab qiladi. Biroq yuqoridagi tarzda shahar tipidagi "qishqi qarorgohlarning" qurilishi aholini ushbu hududlarda vaqtincha yashashga joylarda sog'lom urabnizatsiya jarayonlarining yuz berishi hamda qator

sotsial-iqtisodiy muammolarni yuzaga keltiradi. Xususan, yashash joyining ishlash joyidan uzoqligi, maktabgacha va o'rta ta'lim muassalarining mavjudligi, kanalizatsiya va markazlashgan suv ta'minoti bilan ta'minlanganlik va boshqalar ushbu manzilgohning to'laqonli rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xususan Xorazm viloyatiga grunt suvlarining yer betiga juda yaqinligi va markazlashtirilgan kanalizatsiya tizimining ushbu suvlar bilan kontaktining mavjudligi keyingisining zararlanishiga hamda qishloq joylarda chorva hamda aholining ayrim hollarda grunt suvlar foydalanishi salomatlikka salbiy ta'sir etuvchi holatlarni keltirib chiqaradi.

#### Adabiyotlar

1. Абу Райхан Беруни. Избранные произведения. Том 1. Памятники минувших поколений. -Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1957. -С. 485.
2. Матниёзов М. Хоразм тарихи. I том -У.: Хоразм, 1997. 410-б.
3. Ismatov J. O'zbekiston monoshaharlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining omillari, muammolari va istiqbollari. // Geog. fan. bo'y. fal.dok. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. Avtoreferati – Samarqand: SamDU, 2023. 33- b.
4. Khamroev M.O., Ruzmetov D.R. Scientific and theoretical issues of urboekological research // Central Asian journal of the geographical researches, № 3-4, 2022. -P 40-49.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qurilish sohasidagi normativ hujjatlarni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 231-son qarori.
6. <https://www.google.com/maps>

**REZYUME.** Maqolada shahar hosil qiluvchi kuchlarning turlari va Xorazm viloyatining urbanizatsiyalashuvining zamonaviy bosqichda shaharozlikning jihatlari yoritib berilgan. Xususan qishloq joylarda tartibsiz tarzda qurilayotgan shahar tipidagi binokorlikning aholi ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri tavsiflangan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье описаны виды градообразующих сил и аспекты градостроительства на современном этапе урбанизации Хорезмской области. В частности, описывается влияние строительства городского типа, возводимого неравномерно в сельской местности, на социальное развитие населения.

**SUMMARY.** The article describes the types of city-forming forces and aspects of urban development at the current stage of urbanization of the Khorezm region. In particular, it describes the impact of urban construction, erected unevenly in rural areas, on the social development of the population.

### QASHQADARYO VILOYATIDA IQLIM O'ZGARISHI VA AGROLANDSHAFTLARDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

R.Usmonova – *geografiya fanlari nomzodi, dotsent*

J.Sh.Poyanov – *tayanch doktorant*

*Qarshi davlat universiteti*

**Tayanch so'zlar:** qurg'oqchilik, yer fondi, sug'orma dehqonchilik, cho'llanish, arid, degradatsiya, sho'rlanish, landshaft.

**Ключевые слова:** засуха, земельный фонд, ирригационное земледелие, опустынивание, засуха, деградация, засоление, ландшафт.

**Key words:** drought, land foundation, irrigation farming, desertification, arid, degradation, salinity, landscape.

**Kirish.** Keyingi yillarda dunyo bo'ylab qurg'oqchilik xavfning davriyligi va ko'lami ortib hamda murakkablashib borayotganligi hech kimga sir emas. Umumiy ma'noda olganda qurg'oqchilikning yuzaga kelishiga hududda atmosfera yog'inlari, yer usti va yer osti suvlarining kamayib borishi oqibatida, uzoq vaqtlar davomida suvning yetishmovchilik holati tushuniladi. Iqlim o'zgarishi sharoitida qurg'oqchilik dunyo mamlakatlari aholisining hayoti va dehqonchilik faoliyatiga xavf sezilmoqda. Mamlakatimizning boshqa viloyatlari kabi Qashqadaryo viloyatida dolzarb muammolardan sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini muttasil oshirib borish, sug'orishga yaroqli yerlarni ilmiy asoslangan usulda xo'jalik muomalasiga kiritish va boshqalar. Binobarin, butun insoniyatning kelajak faoliyatiga tahdid soluvchi suv tanqisligi va qurg'oqchilik arid iqlim mintaqasida joylashgan Qashqadaryo viloyati uchun ham dolzarb masalalardan hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Qashqadaryo viloyati mamlakatimizning boshqa viloyatlaridan asosiy qishloq xo'jalik ekinlari maydonining kattaligi bilan ajralib turadi. Qashqadaryo viloyati iqlimi keskin kontinentallikka egaligidan qishi qisqa va beqarordir. Qashqadaryo viloyati uchun yoz uzoq davom etib, kunlarning jazirama issiqdigi, tekislikdan tog'lardan tekislikka tomon qurg'oqchilik ortib borishi, yog'in miqdorining ham kamayib borishi xos. Shu sababli, viloyat tumanlarida qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirilishi daryo suvlari hajmi, kuz-qish davrida atmosfera yog'inlari hisobiga bahorda shakllangan tuproq nam zahirasi bilan bog'liq. O'rtacha yillik yog'in miqdori

Qarshida 187 mm dan tog'larda Hazrati Bashirda 850 mm gacha o'zgaradi va yog'in oylar bo'yicha juda notekis taqsimlanganligini kuzatish mumkin. Eng ko'p yog'in tekisliklarda mart oyiga, tog' etaklarida va tog'larda aprel-mayga to'g'ri keladi. Hududda yog'in miqdori notekis taqsimlangan bo'lib, yoz oylarida yillik yog'in miqdorining atigi 2-2,5% i tushadi xolos. Hududda yog'in miqdorining notekis taqsimlanishi bahor oylarida tuproq yuvilishi, ierlar hosil bo'lishining kuchavishiga sabab bo'ladi. Yil davomida harorat o'zgarishi 26,4 ° C ni tashkil qiladi. Yilning eng issiq ovi iyul bo'lib, o'rtacha harorat 29,8 ° C. eng past o'rtacha harorati yanvarda 3,4 ° C atrofida bo'ladi. Hududda eng yuqori nisbiy namlik yanvar oyida 66,02%, eng pastiyun oyida 30,34% kuzatiladi.

Quruq va issiq iqlimli sharoitda joylashgan Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olish bevosita sun'iy sug'orish bilan bog'liq. Bunday sharoitlarda faqat sug'orish yer resurslari hosildorligini oshirishning eng muhim va zaruriy usuli hamda dehqonchilikni boshqarishning albatta amalga oshirilishi lozim bo'lgan sharti hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati vegetatsiya davrining nam bilan ta'minlanganligi jihatidan Qarshi cholidagi hududning quyi qismidagi g'arbiy tekislik dashtlari kamroq namlangandir. Bu hududga ayniqsa Sandiqli cho'lining (janubi-g'arbdan) ta'siri kuchli bo'lib, yillik yog'inlar miqdori 146-190 mm ni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyatining bu qismida yozning uzoq davom etishi sababli hududda yillik harorat katta bo'ladi. Zero, haroratning yuqori bo'lishi natijasida bug'lanish 1700 mm ga yetadi, bu esa o'z navbatida namlik taqchilligi (defitsit)ni ya'ni qurg'oqchilikni vujudga keltiradi.



Ma'lumotlarga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida havo haroratining davrlar bo'yicha o'zgarishini tahlil qilganimizda o'rtacha havo harorati 1951 yilda 7,5<sup>0</sup> C ga teng bo'lgan bo'lsa, 2021 yilga kelib, uning qiymati 8,3<sup>0</sup> C ga teng bo'lgan. Hisob davrida 0,8<sup>0</sup> C ga ortgan. Yilning iliq davrida esa 14,4<sup>0</sup> C dan 15,5<sup>0</sup> C ga, sovuq davrda 0,8<sup>0</sup> C dan 1,6<sup>0</sup> C ga ko'payganligini guvohi bo'ldik [5:170-173].

Qashqadaryo viloyatida ko'p yillik ob-havo ma'lumotlari tahliliga ko'ra, mart oyining maksimal va minimal haroratlari quyidagi ko'rinishda: 1961-2023- yillar oralig'ida mart oyining 2005-yilda mart oyida eng past harorat -9,3<sup>0</sup> C ni, 2024-yilda mart oyida eng past harorat -2,2<sup>0</sup> C ni, maksimal haroratlar 1961-2023 – yillar oralig'ida mart oyining 2000-yilda mart oyida eng yuqori harorat 36,4<sup>0</sup> C ni, 2024-yilda mart oyida eng yuqori harorat -30,4<sup>0</sup> C ni tashkil etdi. Hududda keying yillarda eng ko'p yog'in 1992-yilda 370 mm, 2018 yilda eng kam 140 mm yog'in tushgan. Quyidagi 1-rasmda 1990-2020-yillar davomida Qashqadaryo viloyati yog'in miqdori, mm.hisobida keltirilgan bo'lib, keyingi villarda yog'in miqdorining kamayib borishi kuzatiladi. Eng qurg'oqchil va yomg'irli oylar o'rtasidagi yog'ingarchilik miqdori o'rtasidagi farq 56 mm. O'rtacha mart oyida eng yomg'irli kunlari 8,53 kun. Eng kam yomg'irli kunlar esa avgust oyida 0,10 kun ekanligi kuzatiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida yog'inlar asosan oktyabr – may oylarida yog'ib, yog'inlarning eng yuqori miqdori mart oyida kuzatiladi (1-rasm).



1-rasm. Qashqadaryo viloyati yog'in miqdori, mm.hisobida (1990-2020-yillar)

Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Sir emaski, havo haroratining sutka va yil davomida keskin o'zgarib turishi nurashni kuchaytiradi va tog'oldi rayonlarida sel oqimining hosil bo'lishiga yordam beradi. Bunday sharoit biogen omillardan o'simlik qoplam, tuproqlar va hayvonot dunyosining tabiiy geografik jarayonlarning rivojlanishiga birgalikda ta'sir ko'rsatishida avj oladi. Zero, tuproq yuvilishi, cho'llarda shamol deflyatsiyasining intensivligi o'simlik qoplamining qalinligiga bog'liq va bu jarayonlar o'simlik qoplamini yordamida boshqariladigan jarayonni vujudga keltiradi.

Eroziya jarayonlarining boshqa omillar bilan birgalikda ta'siri tufayli tuproqlarda chirindi qatlamining kamayishi, zarur oziq moddalarning yo'qolishi, qurib ketishi kabi salbiy jarayonlar kuzatiladi. Mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, kam eroziyalangan tuproqlar chirindi gorizonti qalinligining 25% dan ko'prog'ini, o'rtacha eroziyalangan - 25-50%, kuchli eroziyalangan - 50% dan ko'prog'ini yo'qotadi. Shu bilan birga, tuproq va o'simlik qoplamini uchun zarur bo'lgan ozuqa moddalari kamayib borishi kuzatiladi. Masalan: azot - 0,3%, fosfor - 0,15%, kaliy - yuvilgan tuproq og'irligining 2% ni tashkil etadi [1:241].

Viloyatda yer-suv resurslari nihoyatda chegaralangan vaziyatda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirishni va yerdan yuqori darajada oqilona foydalanishni taqozo etadi. Natijada sug'orma dehqonchilik bir qator salbiy ekologik oqibatlariga sabab bo'ladi. Qashqadaryo viloyati obikor dehqonchilik zonalarida agrolandshaftlarga suv eroziyasi, shamol eroziyasi, gravitatsion jarayonlar, sel hodisalari, loyqa bosishi, botqoqlanish, sho'r bosish, qatqaloq hosil bo'lishi kabi tabiiy geografik jarayonlari eng ko'p salbiy

ta'sir ko'rsatishi bilan kuzatish mumkin. Keyingi yillarda viloyatdagi agrolandshaftlar maydonining kengayishi meliorativ holatini yaxshilashni talab qiladigan yerlar maydoni ham kengayishiga sabab bo'ldi (1-jadval).

1-jadval. Qashqadaryo viloyatida sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi bo'yicha ma'lumotlar (ming gektar hisobida).

Yillar	Umumiy sug'oriladigan yer maydoni ming ga.	Umumiy sho'rlangan yer maydoni ming ga.	Shu jumladan sho'rlanganlik darajasig ko'ra:		
			Kuchli sho'rlangan ming ga.	O'rtacha sho'rlangan ming ga.	Kuchsiz sho'rlangan ming ga.
2010	515,8	227,66	12,9	48,4	181,5
2015	515,4	279,6	10,9	42,5	182,5
2021	513,45	291,1	8,9	35,4	178,3

\*Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Berilgan 1-jadval ma'lumotlari tahlilida, 2010-yilda Qashqadaryo viloyatida sug'oriladigan yerlarning 227,66 ming ga. sho'rlanishga uchragan. Shundan kuchli sho'rlangan maydon 12,9 ming ga., o'rtacha sho'rlangan maydon 48,4 ming ga., kuchsiz sho'rlangan maydon 181,5 ming ga.ga teng bo'lgan. 2021-yil yanvar holati bo'yicha, sho'rlangan maydon 291,1 ming ga. bo'lib, shundan kuchli sho'rlangan maydon 8,9 ming ga., kuchsiz sho'rlangan maydon 178,3 ming ga. va o'rtacha sho'rlangan maydon 35,4 ming ga.ni tashkil etadi. "Davlat kadastrlar palatasi Qashqadaryo viloyati" boshqarmasi ma'lumotiga asosan 45176 gektar meliorativ holati yomon yerlar aniqlangan. Shundan: 1873 gektar sizot suvlari sathi ko'tarilgan hudud, 13119 gektar tuproq sho'rlanish darajasi yuqori va 30183 gektar suv tanqisligi va sug'orish inshootlarining yaroqsizligi bo'yicha qoniqarsiz ahvolda ekanligi aniqlangan. Viloyat bo'yicha sho'rlangan maydonlarni tahlil qiladigan bo'lsak 2015-yilga nisbatan 2020 yilda o'rtacha va kuchli sho'rlangan maydonlar 9323 gektarga kamaygan bo'lsa shundan: kuchli sho'rlangan maydonlar 2138 gektarga, o'rtacha sho'rlangan maydonlar 7185 gektarga kamaygan.

Hozirgi paytda viloyat yer maydonlariga antropogen bosim hamda iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri natijasida keyingi o'tgan yigirma yillikda (2003-2020-yillar) faoliyat yer fondining tarkibiy o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatda meliorativ holatini yaxshilash uchun nazoratga olingan maydon 513,45 ming ga., zovur talab etiladigan maydon 216,59 ming ga., amalda zovurlar bilan ta'minlangan maydon 296,87 ming ga.ni tashkil etadi. Viloyatda sug'oriladigan maydonning 296,87 ming gektari kollektor-drenaj tarmoqlari bilan ta'minlangan bo'lib, shundan 62,62 ming gektar maydon yopiq-yotiq drenaj tarmoqlari, 9,60 ming gektar maydon tik meliorativ quduqlar 224,65 ming gektar maydon ochiq kollektor tarmoqlari bilan ta'minlangan [2:46-51 3:390, 4:46-51]. Zero, bu tahlilardan ko'rinib turibdiki, olib borilayotgan meliorativ tadbirlar o'z samarasini berib, sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi kamayishiga olib kelmoqda.

**Xulosa.** Qashqadaryo viloyatida yer-suv resurslari nihoyatda chegaralangan vaziyatda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirishni va yerdan yuqori darajada oqilona foydalanishni taqozo etadi. Viloyat cho'l zonasida joylashgan tumanlarda yer osti suvlarining ko'tarilishi agrolandshaftlarda meliorativ holatni yaxshilash maqsadga muvofiq. Xususan Muborak, Nishon va Koson tumanlarida tuproq tarkibida tuzlarning konsentratsiyasi oshib borishini oldini olish uchun mavjud zovur - irrigatsiya inshootlarini ta'mirlash ucun ulardan samarali foydalanish va ma'lum



miqdorda kapital mablag'larni ajratishni talab etadi. Agrolandshaftlarni optimallashtirishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: yer tuzilishi va faoliyatining maqbul darajada shakllantirish, qishloq

xo'jaligi landshaftlarining xilma-xilligi va barqarorligini hamda yovvoyi tabiatning mahalliy genetik fondini asrash va tabiiy geotizimlar tiklanishini ta'minlash bilan agrolandshaftlarni ekologik optimallashtirish.

#### Adabiyotlar

1. Калёнов Г.С. Роль рельефа при изучении природных и антропогенных ландшафтов. -Самара: СГСХА, 2002. -С. 241.
2. Usmanova R., Xushmurodov F. Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligini optimallashtirishning ekologik-geografik jihatlari // O'zbekiston Zamini ilmiy –amaliy va innovatsion jurnal ISSN 2181-9955. 2/2021. 46-51-b.
3. Usmanova R., Toshboyev S. Reasonable use of land resources of Kashkadarya region under climate change //ИУСЕР Экономика и социум международный научно- практический журнал №3(118) 2024. www.iupr.ru
4. Usmanova R., Xushmurodov F. Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligini optimallashtirishning ekologik-geografik jihatlari // O'zbekiston Zamini ilmiy –amaliy va innovatsion jurnal ISSN 2181-9955. 2/2021. 46-51-b.
5. Юнусов F.X., Куватов Д.Р. Қашқадарё хавзаси тоғ дарёлари гидрологик режимининг иклим ўзгаришлари шароитида ўзгариши. //«Иклим ўзгариши шароитида арид худудлар сув ресурслари: муаммолар ва уларнинг ечимлари». -Т.: 2023. 170-173-b.
6. Қашқадарё вилояти Аму-Қашқадарё ирригация тизимлари хавза бошқармаси хузуридаги мелиоратив экспедицияси хисоботи. 2010-2022.

**РЕЗЮМЕ.** Maqolada bugungi kunning dolzarb masalalaridan Qashqadaryo viloyatida iqlim o'zgarishining agrolandshaftlarga ta'siri hamda qurg'oqchilik ta'sirida sug'oriladigan yerlaridan foydalanish, tuproq eroziyasi va boshqa jarayonlarning geografik-ekologik muammolari yoritilgan. Ushbu muammolarni shakllanishida tabiiy hamda antropogen omillarning roli, uni bartaraf etish tadbirlari haqida bayon etilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье освещаются актуальные на сегодняшний день вопросы влияния изменения климата на агrolandшафты в Кашкадарьинской области, а также географические и экологические проблемы использования орошаемых земель, эрозии почв и других процессов, вызванных засухой. Описана роль природных и антропогенных факторов в формировании этих проблем, меры по их преодолению.

**SUMMARY.** The article covers the impact of climate change on agrolandshafts in the Kashkadarya region and the geographical and environmental problems of the use of their irrigated land under the influence of drought, soil erosion and other processes. The role of natural and anthropogenic factors in the formation of these problems is described, measures to eliminate it.

### АҲОЛИ - МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИНИНГ ТАБИИЙ МАНБАСИ ВА УНГА ИЛМИЙ ЁНДАШИШ

**Г.Б.Утепова** – *география фанлари номзоди, доцент*

*Ажсиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институтини*

**Таянч сўзлар:** методология, аҳоли, меҳнат ресурслари, аҳоли бандлиги, ишчи кучи, табиат-аҳоли-жамият, миграция.

**Ключевые слова:** методология, население, трудовые ресурсы, занятность населения, рабочая сила, природа-население-общество, миграция.

**Key words:** methodology, population, the labor employment of the populaion, labor, nature-population-society, migration.

Жамиятнинг асосий ишлаб чиқариш кучи бўлган аҳолини ўрганишга иқтисодий ва ижтимоий география йўналишида ҳамisha аҳамият бериб келган. Чунки, мамлакат ва унинг иқтисодий районлари иқтисодиётнинг худудий тармоқларини ташкил қилиш ва ривожлантиришда аҳолининг сони, таркиби, аҳолининг табиий тақдор барпо бўлиши (дунёдан ўтган инсонлар ўрнини янги туғилган чақолақлар билан тўлдирилиши), миграцион ҳаракати, худудий жойлашиши ва тақсимланиши каби кўрсаткичлар катта аҳамият касб этади. Маълумки, аҳоли кўпгина хусусиятларига кўра мамлакатнинг турли минтақаларида бир-биридан фарқ қилади. Аҳолини табиий тақдор барпо бўлиш кўрсаткичлари, ёши ва жинсий таркиби, шаҳар ва қишлоқ жойлари бўйича жойлашиши, иш билан бандлиги барча давлатларда ўзига хос жиҳатларга эгадир. Аҳоли динамикаси жуда кўп ва хилма-хил омиллар таъсирида шаклландиган жараёнлар. Бу омиллар туғилиш, ўлим ва миграцион ўзгаришларда ўз ифодасини топади. Айниқса, аҳоли динамикасини демографик жараёнларнинг кўзгуси деб атасак, муболаға бўлмайди.

Аҳолишунослик соҳасида жаҳон олимлари атрофлича илмий тадқиқот ишларини олиб бормоқда ва уларнинг илмий - назарий асарларида аҳоли тушунчаси турлича талкин қилинади. Масалан, А.Я.Квачанин фикрига кўра (1990), «Аҳоли маълум худудда истикомат қилувчи, кишилиқ жамиятнинг асосий моддий компоненти ҳисобланган, тарихан таркиб топган ва ҳаётни бевосита тақдор барпо қилиниш жараёнида узлуксиз равишда тикланидиган одамлар мажмуидир» [2]. Демак, ушбу таърифдан келиб чиққан ҳолда, инсонлар муайян этник уюшмалар (уруғ, қабила, элат, сиёсий давлат, хўжалиқ, этник, диний бирликлар) туфайли ўзаро боғланганлигини ва маълум худудда яшаб, барқарор жамоалар ташкил этганлигини кўриш мумкин. Умуман, аҳолининг энг муҳим белгиси дунёдан ўтган авлодларнинг янги туғилганлар ва барҳаёт авлодлар билан узлуксиз алмашилиб, муттасил тикланиб

туришидир. Ушбу жараён илмий адабиётларда «табиий тақдор барпо этилиши» яъни аҳолининг «табиий ҳаракати» деб аталади ва шу тариха ҳаёт узлуксизлиги таъминланади. Аҳолининг аксарият қисми – меҳнат ресурслари бўлиб, улар эса бутун кишилиқ жамиятнинг асосий ишлаб чиқарувчи кучидир. Аҳолининг асосий ижтимоий-иқтисодий функцияси ҳам ана шунда эканлиги олимлар томонидан таъкидланмоқда.

Аҳоли тушунчасини Э.Р.Саруханов (1984) қуйидагича таърифлайди. «Аҳоли бу табиий ва тарихий шаклланидиган ва бевосита ҳаётнинг тақдор барпо қилиниш жараёнида бевосита қатнашадиган инсонлар мажмуидир» [3]. Олимнинг бу фикрини бошқача тарзда айтадиган бўлсак, аҳоли тақдор барпо этилиши жараёнида сони узлуксиз тикланиб турадиган ва умуман ер шарида ёки унинг бирор бир қисмида яшайдиган кишилар мажмуи ҳисобланади, у барча ижтимоий муносабатлар ва ишлаб чиқаришнинг асоси ва субъектидир. Аҳоли ижтимоий тараққиётнинг ҳар бир босқичида инсонларнинг конкрет тарихий мажмуи сифатида намоён бўлади. Аниқроқ қилиб айтганда, унинг зарурий тайёргарликка ва меҳнат тажрибасига эга бўлган қисми жамиятнинг асоси ва ҳаракатлантирувчи кучидир.

Аҳоли бутун жамият тараққиётининг таркибий қисми бўлиши билан бирга, шу тараққиётга муҳим таъсир кўрсатувчи омил ҳамдир. Аҳолининг яна бир хусусияти унинг худуд бўйлаб тарқалишидир. Ҳар қандай аҳоли ҳаётини фаолиятини маълум бир худудда бошлайди ва мазкур худуд билан боғланиш даражаси уларнинг энг муҳим хусусиятларидан ҳисобланади. Кейинчалик турли масалан, ижтимоий, иқтисодий, табиий-географик, тарихий омиллар таъсирида яшаш жойини ўзгариши мумкин. Мазкур ҳаракат натижасида аҳоли орасида миграция жараёни кечади. Одамларнинг худудий ҳаракати бир мамлакат доирасида (ички миграция) ёхуд бир нечта мамлакатлар ўртасида (ташки миграция) амалга ошади.

Аҳолининг меҳнат фаолияти билан банд бўлиши мумкин ҳисобланган меҳнатга лаёқатли ёшдаги гуруҳи - меҳнат ресурслари ҳисобланади. Жаҳондаги мавжуд кўпчилик мамлакатларда унинг мезонлари турлича бўлади. Меҳнат ресурслари жамият ривожланишида ниҳоятда муҳим ўрин эгаллайди. Аҳоли-меҳнат ресурсларининг табиий манбаи, асоси бўлиб, аҳолининг меҳнатга лаёқатли қисми меҳнат ресурсларининг пой-девори ҳисобланади. Барча ҳудудларда аҳоли миқдори меҳнат ресурслари миқдоридан анча кўп бўлади. Чунки, аҳолининг ёш таркибини ташкил этувчи маълум гуруҳлар асосида меҳнат ресурслари шаклланади.

Меҳнат ресурслари ҳаракати - мураккаб ижтимоий - иқтисодий жараён. Аҳоли ва меҳнат ресурсларининг ҳаракатчанлигини ижтимоий-иқтисодий категория сифатида ўрганиш шуни кўрсатадики, у ишлаб чиқариш муносабатлари элементи сифатида қаралиши мумкин. Маълумки, жамият иқтисодиётнинг у ёки бу соҳасида белгиланган ҳажмдаги ишларни бажариш учун етарли иш жойларига эга бўлиши, ижтимоий меҳнатни тежаш ва ундан оқилона фойдаланишни ҳисобга олиши натижасида инсонлар ўзининг ижтимоий эҳтиёжларини қондиради. Шу боис, меҳнатни оқилона тақсимлашга фақат меҳнат ресурслари ҳаракати жараёнида эришиш мумкин. Аҳоли ва меҳнат ресурслари ҳаракатчанлиги уларнинг жамият учун зарур тарзда тақсимлашнинг муҳим шарти ва таъминловчи воситасидир [4].

Аҳоли ва меҳнат ресурсларининг такрор барпо қилинишига жуда кўп омиллар бевосита ва билвосита таъсир кўрсатади, булар сирасига иқтисодий, ижтимоий, географик, демографик омилларни киритиш мумкин. Меҳнат ресурслари жамиятнинг ишлаб чиқарувчи кучи, шу билан бирга жамиятдаги мавжуд моддий неъматларни истеъмол қилиш имкониятига ҳам эга қатламдир. «Аҳоли ривожланиши мобайнида бир сифат ҳолатидан бошқа сифат ҳолатига ўтиши қонуний жараёндир».

Маълумки, аҳоли «ишчи кучи»га айланганда, ишлаб чиқариш тизимига яқинлашади, унганча бўлган босқичда эса кўпроқ ижтимоий организм бўлишига қарамай «аҳоли тизими»га хос қонунлар асосида ривожланади. Аҳоли ривожланишини бошқаришнинг мақсади, вазифалари, тамойиллари ва механизминини аниқлашда аҳоли тизими «табиат-аҳоли-жамият» тизимининг ажралмас бир қисми эканлигини, унинг шаклланиши ва ривожланишида ички хусусиятлари муҳим ўрин эгаллашини ва бошқа томонларни ҳисобга олиш зарур. Меҳнат ресурсларининг шаклланиши, даставвал аҳолининг табиий ҳаракати, жамиятнинг ижтимоий - иқтисодий ривожланганлик даражаси ва тарихий тараққиётнинг хусусиятларига боғлиқ ҳолда амалга ошади. Ишлаб чиқаришда ҳамда хизмат кўрсатишда банд бўлган фаол ва салоҳиятли гуруҳ меҳнат ресурслари таркибига қиради. Иқтисодиётда банд бўлган ўсмир ва қариялар ҳар доим меҳнат ресурслари ҳисобланади, ammo улар салоҳиятли меҳнат ресурслари қаторига кўшилмайди.

Олимларнинг меҳнат ресурслари тўғрисида фикрлари ичида айниқса, Н.А.Гореловнинг фикри эътиборга лойиқдир. У ўзининг «Экономика трудовых ресурсов» (1989) китобида меҳнат ресурсларининг шаклланиши, тақсимланиши ҳамда улардан фойдаланиш масалаларини чуқур ва ҳар томонлама кўриб чиқиб, меҳнат ресурсларини қуйидагича таърифлайди: «Меҳнат ресурслари иқтисодий категория бўлиши билан бирга аҳолининг ҳар хил вазиятини изоҳлаб, мамлакатнинг ишчи кучи ва ишлаб чиқариш жараёни ҳақидаги кўрсаткичлари билан боғлиқ бўлган аҳолининг жисмоний ва маънавий меҳнатга муносабатини кўрсатиб беради» [1]. Олимнинг фикрига қўшимча қилиб шуни айтиш мумкинки, меҳнат ресурслари бир томондан аҳоли тизими билан, иккинчи томондан эса хўжалик тизими билан

ўзаро алоқада бўлади. Меҳнат ресурсларининг аҳоли тизими билан алоқадорлиги натижасида - «меҳнат ресурслари», хўжалик тизими билан алоқадорлиги натижасида - «ишчи кучи» шаклланади. Аҳолининг ўсиш суръатлари меҳнат ресурсларининг ҳам кўпайишига олиб келувчи муҳим омил ҳисобланади.

Меҳнат ресурслари ҳаракатчанлиги ишлаб чиқариш ва меҳнатни умумлаштириш жараёнининг шартли ва ифодаси сифатида намоён бўлади. Ишлаб чиқариш кучларининг икки элементи яъни сифат ва миқдор томонлари жамиятда мувофиқликни таъминлайди ва ўзгарувчан ижтимоий эҳтиёжларни қондириш имконини беради. Шу билан бирга аҳоли ва меҳнат ресурслари ҳаракатчанлиги мобайнида маълум қийинчиликлар ҳам юзага келади. Масалан иш вақти мобайнидаги йўқотишлар, ҳаракатланаётган ишчини меҳнат самарадорлигининг пасайиши ва бошқалар тўпланган иш тажрибаси ва кўникмаларни сусайтиришга олиб келади. Меҳнат ресурсларини қайта тақсимлаш фан-техника тараққиёти шароитида ишчи кучи ҳаракатининг характерли белгиси, шунингдек, у иқтисодий жиҳатдан бир вақтнинг ўзида ҳам истеъмолчи, ҳам ишлаб чиқарувчи ролини бажаради.

Э.Р.Саруханов (1984) эса «Меҳнат ресурслари – бу иқтисодий соҳаларда ишлаш учун зарур бўлган жисмонан баркамол ақлий қобилият ва билимга эга бўлган аҳолининг бир қисмидир» - деб таъкидлайди[3]. Мазкур фикрни кенгроқ талқин қиладиган бўлсак табиийки, аҳоли - меҳнат ресурсларининг ҳам, ишчи кучининг ҳам табиий асоси. Меҳнат ресурслари аҳоли таркибида ўзгарувчан динамик бўлак сифатида шаклланиб, улар аҳолини такрор барпо бўлиш жараёнида ўзига хос хусусиятлар асосида ривожланади. Мазкур жараённи амалга оширишга ниҳоятда кўп, географик омиллар таъсир қиладди.

«Умуман меҳнат ресурслари – бу меҳнат фаолияти учун баркамол жисмоний ва маънавий куч қобилиятларга, меҳнат қилиш учун зарурий билим ва тажрибага эга бўлган, юқори даражадаги меҳнат ва генератив фаоллиги билан ажралиб турадиган ва аҳоли ривожланишига ҳал қилувчи таъсир кўрсатувчи, ўз-ўзидан кўпайувчи тирик индивидлар мажмуидир», деган фикрни билдиради Е.П.Чернова (1982) [5]. Демак, иқтисодий ривожланиш жараёнида меҳнат ресурсларини давр талабидан келиб чиққан ҳолда ривожлантириш мақсадга мувофиқдир. Меҳнат ресурсларини ривожлантириш, табиий қайта шакллантириш, меҳнатга тайёрлаш, иш билан таъминлаш, моддий ва номоддий соҳаларда, уй, томорқа хўжалигидаги меҳнат фаолиятини юргизиш, уларни қайта тақсимлаш, қайта тайёрлаш, маҳоратини ошириш унинг сифатига ижобий таъсир кўрсатади. Бу билан меҳнат ресурсларини жаҳон талаблари даражасига мос келадиган ва мамлакатда амалга ошириладиган ислохотларга жавоб берадиган юқори малакали кадрлар этиб тайёрлаш жамиятдаги ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларининг самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатади.

Меҳнат ресурслари жинсий таркиби меҳнатга лаёқатли ёшдаги эркаклар ва аёлларнинг нисбати билан белгиланади, чунки меҳнат ресурсларида эркаклар ва аёлларнинг ўрин алоҳида, лекин эркаклар улушининг каттароқ бўлиши нормал ҳолат ҳисобланади, чунки, эркакларнинг меҳнатга лаёқатли ёш чегаралари каттароқ кўрсаткичга эга. Лекин, иқтисодий жиҳатдан ривожланган мамлакатларнинг меҳнат ресурслари таркибида одатда, эркакларнинг салмоғи аёлларнинг салмоғига нисбатан пастроқ, ривожланаётган мамлакатларда эса акси ҳисобланади. Бу эса мамлакатлар тараққиётининг ижтимоий-иқтисодий ўзига хослиги, миллий анъаналар, диний мансублик ва бошқалари меҳнат ресурслари қайта тикланишига таъсири оқибатидир. Аҳолининг моддий ва маънавий неъматларга бўлган ва тобора

ортиб бораётган эҳтиёжларини кондириш иқтисодиётнинг ривожланиш қонуни экан, демак, бирон-бир хууд иқтисодиётини режалаштириш учун унинг меҳнат ресурсларига алоҳида ёндашиш зарур.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, аҳолининг табиий ҳаракати ва табиий такрор барпо этилишини ўрганиш асосида ҳаёт илмий истеъмолга янги иқтисодий категорияни – миқдорий ва демографик шаклланган салоҳиятли ва амалдаги ишчи кучи миқдорини англатувчи «меҳнат ресурслари» категориясини киритиш заруриятини келтириб чиқарди. Ҳар қандай

жамиятнинг илдам ривожланиши ва жаҳон миқёсидан жой олиши учун ундаги мавжуд меҳнат ресурсларининг миқдор ва сифатига алоҳида эътибор бериш зарур. Ҳар бир минтақада ҳар йили қанчадан-қанча ёшлар меҳнатга лаёқатли ёшга етади. Мазкур вазият уларга алоҳида эътибор ҳамда моддий ва маънавий ёрдамлар берилиб, имкон қадар иш жойлари билан таъминланса, албатта ушбу минтақадаги меҳнат ресурсларининг сифати анча яхши томонга ўзгаради.

#### **Адабиётлар**

1. Горелов Н.А. Экономика трудовых ресурсов. –М.: «Высшая школа». 1989, -С.12.
2. Квача А.Я. Население трудовые ресурсы. -М.: «Мысль». 1990, -С.139.
3. Саруханов Э.Р. Население и трудовые ресурсы. В справочном пособии. «Управление трудовыми ресурсами». -М.: «Экономика». 1984, -С.4.
4. Утепова Г.Б. Қорақалпоғистон Республикаси қишлоқ жойларининг демографик ривожланиши ва меҳнат ресурслари муаммолари. г.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2002. 23-б.
5. Чернова Е.П. Теоретико-методологические проблемы народонаселения и трудовых ресурсов. -Ф.: «Илим». 1982, -С.119.

**РЕЗЮМЕ.** Таклиф қилинаётган мақолада аҳоли ва меҳнат ресурсларини методологик жиҳатдан ўрганишнинг кўпгина аҳамиятли социал-иқтисодий ва демографик масалалари ҳақида сўз боради.

**РЕЗЮМЕ.** В рецензируемой статье рассматриваются наиболее важные социально- экономические проблемы демографические и методологические основы движение население и трудовых ресурсов.

**РЕЗЮМЕ.** In the article under review, the most important socio-economic problems, the demographic and methodological basis for the movement of the population and labor resources.

## JÁMIYETLIK HÁM EKONOMIKALÍQ ILIMLER

### Tariyx. Huqıqtanıw. Ruwqıylıq tiykarları

#### QORAQALPOG‘ISTONDA JAMOALASHTIRISH VA UNING OQIBATLARI

A.A.Abdukarimov – *tariyx fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so‘zlar:** islohot, agrar, totalitar siyosat, jamoalashtirish, qishloq xўjaligi, Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati, kazu.

**Ключевые слова:** реформы, аграрная, тоталитарная политика, коллективизация, сельское хозяйство, Каракалпакская автономная область, казу.

**Key words:** reforms, agrarian, totalitarian politics, collectivization, agriculture, Karakalpak Autonomous Region, kazu.

Qoraqalpog‘iston sharoitida 1925-1928-yillardagi yer-suv islohotlarini amalga oshirishga urinishlar hukumat uchun kutilgan natijalarni bermadi. Yerni taqsimlash ishlari ularga yirik yer egalari va ishbilarmonlar shaxsida dushman obrazini ommaviy ongilarida shakllangan yersiz dehqonlar ahlini «sinfiy kurash»ning muhim elementi sifatida ommaviy axborot qurollari orqali boshqarish imkonini berdi[1].

Jamiyatdagi g‘oyaviy qarama-qarshilik 1927-yil kuzida Abu Kudabaevning o‘rniga viloyat partiya tashkiloti birinchi kotibi lavozimiga P.I.Varlamovning kelishi bilan yanada kuchaydi. Qozoq VKP(b) Kraykomining (oktabr 1927 y.) P.I.Varlamov nomiga xatida kim bilan kurash olib borishi bevosita ko‘rsatiladi: «QAO da boylar va ruhoniylar haliyam kuchli ta’sir ko‘rsatadi... Boylar va eshonlarning asosiy hukmdorligi suvdan foydalanish va yerdan foydalanish sohasida ularning imtiyozga ega bo‘lishidir... U holda tegishli islohotlar yordamida ular bilan kurash olib borish kerak»[2].

Qoraqalpog‘iston hukumati yer-suv islohotini o‘tkazish muddatlarini 1930-yilning oxiridan bahorgi ekish kampaniyasiga ko‘chirishni Qozog‘iston Kraykomidan iltimos qildi. 1928-yil 24-noyabrda «QAV dagi yer-suv islohoti to‘g‘risida»gi qaror qabul qilinadi»[3]. «Keng batrak-kambag‘al va kichik qudratli-o‘rtachalar ahlining erishilgan siyosiy tayyorligi» mavjud ekanligi ta’kidlandi, bu esa batrak-kambag‘al qatlamning o‘rta hollar bilan ovul va qishloqlarda yer-suv munosabatlarining ijtimoiy sinfiy o‘zgarishlar uchun boylarga qarshi yagona blokga kirish zarurligini to‘la anglab olishlariga erishish uchun asos bo‘ladi.

Galetov 1928-yil 20-noyabridagi «QAV dagi yer-suv islohoti» to‘g‘risidagi bayonotida «islohotni o‘tkazishni biz hozir amallay olmaymiz, chunki oldimizda kampaniya - «Qo‘shchi»ni tozalash, Sovetlarning qayta saylovlari, rentabellikka ko‘ra soliqqa tortishning yangi tamoyillari, «kazu»ni amalga oshirish, ekish kampaniyasi» - borligini ta’kidlaydi [4].

Qoraqalpog‘iston ovul va qishloqlari (yarimfeodal-kapitalistik) elementlariga hujum qilishning to‘rtta yo‘nalishidan asosiysi 1928 yil bahoridan boshlangan va 1929-yil kuziga kelib tugallangan. Unda suvni va «qazish»ni sovetlashtirish uchun kurash ta’kidlandi va bu holat qishloq va ovulning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining asosiy bo‘g‘ini bo‘ldi.

Bu siyosat Qozoq SIKi 1928-yil 17-avgustdagi «Boy yerdan foydalanuvchilarni mol-mulkini tortib olish to‘g‘risida»gi dekreti asosida amalga oshirildi. Irrigatsion tarmoqlarni («qazuv») tozalash bo‘yicha ishlardagi mehnat majburiyati islohoti mazmunining mohiyati ishlarning asosiy og‘irligini eshon va boylar zimmasiga yuklashga qaratildi. Mazkur tadbirlar, shuningdek, suv xo‘jaligi butun apparatini pastdan yuqorigacha tozalash, «ariq-oqsoqollar»ni batraklar, kambag‘allar va o‘rtacha doira vakillari bilan almashtirishi Qoraqalpog‘iston bolsheviklari lideri P.Varlamov fikriga ko‘ra, «feodal munosabatlar bo‘g‘inini, feodalizm sarqitlariga katta zarba berish va dehqonlarning keng ommasini sovetlashtirish yo‘liga tushirishni» bog‘lashi kerak edi»[5].

Umuman olganda, 1927-1928-yillarda partiya ko‘rsatmalari o‘z maqsadiga erishdi - Qoraqalpog‘iston dehqonchiligi uzluksiz kollektivlashtirish ostonasida parchalandi deb ta’kidlash mumkin.

Ushbu kurashning yana bir yo‘nalishi sovet va partiya organlarini «tozalash» bo‘ldi. S.Nurjanov fikriga ko‘ra boshqarish apparatini 1927-1932-yillar orasidagi davrda tozalash ikki bosqichda: 1927-1928-yillar va 1929-1932-yillarda o‘tkazish rejalashtirildi [6]. Asosiy maqsad «Qoraqalpog‘istondagi mavjud holatni aniqlash, shu paytda barcha tashkilotlarda hukmronlik qilgan barcha tashkiliy chalkashliklarni yechish, bularning hammasini uyg‘unlashtirish» bo‘ldi [7]. Ushbu kampaniya 1928/1929-yillarda bitta bosqichda amalga oshirildi va tezkor kampaniya xarakteriga ega bo‘ldi [8]. Demak, tizimda islohotlarni oqibatini o‘ylamasdan, zudlik bilan amalga oshirish boshlangan.

Qozoq Kraykomining 1930-yilning 11-yanvaridagi Qarorida Qoraqalpog‘iston yerni ishlash rayonlari sifatida Sho‘roxon, Shabboz, Xitoy, Qipchoq, Xo‘jayli, Qora‘zak, Taxtako‘pir, Chimboy, Qo‘ng‘irot aniq belgilandi. «Mazkur rayonlarda «quloqlarni sinf sifatida bartaraf qilish siyosati»ni o‘tkazish uchun zaruriy shartlar, ya’ni yuqori tovar xo‘jaligi, tashkillashgan batraklik va kambag‘allik mavjud edi.

Ayovsiz oziq-ovqat siyosatidan dehqonlar hammadan ko‘p jabr ko‘rdilar. Hukumat dehqonlardan donni qarzga olardi, ammo o‘z qaramog‘ida qolgan donlarni almashtirish uchun tovarlar bo‘lmadi. Bu dehqonlarni noroziligini kuchaytirdi va qachonlardir tovarlar yoki tegishli kompensatsiya olish umidini puchga chiqardi. Chunki g‘alla va chorvachilik mahsulotlari – bu ovulda almashinish uchun mavjud bo‘lgan yagona manba hisoblangan. Terrorizmga duch kelgan aholi tomonidan qarshilikka uchramagan vakolatga ega hokimiyat jazolash usullarini qo‘llashda ham har qanday insoniylik chegarasidan chiqib ketdi, o‘z harakatlarini shaxsiyatga tegish va insonlar ustidan kamsitishlarga aylantirdi.

1930-yil 10-noyabr Qoraqalpog‘iston viloyat partiya komissiyasi majlisida quloqni sinf sifatida bartaraf qilish uchliligining har kungi ishlari uchun «yarimfeodal va quloq xo‘jaliklari» belgilari aniqlandi. O‘rta hol yer egasi quyidagicha aniqlandi: ekish normasi - oilaning har bir a’zosiga 1 tanob; uy hayvonlari: sigir 4-5, qo‘y va echkilar 15-20 boshdan; inventarlar omach -1,2, mola - 1, arba 1-2, chig‘ir - 2 dona. Oila a’zolarining umumiy soni o‘rtahol xo‘jaliklarida, ular qancha ko‘p qatlamli bo‘lishiga qaramay 10-12 kishidan oshmagan, shunga ko‘ra 15-18 tanob bilan chegaralandi. 15 va undan ko‘p a’zoli o‘rtahol xo‘jaliklar shubha ostiga olingan. O‘rtahollar tomonidan ish kuchini yollash yiliga 10 kun deb belgilandi.

Boy-yer egasi, chorva egasi toifalariga o‘rta hol yer egalari normasidan oshib ketuvchi boshqa daromadlar – pudrat, savdoga yetkazib berish, kreditlash, qaroz, moyjuvoz, ijaraga va boshqalarga ega bo‘lgan xo‘jaliklar kiritildi. Boy chorva xo‘jaligi - 35 boshdan oshiq qora mol soniga ega xo‘jaliklar (barcha hayvonlar qora mol boshiga o‘tkazilgan), boy savdogarlar - bu 10 ming rubl savdo aylanishiga ega xo‘jaliklar [9] sifatida belgilandi.

1930-yil 20-fevralida P.Varlamov quyidagi antigumanistik qarorni qabul qilishga erishdi: «QQAV chegarasidan kontrrevolyusion ishlar, teraktlar, bosmachilik bo'yicha bartaraf qilinganlar hisobidan ko'chirib yuborilganlar sonini oshirishni markaz oldida talab qilish, viloyat chegarasidan ko'chirib yuborish bo'yicha ko'rib chiqish uchun personal ro'yxatni OGPU oblotdeliga taqdim qilish» [10]. Shu vaqtda ko'chirib yuborilgan xo'jaliklar soni 298 ta birlikka yetdi.

Hukumat kollektivlashtirish uchun sharoitlarni tayyorlashda iqtisodiy nuqtai nazariga nisbatan masalaning mafkuraviy jihatiga e'tibor qaratdi. Birinchidan, ular yerni qayta taqsimlashni tenglashtirish bo'yicha ishlarning nima uchun to'xtalishini tushunib yetmaydigan aholining yersiz qismining fikriga tayandi. Ammo «kutilayotgan yer islohotida jamoaviy fikrni tayyorlash» vazifasi qo'yildi [11]. Shunga qaramay QQAV sharoitlaridagi targ'ibot-tashviqot ishlari adashishga olib keldi, jumladan, rayon vakillarining obkom partiya yig'ilishlaridagi chiqishlarida, 1928-yil 20-noyabrda asosan, «Chimboy rayonining barcha ovullarida deyarli masalalar va chiqishlarida yerni qayta ishlash, eng yaxshi yerlarni boylar va eshonlardan tortib olish va kambag'allarga berish» fikri ta'kidlandi [12]. Ikkinchidan, mamlakat kollektivlashtirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy va moddiy-texnik imkoniyatlarga ega bo'lmadi. Ular oddiy, mexanik tarzda taycha mablag' va imkoniyatlarni jamoatchilik fikrini hisobga olmasdan birlashtirish bilan cheklandi, ular qoraqapog jamiyatining an'anaviy turg'unligi va o'zaro munosabatlarning xarakteriga tayandi, xolos. Uchinchidan, kengash hukumati ancha boy qatlamga, ularni kuch ishlash va repressiyaga tortgan holda hujum qildi, shu orqali jamiyatni asosiy o'zakkdan (ham mafkuraviy, ham iqtisodiy jihatdan) uzib qo'ydi. Masalan, 1930-yilning 21-yanvarida xon, vaqf va boy qatlam yerlarini batafsil bartaraf qilish va ancha yirik «kontrrevolyusion elementlar»ni ko'chirib yuborish qaroriga kelindi. 1930-yilning 17-martida QQAV Ijroqo'mining «QQAV ancha yirik ta'siri kuchli yarimfeodallarni bartaraf qilish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Birinchi navbatda, 1929-yil qarshilik harakatining ishtirokchilari siyosiy genotsidga tortildi. Butun viloyat bo'yicha maxsus ro'yxat tuzilib, 295 ta xo'jalik ko'chirib yuborildi [13].

Jamoalashtirishning boshlang'ich bosqichida Qoraqalpog'istonning qishloq xo'jaligida artellar, kommunalar, sheriklik va boshqa shakldagi yerdan foydalanuvchi xo'jaliklarning turli birlashmalarini shakllantirish taxmin qilindi. Kolxoz harakati viloyatda 1928-yil ekish kampaniyasining boshlanishi bilan kuchaydi va 13 ta qishloq xo'jalik artellari tuzildi [14]. 1928/1929 yillarda 2096 kishilik va 478 ga paxta maydoniga ega 568 ta xo'jalik birlashtirildi. 1929/1930 yillarda 16233 kishini qamrab olgan holda 3051 ta xo'jaliklarni birlashtirish belgilandi. Viloyat kolxoz seksiyasi raisi Lepeshkinning guvohlik berishicha, «yuqori tashkilotlar tomonidan bunday jadallik yetarli emas» deb topildi, va «birlashishni ko'paytirish», ya'ni 21965 kishilik 16335 gektar yer ajratilgan (paxta ekiladigan – 7257,25 ga) 4084 ta xo'jalikni birlashtirish taklif qilindi [15].

Agarda 1928-yilda kolxozlarga jami faqatgina 200 nafar dehqon kirs, 1932-yilda esa ular 29588 ta dehqon xo'jaliklarini birlashtirdi. Kolxozlarning ekish maydoni ham ortdi: 1928-yili kolxozlar faqat 500 gektar yer, 1932-yili esa - 80234 gektar yerga urug' qadadi, yakka sektor ulushiga shu yilda faqat barcha ekin maydonining chorak qismi to'g'ri keldi. Paxtachilik kolxozlarining yuksalishiga alohida e'tibor qaratildi, masalan, paxtachilik yo'nalishidagi kolxozlarning solishtirma salmog'i 1932-yili 1928-yildagi 2,8% ga nisbatan 64% gacha oshdi, bunga kapital quyilmaning asosiy jamg'armalari yo'naltirildi. Hokimiyat tuzilmalari jamoaviy xo'jaliklarning

xususiylarga nisbatan afzalliklarini orttirib ko'rsatishga har tomonlama e'tibor qaratdi. Paxta ekin maydoni muntazam ortib bordi, u kolxozlarda shu yillarda 210 dan 42750 gektargacha ko'paydi. Agar 1928-yili kolxozchilar har gektardan o'rtacha 5,4 sentnerdan hosil olib, davlatga 1,5 ming tonna paxta topshirgan bo'lsa, 1932-yili o'rtacha hosil gektaridan 7,5 sentnerni tashkil qildi va davlatga 30 ming tonnaga yaqin paxta topshirildi [16]. Ba'zi bir xo'jaliklar o'rsinsiz soliqlarga va boshqa kamchiliklarga duch kelishdi, bu esa mohiyatan o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish uchun ularga imkoniyatlar qoldirmadi.

Shunday qilib, 1929-1932-yillar ancha og'ir yillar bo'ldi - qoraqalpog jamiyatining an'anaviy asoslarining faol inqirozga uchrashi va Qoraqalpog muxtor viloyatida qishloq xo'jaligida jamoalashtirish jadalligining kuchayish davri bo'ldi. Bu davr boy va ruhoniylarni sinf sifatida ularni boshqa joyga ko'chirib yuborish va mulklarini tortib olish bilan bartaraf qilishni qamrab oldi. Ushbu davrda individual xo'jaliklarni jamoaviy xo'jaliklarga barcha mol-mulklarini jamoaviylashtirish bilan majburiy tortish amalga oshirildi [17].

Kelgusi 1933-1934-yillarda qishloq xo'jaligida boshqarish va hokimiyat organlari tomonidan rejalashtirilgan natijalarga erishilmadi. Masalan, SIK KKASSR ning III sessiyasi 1933-yil sentabrda ushbu holatni yana bir bor ta'kidladi, «Kengashlar ommadan uzilib qoldi va ko'p hollarda faqat hokimchilik bilan cheklandi. Ularning atrofida kolxozchilar va mehnatkash dehqonlardan faollar tuzildi» [18]. Bunda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishida sezilarli kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Masalan, 1933-yili davlatga paxta topshirishda rejada 39 ming tonna belgilangan bo'lsa, amalda 28 ming tonnaga yaqin paxta topshirildi, bu hatto 1932-yildan (37 ming tonna) ham kam bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, butun respublika bo'yicha bunday vaziyatni jarayonlarning murakkab ijtimoiy-siyosiy tavsifi bilan asoslash mumkin, bu agrar sektorda ishlab chiqarishning pasayishini ta'minladi. Qozog'iston va Rossiyaning markaziy qismida dahshatli ochlik yoyildi, bu aholining katta qismining O'rta Osiyoga, jumladan, Qoraqalpog'istonga migratsiyalanishiga majbur qildi. Qora mollarning bosh sonini va qishloq xo'jalik mahsulotlarining kamayib ketishi shunday vaziyatlarning sababchisi bo'ldi. Shaharlarning ta'minlanishi qoniqsiz holda, qishloq joylarida ahvol yomonlashdi. Bunga yana 1932-yildagi qurg'oqchilik ham o'z ta'sirini ko'rsatib, mamlakat iqtisodiyotida tovar-pul munosabatlarining nomuvofiqligiga olib keldi. Tarixchi A.Djumashev ma'lumotlariga ko'ra shu paytda Qozog'istondan respublikaga 3358 ta xo'jalik ko'chib o'tdi [19]. Shu bilan birga 1938-yilda Qoraqalpog'istonga, 7347 kishidan iborat 1600 koreys oilalari deportatsiya qilindi. Ular Qo'ng'iroq, Mo'ynoq, Xo'jayli, Kuybishev, Beruniy va Qipchoq tumanlariga joylashtirildi [20]. Qoraqalpog'istonda xodimlar va ishchilar uchun kartochna sistemasi, dehqonlar uchun ish kuniga beda payoklari joriy qilindi.

QQASSR hukumati tomonidan 1935-yil 10-martida qishloq xo'jaligini rivojlantirish rejasi belgilandi. Umumiy ekin maydoni 1935-yili 113600 gektar, 1937-yili 125300 gektargacha yetkazish, jumladan, paxta uchun 31500 tonna hosil olish bilan – 45 ming gektardan 47 ming gektargacha, beda uchun – 30000 dan 34100 gektargacha, g'alla va boshqa ekinlar uchun - 39000 dan 44000 gektargacha yetkazish belgilandi [21]. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnik bazasini takomillashtirish rejalashtirildi, masalan, respublika bo'yicha 279 ta traktorga ega 6 ta MTS ochish belgilandi va ular To'rtko'l, Shabboz, Qipchoq, Xo'jayli tumanlarining 391 ta kolxozlariga xizmat ko'rsatishi zarur bo'ldi. Sug'orishni mexanizatsiyalashtirish maqsadida Qoraqalpog'istonda meliorativ sherikchiliklar tashkil qilindi. Ular esa tez orada umumiy sug'orish maydoni 3081 gektar bo'lgan 1035 nafar suvdan foydalanuvchilarni



birlashtirdi. Mashina-traktor parklari tashkil qilina boshladi. Dastlabki mashina-ijara punktlari To'rtko'l okrugida tashkil qilindi.

Sug'orish ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash bo'yicha choralar ko'rildi, masalan, Qoraqalpog'istonga 50 ta nasos dvigatellari, 7 ta zemlesos, 23 ta skreper, 19 ekskavator ajratildi [22]. 1936- yilga kelib respublikada 164 ta nasos qurilmalari mavjud bo'ldi.

1936-yili barcha xo'jaliklarning 85,7% 36988 ta xo'jalikni qamrab olgan holda jamoalashtirildi, ekish maydoni 120 ming gektargacha ortdi [23]. Kolxozlarning umumiy ekin maydoni 1936 yilda 120 ming gektarni tashkil qildi. Respublikada 14 ta MTS mavjud bo'ldi, ularning ixtiyorida 745 ta traktor bo'ldi [24].

1936-yili bir necha yillar davomida ilk bor paxta tayyorlash rejasi (113,7%) bajarildi, davlatga 1935 yilda rejalashtirilgan 40655 tonna o'rniga 53330 tonna paxta topshirildi. Mol chorvachiligida, beda tayyorlashda va poliz topshirishda ba'zi siljishlar kuzatildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarixini o'rganish shundan dalolat beradiki, dasturiy ijtimoiy fikr 1920-1930-yillarda taqiblangan ortodoksial marksizm ta'sir zonasida bo'ldi. Tarix, jumladan, Qoraqalpog'iston ovul va qishloqlarining qayg'uli solnomasi «oq doglar» mozaikasini namoyish qiladi. Bu esa jamiyatning ma'naviy turmushini sezilarli kambag'allashtirdi, ommaviy tarixiy ongga ta'sir ko'rsatdi. Shu davrning o'ziga xosligi shundan iborat bo'ldiki, boshqarishning kuch metodlaridan voz kechilganiga qaramay, mamlakat rahbariyati «kuch ishlatish» metodlariga «ishonchli» va «samarali» deb qarab, qayta-qayta murojaat qildi. Agrar munosabatlarni dasturiy jamiyatda kuch bilan shakllantirishga urinishlar boshlanishida doimo sezilarli, eng asosiysi tezkor natija bera oldi, ammo uning kelajagi bo'lmadi. Eski totalitar, buyruqbozlik-hokimiyat sistemasiga uni tenglashtirish va mehnatni sog'lom motivatsiyasiz qaytish biz uchun ma'qul bo'lmashligini tarixiy tajriba ko'rsatib berdi.

### Adabiyotlar

1. Советская степь. 1928, 17 январ.
2. КРМДА, 1-фонд, 2-руйхат, 520-иш, 53-варак.
3. КРМДА, 1-фонд, 2-руйхат, 135-иш, 12-варак.
4. КРМДА, 1-фонд, 2-руйхат, 135-иш, 11-варак.
5. Авезов К., Варламов П. Каракалпакстан к 10-летию Казахстана. -Алма-ата: 1930. -С. 12.
6. Нуржанов С. Каракалпакская автономная область: история в источниках. -Нукус: «Илим». 2014. -С.16.
7. Авезов К., Варламов П. Каракалпакстан к десятилетию Казахстана. -Алма-ата: 1930. -С.52.
8. КРМДА, 1-фонд, 2-руйхат, 85-иш, 7-варак.
9. КРМДА, 1-фонд, 2-руйхат, 803-иш, 10-11-вараклар.
10. КРМДА, 1-фонд, 2-руйхат, 530-иш, 28-варак.
11. КРМДА, 1-фонд, 2-руйхат, 135-иш, 25-варак.
12. КРМДА, 1-фонд, 2-руйхат, 140-иш, 4-5-вараклар.
13. КРМДА, 1-фонд, 2-руйхат, 140-иш, 4-5-вараклар.
14. Нуржанов С. Каракалпакская автономная область: история в источниках. -Нукус: «Илим». 2014. -С.17.
15. КРМДА, 1-фонд, 2-руйхат, 515-иш, 65-варак.
16. Каракалпакстан жана тарийхи. Каракалпакстан XIX эсирдин екинши ярымынан XXI эсир басына шекем. -Н.: 2003.158-б.
17. Нуржанов С. Формирование советской командно-административной системы в Каракалпакстане // Материалы Международной конференции «Исторический опыт тюрко-мусульманских народов СССР», Актобе, Республика Казахстан. -Актобе: 2008. -С.22
18. Очерки истории Каракалпакской АССР. -Нукус: 1974. Т.2. -С.176.
19. Джумашев А. История переселенцев 1930-х годов (на основе материалов ЦГА РК). // Вестник ККО АН РУз. -Нукус: 1995. № 1. -С.107
20. Бабашев Ш. Репрессии. Депортация. Преступления против человечества. -Нукус: 2014. -С.297
21. КРМДА, 1-фонд, 4-руйхат, 798-иш, 3-варак, 783-иш, 1-варак.
22. КРМДА, 1-фонд, 4-руйхат, 780-иш, 6-7-вараклар.
23. Советская Каракалпакия. -Нукус: 1936, 6 июл, 8 октябр.
24. Сарыбаев К. История орошения Каракалпакстана. -Нукус: «Каракалпакстан», 1995. -С.180.

**РЕЗЮМЕ.** Мақолада Қорақалпоғ'истон кишлоқ хўжалигини жамоалаштириш жараёни ва унинг оқибатлари ҳақида со'з юритилди.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматриваются процессы коллективизации сельского хозяйства Каракалпакстана и её последствия.

**SUMMARY.** The article discusses the processes of collectivization of agriculture in Karakalpakstan and its consequences.

### СОВЕТ СУД-ХУҚУҚИ ВА УЛАРНИНГ ИШ ФАОЛИЯТИ

**А.Абдуллаев** – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент  
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

**Таянч сўзлар:** суд, ҳуқуқ, ҳарбий суд, Россия, Совет, Социалистик, Федератив, Республика, бўлинмалар, янги суд, шакл, усул, халқ, комиссариат.

**Ключевые слова:** суд, закон, военный суд, Россия, Советский, Социалистический, Федеральный, Республика, подразделения, новый суд, форма, метод, народ, комиссариат.

**Key words:** court, law, military court, Russia, Soviet, Socialist, Federal, Republic, podrazdeleniya, new court, form, method, nation, commissariat

Россия империяси даврида иш олиб борган ҳукумат ташкилотлари ва бошқармалари фаолиятини тугата бошлади. Халқ Комиссарлари Совети бошқарувнинг ўзига хос шакл ва усуллари ишлаб чиқа бошладилар. Россия Совет Социалистик Федератив Республикасининг «Суд тузилиши» ҳақидаги низоми 1923 йил 1 январдан бошлаб кучга кирган. Янги суд тузулиши 1923 йилнинг бошларида ҳам ташкилий поғонада турган. Судлар фаолияти ҳақида тегишли маълумотга эга бўлиш, улар ишини такомиллаштириш учун режа асосида иш олиб борил, шга ўтилган.

Халқ Комиссарлари Советининг 1923 йил 3 февралдаги қарорига асосан ички ишлар халқ

комиссариати томонидан тайёрланиб, адлия комиссариати билан келишилган ҳолда халқ судлари фаолиятини ўрганиш бўйича экспедиция режаси ишлаб чиқилган ва ташкил этилган. Экспедиция икки комиссиядан иборат бўлиб, биринчиси – Сирдарё Жетисув вилоятларини; иккинчиси – Тўрткўл, Самарқанд, Туркменистон, Фарғона вилоятларини ўрганган. Тўрткўлдаги халқ судларини 12 кишидан иборат экспедиция комиссияси бир ой муддат давомида текширган.

Экспедиция аъзолари вилоят суди, халқ суди, халқ терговчилари, давлат прокуратураси, химоячилар хайъати, нотариус, суд ижрочилари, қози судларини кўйидаги масалалар бўйича текширган –

Халқ судларининг худудий жойлашуви, улардаги аҳолининг жойлашуви, санитарияси, суд-тергов органларининг фаолияти доираси ва чегарасини белгилаш; суд фаолиятига бошқа органларнинг ҳалақит бериши ҳолати масаласи ҳақидаги Туркистон Марказий Ижроий Кўмитасининг №101-сонли буйруғи ижроси; суд органлари қарорлари ва ҳукмларининг ўз вақтида бажарилиши; 1922 йил 1-августдан кейинги ҳолат, яъни халқ маслаҳатчиларининг суд мажлисларидаги иштироки, уларнинг сайланиши ва алфавит бўйича амалга оширилиши, адлия халқ комиссариатининг 64-сонли хатида кўрсатилган суд ижрочиларининг фаолиятини аниқлаш вазифаси юклатилган [1].

Вилоят ижроий кўмиталари раислари, вилоят иқтисодиёт Совети раисларининг иштирокида Бутун Туркистон Советининг XI съезди (1923 йил 7 март)да барча суд ходимларининг моддий аҳолини, шу билан бирга маҳаллий маблағ ҳисобидаги суд ходимларининг аҳолини яхшилаш, уларни нормал ҳолатдаги иш хоналари концеляр нарсалар, хона жиҳозлари билан таъминлаш ва уларга йўл ҳаражатлари ажратиш, суд ходимлари билан яқна шартномалар тузиш масалаларига эътибор қаратилган [2]. Ягона суд тизими тузилишига жинойи процессуал, фуқаролик ишлари ҳуқуқ, оилавий муносабатлар, ажралиш, қалин олиш, совчилар масаласи, хотин-қизлар муаммоси ва бошқалар кирган. Шунингдек суд-тиббийёт экспертизаси, вақф ерлари масаласи, ер ислохотлари кабилар билан ҳам шуғулланган [3].

1923 йил 12 майда Туркистон Марказий Ижроий Кўмитаси Туркистон «Адлия Халқ Комиссариати ҳақида Низом»ни тасдиқлаган [4]. Адлия Халқ Комиссариати томонидан 1923 йил 6 октябрдан бошлаб, юридика курслари очилган, Туркистон бўйича юридика курсларида ўқишга талабаларни қабул қилишга ажратилган 60 ўриндан 5 ўрин Амударё бўлимига берилган [5].

Амударё вилояти судида тергов суруштирув органлари ва халқ судлари ишлари бир неча ойлаб, ҳатто йиллаб, қаралмасдан қолиб кетган, Айрим пайтларда халқ судьялари айбдор, ўғрилари қамокқа олишнинг ўрнига ўғри билан жабрланувчини яраштириб юборган. Терговчилар 1924 йилга келганда, ҳатто 1920-1923 йилларда қолиб кетган ишларни ҳам кўриб чиққанлар. Жазо сиёсати олиб борилганда синфий кўз қараш асосий роль ўйнаган. Суд-ҳуқуқ тизимида совет ҳокимияти раҳбарияти органлари ҳам тўғридан-тўғри аралашган, ўз таъсирини ўтказишга ҳаракат қилган.

Жойлардаги халқ судьяларининг сони шаҳар ишчи, деҳқон депутатлари советининг ижроий кўмитаси томонидан аниқланган [7].

Суд ўзининг шакли, мазмун ва моҳияти билан синфий тус ола бошлаган эди. Совет судьяси олдида пролетар партияси аъзоси, амалий тажрибага эга, сиёсий, ғоявий жиҳатдан етук бўлиш талаби қўйилган.

Уездлар ижроий кўмиталарининг адлия бюрolari қошида халқ судлари кенгашининг ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ҳайъат бўлимлари ташкил этилган. Ҳайъат аъзоларига маош берилган. Адлия комиссариатида айбловчилар гуруҳи фаолият юритган. Адлия халқ комиссариати сметаси бўйича айбловчиларга маош тўланган. Улар ҳам сиёсий тажрибага эга бўлишлари шарт бўлган. Агар судда айбловчи иштироки зарур деб топилса, ҳимоячининг иштироки ҳам шарт соьбланган. Айбловчилар адлия бўлими томонидан, халқ судьялари талабига, кўра ариза ёки ташкилот талаби бўйича адлия бўлими раҳбариятининг фикри билан келишилган ҳолда сафарга юборилган.

Халқ судларининг ҳукм ва қарорлари устидан шикоят апелляция тартибида эмас, кассация шаклида халқ судьялари советига топширилган. Шикоятлар суд жараёнида қатнашган одамлар, ташкилотлар ва ишчи, деҳқон депутатлари советининг ижроий кўмиталари

томонидан берилиши мумкин бўлган. Кассация шикоятини ҳукм эълон қилинган, ҳукм нусхасини томонларга берилган кунидан бошлаб, 14 кун ичида бериш мумкин бўлган.

Кассация шикоятлари ҳукм ёки қарор қабул қилган халқ судлари судьяси томонидан уч кун муддат ичида тегишли ҳужжатлар билан тўғридан-тўғри халқ судлари советига берилган.

1923 йилга келганда, Амударё бўлимидаги Совет инқилобий трибунали ва халқ судлари совети тугатилиб, унинг ўрнига вилоят суди ташкил этилган [8].

РСФСР Туркистон Олий судининг бўлими жинойи ишлар бўйича кассация коллегияси Шарафутдинов раислигида Упельник ва Ахматов аъзолигида Амударё вилоят суди томонидан 1924 йил 5 майда Георгий Салагаевнинг ўз хотинини рашк туфайли ўлдирганлиги ва жиноят кодексининг 142-моддасига биноан 8 йил озодликдан маҳрум этилганлиги, жазони ўтаб бўлгандан кейин 2 йил ҳуқуқидан маҳрум этилганлиги ҳақидаги ҳукм устидан ёзилган кассация шикоятини кўриб чиқади Туркистон Олий суди бўлими Амударё бўлими вилоят суди масалани тўғри қараб чиққанлигини, 1924 йил 30 сентябрда тасдиқлаб, Амударё бўлими вилоят суди қарорини ўз кучида қолдирган [9].

1924 йил 5 июлгача бўлган XII-Бутунтуркистон советларининг съезди суд тузулиши бўлими олдида жуда катта вазифаларни, яъни суд ходимларининг моддий аҳолини, иш сифатини яхшилаш, судларнинг маҳаллий ижро кўмиталари билан алоқаларини яхшилаш ва судларнинг обрўсини кўтариш, судлар ҳақида маълумот тўплаш ва нашр этиш, Кодексларни таржима қилиш, адлия комиссариати фаолиятини тартибга солиш, адвокатура ташкилоти ва аҳолига юридик хизмат кўрсатиш, ягона халқ судининг тармоқларини кенгайтириш каби вазифаларни белгилаб берди.

Умуман олганда, суд иши тарқок ҳолда ривожланган, моддий таъминот етарли даражада бўлмаганлиги учун, уларни давлат таъминотида ўтказиш зарурлиги сезилган. Советларнинг XII съездининг қарорида бирон бир судья ёки суд терговчиси адлия халқ комиссариати санкциясиз ишдан бўшатишмаслиги айтиб ўтилган бўлса ҳам сабабсиз равишда ижроий кўмита томонидан судлар ишдан бўшатишган.

Суд ва терговчиларнинг топшириқларини милиция ходими имкони бўлганда бажарган. Ҳукм ва ечимларнинг ижроси милицияга берилган, аммо унинг ҳаракати устидан назорат олиб борилмаганлиги учун айрим ҳукм ва ечимларларнинг ижроси бажарилмай қолган.

Халқ судларида, инқилобий трибуналда, умуман суд тизимида ҳисоб-китоб, статистика ишлари яхши олиб борилмаган. Судларда кўрилган жинойи ва фуқаролик ишлари бўйича таҳлил юритилмаган. Архив ҳужжатлари таҳлили шуни кўрсатадики, улардаги материалларда онда-сонда, ҳар хил йилларда неча иш қараб чиқилганлиги ҳақидаги фактларни учратиш мумкин. Мустабид тузум ҳалқни эзишнинг, тезроқ бўйсундиришнинг йўллари кўпайтириш учун ҳар хил қўшимча бўлимлар, кенгашлар, комиссиялар ташкил этган. Туркистон Республикаси иқтисодий Совети томонидан тайёрланган (1921) ҳисобот кўздан кечирилганда ҳам «суд органлари ва тергов фаолияти ҳақида тўлиқ маълумот бериш қийин. Бор материаллар эса улук-юлуқ характерга» эга эканлигини кўриш мумкин.

Амударё бўлимидаги кейинчалик, Амударё вилоятидаги судлар фаолиятини икки ёқлама баҳолаш мумкин. Бир томондан – суд соҳасида ҳар хил ислохотлар ўтказилганлиги тизимли равишда иш олиб борилганлигини билдиради; Иккинчи томондан советлар суд орқали халқни террор шаклидаги қонун ва тартиб-қоидалари ёрдамида мажбуран бўйсундиришни тизимли равишда олиб борди, шу билан бирга, оддий маҳаллий халқнинг сиёсий, иқтисодий, маънавий онгига,

тафаккурига салбий таъсир қилишидек оқибатларга ҳам олиб келганлиги билан ажралиб туради. Маҳаллий жойлардаги оғир иқтисодий ҳаёт, кадрлар етишмаслиги ва бошқаларни инобатга олмасдан мустабид тузумга хос бўлган «оқибатни ўйламасдан иш қилиш, ҳодиса ва воқеаларнинг объектив, субъектив сабабларини ва оқибатларини ҳисобга олмасдан иш олиб бориш услуби, юқоридан бошқариш, нима бўлишидан қатъий назар, бўйруқ кўр-кўрона «тез» бажарилиши зарур тақлидида олиб борилган сиёсат ўзига хос қийинчилик ва муаммоларни ҳам туғдирган, албатта.

Судларнинг моддий ахволи оғирлигича қолган. Уларнинг маҳаллий таъминотга ўтиши ҳеч қандай ижобий натижа бермаган. Оқибатда суд ходимлари ҳам ярим оч ҳолатда яшаган. Оқликдан ўлмаслик учун хар хил бошқа соҳаларда ҳам ишлай бошлаганлар. «Тажрибали» кадрлар ишни ташлаб кета бошлаганлар.

#### Адабиётлар

1. ЎзРМДА. Р-25-жамғарма, 1-рўйхат, 1128- йиғма жилд, 62-варақ.
2. ЎзРМДА. Р-27-жамғарма, 1-рўйхат, 1128- йиғма жилд, 34-34-о, варақлар.
3. ЎзРМДА. Р-38-жамғарма, 2-рўйхат, 264-йиғма жилд, 33-36-варақ.
4. ҚРМДА. 116-жамғарма, 2-рўйхат, 1-йиғма жилд, 19-варақ.
5. Сборник декретов, распоряжений и постановлений Центрального Исполнительного Комитета Советов Туркестанской Республики. 9-сессии. Т.1921. С-7.
6. ЎзРМДА. Р-27-жамғарма, 1-рўйхат, 595- йиғма жилд, 1, 2, 3-варақлар.
7. ҚРМДА. Р-116-жамғарма, 1-рўйхат, 36-йиғма жилд, 1-варақ.
8. ЎзРМДА. Р-25-жамғарма, 1-рўйхат, 1802-йиғма жилд, 2-варақ.
9. Отчёт о деятельности экономического совета, за февраль-октябрь месяцы 1921 года. Составлен центральным статистическим управлением Туркестанской Республики под редакцией управляющего ЦСУ. Д.П.Красновского. издание ТЭС. Т.: 1922. – С.242.

**РЕЗЮМЕ.** Россия империяси даврида иш олиб борган ҳукумат ташкилотлари ва бошқармалари фаолиятини тугата бошлади. Асосан ички ишлар халқ комиссариати томонидан тайёрланиб, адлия комиссариати билан келишилган ҳолда халқ судлари фаолиятини ўрганиш бўйича экспедиция режаси ишлаб чиқилган ва ташкил этилганлигини кўришимиз мумкин

**РЕЗЮМЕ.** Государственные организации и ведомства, работавшие во времена Российской империи, начали прекращать свою деятельность. Мы видим, что план экспедиции по изучению деятельности народных судов был подготовлен и организован преимущественно Наркоматом внутренних дел и по согласованию с Комиссариатом юстиции.

**SUMMARY.** Government organizations and departments that worked during the Russian Empire began to cease their activities. We can see that an expedition plan to study the activities of people's courts was prepared and organized mainly by the People's Commissariat of Internal Affairs and in coordination with the Commissariat of Justice.

## QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍN TURAQLÍ RAWAJLANDÍRÍW FAKTORÍ SÍPATÍNDÁ SOCIAL-EKONOMIKALÍQ SIYASAT BASQÍSHLARÍNÍN ASPEKTLERÍ

**N.R.Djumageldiev – tariyx ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent**

*Ajiniyaz atundáğı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti*

**Tayanç so‘zlar:** barqaror rivojlanish, tamoyillar, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlár, atrof-muhit.

**Ключевые слова:** устойчивое развитие, принципы, социально-экономические аспекты, окружающая среда.

**Key words:** sustainable development, principles, socio-economic aspects, environment.

Ўзбекстан Республикаси ўз гáрезсизлигине ерискеннен кейин Qaraqalpaqstan Respublikasınıń siyasiy, socialıq-ekonomikalıq turısında reformalar ámelge asırıla baslandı. Qaraqalpaqstan Respublikası Joqarı Keńesi tárepinen Jer, múlk, diyxan - fermer xojalığı, kárxanalar, isbilermenlik hám shet el investiciyaları hám basqa ekonomikalıq tarawlarǵa tiyisli bolǵan, bazar qatnaslarına baylanısh nızamlar hám qararlar qabıllandı. Bunda bazar qatnasların rawajlandırıwǵa qaratılǵan Qaraqalpaqstan ekonomikasınıń negizin hár-túrli sırtqı kórinislerdegi múlk qurawı, mámleket qarıydarlarınń huqıqiy ústemligin esapqa alıp, ekonomikalıq iskerlik, isbilermenlik hám miynet etiw erkinligi, barlıq múlk formalarınń teń huqıqlığı hám huqıqiy tárepten teppe-teń qorǵalıwına kepillik beriw haqqında sóz júritiledi [15].

Turaqlı rawajlanıw - bul házirgi hám keleshek áwlad wákilleri ushın óz qábiletlerin kórsete alatuǵın hám tirishilik mútajliklerdi qandırıw ushın múnásip, maksimal bolǵan teń baslanǵısh sharayatlardı kepilliytuǵın rawajlanıw bolıp esaplanadı. Turaqlı rawajlanıwdıń tiykarǵı principini sonı ańlatadı, yaǵnıy hár qanday ekonomikalıq iskerlik, bir tárepten, kambaǵallıqtı maksimal dárejede kemeytiwge hám ekinshi tárepten, hámme ushın múnásip tirishilik sıpatına erisiwge úles qosıwı hám tábiyiy resurslarınń óz-ózin qayta tiklew qábiletinen aspawı kerek.

Bazar qatnaslarındáǵı jedel ózgerisler, salıq siyasatın reformalaw, tábiyiy, materiyalıq-texnikalıq resurslarınan

Суд идораларига кулайроқ ишлаши учун хоналар етишмаган, тўлиқ тергов ишларини олиб бориш учун суд тергов органларига тергов жараёнларида зарур бўлган тегишли нарсалар етарли даражада берилмаган. Маҳаллий халқ ва унинг маҳаллий турмуш шарт-шароитлари марказий бошқармада ташкил этилган ташкилотларнинг ўта муҳим ишлар бўлими, харбий трибунал ва бошқалар таъсирига учраган.

Фавкулудда комиссия тугатилиб, харбий ва фуқаролик судлов иши алоҳида бўлиб ажратилгандан кейин, ягона халқ судининг обрўси ўса бошлаган. Шундай қилиб, совет даври суди ўзининг серкирра фаолияти билан империя даври суд тизимидан фарқ қилган. Мақсад ўлка халқини назоратда ушлаб туриш совет суди тизими орқали ўлкада ўз мавқеини сақлаб қолишдан иборат эди.

nátijeli hám aqlǵa say paydalanıw, tábiyattan paydalanıwda ekonomikalıq mexanizmdı jetilistiriwge baǵdarlanǵan byudjet jámi dáramatlarında resurs hám mal-múlk salǵınıń rolin asırıw sharayatlarında buǵan baylanısh jumislardıń basqıshpa-basqısh engiziliwi ayırıqsha orın tutadı.

1997-jıldan Ўзбекстанда milliy dárejede Turaqlı rawajlanıw boyınsha Milliy komissiyası iskerlik kórsetken bolıp, keyinirek Ўзбекстан Respublikası Húkimeti muwapiqlastırıwshı ishshı toparına aylantırılǵan. 1998 jıldı Ўзбекстан Ministrlik kabinetini tárepinen milliy qarızdarlıqtan qutqarıw qáwipsizligi boyınsha qararı tastıyqlanǵan bolıp, bul qarar tiykarında Ўзбекстан Respublikasınıń Turaqlı rawajlanıw koncepciyası islep shıǵıldı. Turaqlı rawajlanıwdı támiyinlewge xızmet etiwshı zárúrli mexanizmlerden biri bul nızamshılıq hám huqıqiy baza, sonıń menen birge, tábiyiy resurslardan paydalanıw hám transshegaralıq tásir tarawında qararlar qabıllaw boyınsha mámleketler aralıq hám regionlar aralıq kelispewshiliklerdi sheshiw mexanizmleri, sonıń menen birge, bul tarawǵa tiyisli aymaqtaǵı ekologiyalıq jaǵdaydın jamanlasıwı nátiyjesinde qorshaǵan-ortalıqqa hám xalıq salamatlıǵına jetkizilgen zıyanlar ornın qaplawdın finanslıq kepillikleri sistemasi bolıp tabıladı.

Jámiyeti turaqlı rawajlandırıw hám global májburiyatlarǵa erisiwdiń tiykarǵı strategiyalıq tendenciyalari Ўзбекстан Respublikası Prezidentiniń

pármanları hám Ministrler Kabinetiniń «Jámiettiń siyasiy, ekonomikalıq hám ruwxıy tarawları reformaların liberallastırw hám tereńlestiriw, mámleket qáwipsizligin támiyinlew dástúrlerin ámelge asırıw ilajları haqqında»ǵı Qararı, «Awıl xojalıǵında reformalardı tereńlestiriw haqqında»ǵı, sonıń menen birge, Ózbekstan Respublikasınıń arnawlı nızamları, olardıń orınlarıwın tártipke salıwshı qaǵıydalar hám normalarda belgilep ótilgen. Turaqlı rawajlanıwǵa ótiwdiń conceptual tiykarları hám jantasıwları mámleket dástúrlık hújjetlerinde óz táriypin tapqan [1].

Jabıq strukturalı dizbekli qospa gáppler. Dizbekli qospa gápplerdiń quramındaǵı jay gápplerdi sol dúzilisten jańa gáppler qosıp arttırıwǵa bolmaytuǵın túri jabıq dúzilisi qospa gáppter dúziledi. Jabıq dúzilisi qospa gápplerdiń dúzilisi ushın da dánekerler qatnasadı. Dizbekli qospa gáppler dánekerli jabıq dúzilisi bolıp kelgende, dánekerler eki jay gáppter arasındǵı yamasa kóp komponentli bolıp kelgen dizbekli qospa gáppter eń sońǵı komponentiniń aldında kelip, jabıq qatardı dúzedi. Mısalı: Bul pikir mekteptiń direktorına da, kolxozdıń baslıǵına da jetti, biraq olar kewli hásiretli Nurjan ǵarrını májbúrlewge júreksinbedi, al qızı Mexriban ákesin jalǵız taslap ketiwge qıymadı. (T.Q)

Qaraqalpaq tilindegi kóp komponentli qospa gáppler sózdiń pútinligin hám baylanıslılıǵın saqlap qalıp, quramalı hám kóp qrlı pikirlerdi bildiriwdiń nátiyjeli usılı bolıp esaplanadı. Sintaksislik ózgeshelik hám baylanıslardıń hár túrliligi tekstti tereń hám kóbirek sáwlelendirip beriw, semantikalıq ózgesheliklerdi jetkeriw imkaniyatın beredi.

Kóp komponentli qospa gáppler sózdiń tolıq hám izbe-iz bayan etiliw ushın júdá áhmiyetli. Olar arqalı avtor yaki sóz iyesi óz pikirlerin bir pútin, logikalıq túrde bayan ete aladı. Ilimiy hám kórkem ádebiy shıǵarmalarda bunday gáppler túsiniqlerdiń keń kólemlilegen kórsetiw, olardıń hár qıylı táreplerin bayan etiw imkaniyatın beredi. Solay eken, kóp komponentli qospa gáppler tilimizdiń quramalı mazmundı bayan etiw imkaniyatına iye bolǵan áhmiyetli qural bolıp esaplanadı.

#### **Adebiyatlar**

1. Гуломов А., Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент: «Ўқитувчи», 1987.
2. Альниязов А. Ҳозирги қорақалпоқ тилидаги боғланган қўшма гапларнинг функционал-семантик таҳлили. Фил.фан. докт. автореф. –Нукус: 2020.
3. Dáwletov A., Dáwletov M., Qudaybergenov M. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili. Sintaksis. –Nókis: 2009.
4. Нажимов А. Ҳозирги қарақалпақ тили Синтаксис. –Нөкіс: «Қарақалпақстан» 1990.
5. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Дарслик. –Тошкент: Университет, 2006.
6. Турниёзов Б. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси. Монография. – Самарқанд: СамДҶТИнашри, 2008.

**REZYUME.** Maqolada ko'p komponentli murakkab gaplarni o'rganishning nazariy asoslari, ularning strukturaviy-semantik tahlili, qo'llanilishi, sintaktik tuzilmalarni shakllantirish turlari va masalalarini o'rganishga asosiy e'tibor qaratilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье основное внимание уделено изучению теоретических основ исследования многокомпонентных сложных предложений, их структурно-семантического анализа, применению, видам и вопросам формирования синтаксических структур.

**SUMMARY.** The article focuses on the study of the theoretical foundations of the study of multicomponent complex sentences, their structural and semantic analysis, application, types and issues of the formation of syntactic structures.

### **O'ZBEK VA QORAQALPOQ XALQ MAQOLLARINING BA'ZI LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**Sh.A.Matjanov** – *assistent o'qituvchi*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so'zlar:** maqol, xalq, til, odob-axloq, urf-odat, to'plam, folklorshunos, madaniyatshunos, janr, qofiya, g'oya

**Ключевые слова:** пословица, народ, язык, манеры, традиция, сборник, фольклорист, культуролог, жанр, рифма, идея.

**Key words:** proverb, folk, language, manners, tradition, collection, folklorist, culturalist, genre, rhyme, idea

Har qanday tilning lug'at zaxirasida xalq donoligining ramzi bo'lgan xalq maqollari alohida o'rin egallaydi. Maqollarda millatning ruhi, uning madaniyati o'z aksini topadi. Shuning uchun ham xalqimizning ilm-hunarga, oilaga, mehnatga, ahillikka nomardlikka, bo'lgan munosabatini bilish uchun uning maqollari bilan tanishishning o'zi kifoyadir. Ulardan o'rganuvchilar shu xalq vakillari uchun vatan, xalq, ona, urf-odat, ilm, mehnat, do'stlik, g'urur naqadar muqaddas tushunchalar ekanligini anglab yetadi [9:11]. Xalq maqollarini o'rganishga nafaqat

tilshunoslar, balki etnograflar, madaniyatshunoslar, folklorshunoslar, adabiyotshunoslar, psixologlar, faylasuflar va boshqalar ham qiziqqanlar.

Maqollar – bu xalq tarixi, tajribasi, uning nafasi, yig'isi, shodligi va sevinchi, qayg'usi va ovunchi, bu xalq haqiqati, uni to'g'ri yo'lga eltuvchi mayoqdir. Shuning uchun maqollar ajdoddan avlodga og'zaki tarzda o'tib kelgan.

O'zbek maqollarini to'plash, ma'nolarini izohlash qadimgi davrlarga borib taqaladi. XI asrning buyuk olimi M. Koshg'ariy o'zining “Devonu lug'atit turk” asarida 275 ta maqol keltirib o'tgan [1:44-45].



Xalq maqollarini ilm obyekti sifatida o'rganish va to'plash XX asr boshlariga to'g'ri keladi. O'zbek xalq maqollarini to'plash va nashr qilishda missioner N.G.Ostroumov katta xizmat qilgan.

O'zbek olimlaridan Sh.Shorahmedov, X.Sharafiddinov va X.Abdurahmonovlar maqollarning til xususiyatini yoritganlar. Maqollarning yangi nashrlari bilan shug'ullangan tadqiqotchilar sifatida B.Sarimsoqov, K.Imomov, va X.Abdurahmonovlarning ishlari ham diqqatga loyiq.

Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlar maqollarning ma'nolarini izohlab bergan "Ma'nolar mahzani" to'plamini nashr ettirdilar [2].

B.A.Soatov [3:53] o'zbek xalq maqollarining janr xususiyatlari va she'riy xususiyatlarini aniqlagan. X.Sharafiddinova o'zbek xalq maqollarining tuzilishidagi qofiya va uning funksional-uslubiy xususiyatlariga e'tibor qaratgan.

Qoraqalpoq tilshunosligida xalq donoligining ramzi bo'lgan maqollarni to'plash va nashr ettirishning dastlabki jonkuyar tashkilotchisi prof. Q.Ayimbetov bo'ldi. U "Qoraqalpoq folklori. Naqil-maqallar" kitobini nashr ettirdi [5].

Jalgasov Nurjan Maratovichning "Proverbial tuzilmalarda insonni baholashning pragmatik va lisoniy-madaniy xususiyatlari (ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillari misolida)" mavzusidagi dissertasiyasida har uch tildagi maqollarni ham tahlil qilgan. "Ingliz, o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi maqollarning tahlili muayyan lingvomadaniy jamoa a'zolari tafakkur tarzining mohiyatini tasavvur qilishga va qiyoslanayotgan tillar sohiblarining ma'naviy dunyosini ochib berishga yordam beradi" – deb ko'rsatadi tilshunos [6:24].

Til madaniyat bilan uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida o'ziga xos yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha – lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan tilshunoslikning yangi sohasi-lingvokulturologiya jadal rivojlandi.

Lingvokulturologiya – "til va madaniyat"ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til va madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy sohadir.

O'zbek va qoraqalpoq xalqlari asrlar davomida birga yashab, bir-biri bilan yaqin, quda-anda bo'lib yashaganligi bois ularning tilida, madaniyatida bu yaqinlik o'z ifodasini topgan. Til birliklari ma'nolari, jumladan, xalq maqollarida ham umumiylik jihatlarini ancha. Biz o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi "axloq" ma'noli xalq maqollaridagi ikki xalq madaniyatiga xos umumiy va mushtarak jihatlarini aniqlashga harakat qildik.

Masalan, o'zbek tilidagi **Daraxt bir joyda ko'karadi** maqoli qoraqalpoq tilida **Terek bir jerde kógeredi** deb berilgan. Ma'nosi "Bir joyda doimiy yashab, bir yerdagina tinimsiz mehnat qilgan odamning hayoti va tirikchiligida baraka bo'ladi", – degan ma'noda qo'llaniladi. Yoki bo'lmasam **Bir qorin moyni bir qumoloq buzar** [4:53] maqoli qoraqalpoq tilida **Bir qumaloq bir qarim maydi shiritedi** [5:207] tarzida uchraydi. O'zbek xalq maqollarida "Bitta chirigan olma bir omborni chiritadi", "Bir qo'tir echki butun podani qo'tir qiladi", "Bir qirchang'i yilqi butun uyurni qirchang'i qiladi", "Qo'tir taka ko'ra bulg'ar" kabi variantlari bor. Majoza: "Bitta yomon, axloqsiz, fasodchi, ig'vogar, dilgir odam butun bir jamoani, hatto butun bir yurtni bulg'aydi, uning nomiga dog' tushiradi, nomus keltiradi; bitta axloqsiz bola bir qancha bolaning xulqini buzadi", – deyilmoqda. Solishtirib ko'rganimizda ularning ma'nolari bir xil, faqat tillarning (leksik) fonetik tizimi turlicha bo'lganligi bois, ularning imlosida farqli jihatlar mavjud.

Shuningdek, **Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog' qoladi** degan o'zbek xalq maqoli qoraqalpoq tilida **Jaqsidan bag' qaladi, jamannan daq qaladi** shaklida beriladi. «Mevali daraxtlarni ekish – savob ish, shu orqali inson o'zidan keyingi avlodlarga ham manfaatiga, foydasiga ishlatadigan boylik qoldirib, ko'pchilikning olqishiga sazovor bo'ladi, ismi hurmat bilan xotiraga olinadigan bo'ladi» degan ma'noda ishlatiladi.

Yana bir maqol misolida, **Bir odam omoch bilan, yettovlon cho'mich bilan** degan o'zbek xalq maqoli (variantlari: **Mard topadi, nomard yeydi; Ot topadi, eshshak yeydi; Biri semizini yeydi, biri egizini yeydi; Biri so'rab yeydi, biri burab yeydi; Tulki bor joyda tovuq urchimas; El ustida ellik qarg'a, Endi bularga yem qayda?!; Ma sanga, ma sanga, Nima qoldi Hasanga?!; Ariqni kimlar qaziydi, Suvni kimlar ichadi; Chigirtkalar ekin yer, Ekmay tikmay tekin yer;**) tarzida berilgan. Bu maqolda o'tmishda tengsizlik, haq-huquqsizlik o'z izini qoldirgan. Muarrir M.A.Abduraimovning yozishicha, ilgari O'rta Osiyo xonliklarida xalqdan o'lpon, kafsan, qo'sh puli, suv puli, somon puli, tanobona, mirobona, naqdina, ixrojat, amalot, olg'ot, solg'ot, marosimot, mulxoqot, zakot, osiyo puli, objuvoz puli, xarros puli, boqi puli, mushrifona, muxassilona, madadi-lashkar va yana bir qancha soliqlar olingan. Masalan dehqonning g'allasi pishib, o'rib-yig'ib olganidan keyin xirmon tepasiga amlakdor, katta yer egasi, o'ziga qarashli o'lponchi, kafsanchi, zakotchi, tovachi, sog'ibardor, (sog'ubardor–sog'u ko'taruvchi; yog'och gardishga xom teri qoplangan, g'allani yelpish, sovirish uchun ishlatiladigan ro'zg'or buyumi) shogird-pesha, singari turli xil soliqlarni yig'uvchi yugurdaklari bilan kelib, xirmonning barakasini uchirib, dehqonning sho'rini quritib ketishgan. Xirmondan soliqqa g'alla olish kafsan deyilgan. Ushbu maqol qoraqalpoq tilida **Ekkende joq, tikkende joq, Qirmanda tayar** [5:13] shaklida beriladi. Mazkur maqollarning ham ma'nolari deyarli bir xil bo'lib, faqat leksik, grafik shakli bir-biridan birmuncha farqlanadi.

Shu bilan birga xalqlarning o'z turmush tarzi, urf-odatlari, milliy an'analari, kasb korlari va boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan aloqador shakllangan maqollar ham borki, ular bir-birlaridan farqlanib turadi.

O'zbek xalqida **Bir balosi bo'lmasa, Shudgorda quyruq na qilur** [4:388] maqoli qoraqalpoq tilida

**Bir bálesi bolmasa, Shúdigárda balq ne jesin** [5:14] shaklida beriladi.

O'zbek tilidagi maqollar ma'nosini izohlovchi "Hikmatnoma" kitobida mazkur maqol shunday izohlangan: "Bu maqol tulkingning tilidan aytilgan. Tulki yog'ga o'ch bo'ladi. O'tmishda odamlar tulkilarni tutish uchun qopqonni tuproqqa ko'mib, ustiga bir parcha dumba yog' qo'yib qo'yardilar. Tulki uni yeyman deb kelib, qopqonga ilinardi. Ammo, hamma tulkilar ham osonlikcha qo'lga tushvermasdi. Chunki tulki boshqa hayvonlar ichida eng sezzir, hushyor va ayyordir. Mazkur maqol shuning natijasida yuzaga kelgan bo'lib, majoziy ma'noda odamlarni hushyor, ehtiyotkor bo'lishga undaydi. Varianti:

**Bozordagi botmon quyruq,**

**Taroziga tortgan quyruq,**

**Bir balosi bo'lmasa,**

**Nega shudgorda yotgan quyruq?!**; "Bir balosi bo'lmasa, kavakda kabob na qilur?" (bu keyingi maqol sichqon tilidan aytilgan. Sichqonni yo'qotmoq uchun inining og'ziga margimush sepilgan jizza, kabob jazi qo'yib qo'rganlar" [2:40].

Qoraqalpoq tilida maqolning ikkinchi qismida **Shúdigarda balq ne jesin** shaklida qo'llanilgan. Bunda albatta, xalqning milliy xususiyatlari, uning kasb-kori bilan aloqador o'zgarish seziladi. Qoraqalpoq xalqi azaldan baliqchilik bilan shug'ullangan. Shuning uchun ham bu xalqda **Úsh ay qawimim, úsh ay sawimim, úsh ay qabaqim, úsh ay shabaqim** degan maqol ham saqlangan.



Qoraqalpoq tilshunosi A.Pirniyazova quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Qoraqalpoq xalqi Amudaryoning Orol dengiziga quyiladigan yeriga yaqin hududda yashaganligi uchun, asosan, baliqchilik, dehqonchilik va mol chorvachilik kasblari bilan shug‘ullangan. Insonlar bir-biriga yaxshi tilak, niyat bilan til vositasida munosabatda bo‘lgan. Kun ko‘rish manbai bo‘lgan kasblaridan kelib chiqqan holda har safar bir-biriga yaxshi tilak tilagan. Tilda shu kasblarga bog‘liq frazeologizmlar shakllangan. *Julumín maylansin* degan etiket so‘zni xohlagan odam baliqchiga “balig‘ing ko‘p bo‘lsin!”, degan tilak bilan aytgan. Bu frazaning anglatadigan ma‘nosi “*Julum*”ga baliqning ko‘p tushishiga aloqador so‘z [7:57].

Shuningdek, qoraqalpoq tilida quyruq so‘zi bilan aloqador **Bul ne degan batpan quyriq, ay dalada jatqan quyriq?** Shakli ham uchraydi. Buni tilshunoslar “Qayerdan kelgan tekin boylik degan ma‘noni bildiradi. Kutmagan joydan paydo bo‘lgan rizq-nasibani ko‘rgan paytda qo‘llaniladi”, – deb izohlaydi [5:136].

Shuningdek, o‘zbek tilida

**Onasi maqtagan qizni olma,**

**Yangasi maqtagan qizdan qolma** [4:161].

degan maqol ham qo‘llaniladi. Bunda ham xalqning milliy madaniyati, urf-odatlari o‘z aksini topadi. O‘zbek onalari o‘z qizlari voyaga yetgandan keyin tezroq uni uzatish payiga tushadilar. Ularni hammaga maqtaydilar. Qizning yangisi uning xarakterini yaxshi bilgan uchun, ko‘proq uning fikrlari bilan ham hisoblashish maqsadga muvofiq,

#### Adabiyotlar

1. Koshg‘ariy M. “Devonu lug‘atit turk”. T. 1. -Toshkent: 1960, 44-45-b.
2. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma‘nolar mahzani. –T.: 2001.
3. Soatov B.A. O‘zbek xalq maqollarining janr va she‘riy xususiyatlari. -T.: 1990, 53-b.
- a. O‘zbek xalq maqollari. (Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A.M. Usoqulov, B.A.Sarimsoqov; Mas‘ul muharrir: Sh.Turdimov. – Toshkent: «Sharq», 2005.
4. [kitapxana.com](http://kitapxana.com). Qoraqalpoq ádebiyatini elektron kitaphanası.
5. Жалгасов Н.М. Провербиал тузилмаларда инсонни баҳолашнинг прагматик ва лисоний-маданий хусусиятлари (инглиз, ўзбек ва қорақалпоқ тиллари мисолида). Филол.ф.б.фалс.докт. дисс.автореф. –Самарқанд: 2020. –С. 24.
6. Пирниязова А.К. Қарақалпақ тили фразеологиялық системасы хэм оның стилистикалық имканиятлары. –Нөкис: «Қарақалпақстан», 2020.
7. Қазақ хэм қарақалпақ тиллериниң салыстырмалы – паремиологиялық сөзлиги (орыс хэм инглиз тиллериндеги қысқаша түсиниклери менен). –Астана: 2022.
8. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetiki jodi: Akademik litseylar uchun darslik. -T.: «Sharq», 2010. 208-b.

**РЕЗЮМЕ.** Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tilidagi xalq og‘zaki ijodiga oid maqollarning urf-odat yoki udumlar bilan bog‘liq holda paydo bo‘lganligi hamda ba‘zi bir maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilindi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье проанализировано возникновение пословиц, относящихся к фольклору, в узбекском и каракалпакском языках в связи с традициями или традициями, а также лингвокультурными особенностями некоторых пословиц.

**SUMMARY.** In this article, the emergence of proverbs related to folklore in Uzbek and Karakalpak languages was analyzed in connection with traditions or traditions, as well as the linguistic and cultural characteristics of some proverbs.

## INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI KOMPARATIV ADYEKTIV IBORALARNING MAVZUIY TASNIFI

**S.P.Saparov** – *filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*  
*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so‘zlar:** adyektiv, iboralar, komparativ, mavzuiy tasnif, komponentli ibora, lingvokulturologiya.

**Ключевые слова:** адъективный, фразеологизмы, компаративный, тематическая классификация, компонентный фразеологизм, лингвокультурология.

**Key words:** adjective, phraseological units, comparative, thematic classification, component phraseological units, linguoculturology.

So‘nggi o‘n yillikda frazeologiyaning jadal rivojlanishi sohada mavjud ko‘plab yechilmagan masalalar borligini namoyon qildi. Bugungi kun frazeologlari oldida ma‘lum tilga xos frazeologik material tadqiqi hamda turli tillarning frazeologik tizimlarini qiyosiy tadqiq qilish masalasi ko‘ndalang turibdi.

So‘nggi vaqtlarda frazeologik o‘xshatishlarni kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya doirasida o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda, jumladan, qiyosiy konstruksiyalarni yaratish va o‘zlashtirish mexanizmlari (T.S.Zevaxina, N.V. Yarovaya), tilda barqaror majoziy-assotsiativ aloqalarni mustahkamlash sabablari va usullari (V.N. Teliya, O.I. Glazunova), turg‘un so‘z birikmalarida aks ettirilgan obraz-etalonlar va qarshi aloqalarning milliy o‘ziga xosligi (T.V.Shmeleva, V.N.Teliya, V.A.Maslova) tadqiq qilingan.

degan ma‘noda ishlatilgan. Qoraqalpoq tilida ushbu ma‘noni ifodalaydigan

**Jengesi maqtagan qizdi alma,**

**Agasi maqtagan qizdan qalma.** [5:82] degan maqol ham uchraydi.

Qoraqalpoqlarda yanga bilan bekachning o‘zaro munosabatlari o‘ziga xos. Qadimgi urf-odatlariga ko‘ra uylanadigan yigitlar o‘z sevgan qizlarini to‘ydan oldin umuman ko‘ra olmaganlar. Bu holat boshqa turkiy xalqlarda ham mavjud bo‘lgan. Ular katta bayramlarda, hayit va to‘ylarda faqat yangasi orqali qiz bilan ko‘rishishi, uchrashishi mumkin bo‘lgan. Bu holat qoraqalpoq qo‘shiqdarida quyidagicha ifodalangan:

*Jigit qizsiz, qiz jengersiz bolmaydi,*

*Wazipandi bilmeysenbe jengejan.*

**Agasi maqtagan qizdan qalma** degan ikkinchi qismining ma‘nosi **Agá** (o‘zbek tilida dada) o‘z qizining baxtli bo‘lishini istaydi, hamda uning faqat yaxshi xislatlarini gapiradi. U yangasiga o‘xshab, yigitning sovg‘a-salomlari evaziga qizini maqtamaydi. Uning fikrlari asosli ekanligi ma‘nosini bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, maqollar barcha xalqlarda ham hayotning tajribasi asosida paydo bo‘ladi. Ular shu xalqlarning orzu-havaslarini, turmush sharoitlarini, madaniyatlarini, kasb-korlari, intilishlarini o‘zida aks ettiradi. Ularni mazkur xalqlarning madaniyatlarini bilan bog‘lab lisoniy tadqiq qilish tilshunoslik uchun yangi ma‘lumotlar beradi.

(2000), Sh.Kudiyarova (2008), A.Pirniyazova (2020), G.Allambergenova (2019) kabi qoraqalpoq olimlari ham tadqiqotlar olib borishgan.

Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi komparativ frazeologizmlarda artefaktlarni nomlovchi etalonlar ustuvor hisoblanadi. Frazeologik o'xshatishlar asosan insonni tavsiflash uchun ishlatiladi, ikkita til komparativ frazeologiyasida insonning tashqi ko'rinishini, uning jismoniy holati va harakatini tavsiflovchi o'xshatishlar ustunlik qiladi. Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi barqaror o'xshatishlarda milliy ko'rsatkichli leksika sezilmas darajada aks etgan. Ikkita tilning komparativ frazeologiyasida inson tabiatini tasvirlash uchun hayvonlar obrazlari va artefaktlar nomlari ham qo'llaniladi, shu bilan birga jonsiz buyumlar, vaziyatlar, voqeliklar, tabiat hodisalarini tavsiflashda artefaktlar bilan bog'liq obrazlar keng qo'llaniladi [3:35-42].

A.D.Rayxshteyn ta'kidlashicha, «Frazeologik tizim, umuman, ikki tomonlama – kelib chiqishi va faoliyati nuqtai nazaridan antropotsentriзм, ya'ni leksema-komponentlar tarkibi hamda jami iboralar ma'nosining insonga semantik yo'nalitirilganligini aks ettiradi» [5]. Ushbu qiyoslanayotgan tillarda tizimosti hodisasiga daxldor iboralar umumiy tushunchaviy mansublikni o'z ichiga oladi, shu asosda ularning tahlilida qaysi tilga mansubligidan qat'i nazar insonlar jamoasiga xos bo'lgan umumiy va sof lisoniy madaniyat bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar aniqlanadi.

Adyektiv iboralar tilda va bilish jarayonida muhim o'rin egallab, ma'lum millatga xos olamning lisoniy manzarasini ifodalovchi usullardan biri hisoblanadi, bu esa barqaror iboralar, jumladan, uzual variantlar yoki okkazional-qayta shakllantirilgan birliklarda alohida til egalari orqali namoyon bo'ladi.

Hozirgi vaqtga qadar qoraqalpoq tilida to'liq frazeologik nazariya va ingliz tilining farqli belgilari ishlab chiqilmagan. Qiyosiy tadqiqotdan tashqari, komparativ adyektiv iboralarning (KAI) tasnifiy mavzuiy guruhlarini aniqlash lozim.

Iboralarning bunday tasnifi tahlil qilinayotgan til leksika sathining ayrim milliy-o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Turli tizimga ega tillardagi ayrim so'zlar, so'z birikmalari, jumladan, iboralar kesishish nuqtasiga ega bo'lishi, to'liq yoki qisman mos kelishi mumkin, masalan: *Quick on the trigger – qizba, qan qizba = gudi buzar* (qiziqqon, tez munosabat bildiradi); *Slow on the trigger – uyan = tirp etpes = jay basar, awir koshetu'gm* (sekin reaksiya qiladigan). Bunday o'xshashlikning sababi nafaqat chet tilidan so'z o'zlashtirish, bir tildan boshqa tilga kalkalashda, balki ko'plab lisoniy hodisalarining umumlashiriligidagina hamda ularning turli xalqlar ijtimoiy lisoniy ongida bir xil aks etishida namoyon bo'ladi. Chunonchi, diaxronik planda "oddiylik" tushunchasini ifodalovchi «common/ápiwayu» komponentli ibora tahlilida bu holat quyidagicha aks etgan:

*Common or garden – jay hám ápiwayı, mayda shúyde, jehil jelpi, shaqur-shuqır* (oddiy, eng odatdagi, shablon, siyqasi chiqqan) = *bir-bab, aspaytu'gm –taspaytu'gm, azar-bezersiz, aq kewil* [4].

Adyektiv iboralarning ushbu xususiyatlari kontekstda boshqa ko'rinishda aks etadi:

*"I imagine they'd soon realize that I wasn't quite the common or garden chartered accountant."* (W.S.Maugham "The Circle");

*"Sib's judgment is just his opinion of Sib – common or garden impatience of any one else"* (J.Galsworthy "The White Monkey").

KAI tarkibida faqat frazeologizmlardan iborat mavzuiy guruhlar mavjud bo'lib, mazkur denotatlarni ifodalovchi mustaqil leksemalar frazeologizm tarkibida ishtirok etmaydi.

Rus va ingliz tillari iboralari frazeologik mikrotizimlari o'rtasidagi o'xshashlik mazkur tillardagi frazeologizmlarning uch kichik guruhga miqdoriy taqsimlanishida ko'rinadi.

Iboralarning bunday tasnifi yordamida M. Mak-Karti va Felisiti O'Dell tadqiqotlarida quyidagi tematik guruhlar ajratib ko'rsatilgan: 1) *State of Health*; 2) *Appearance and physiognomy, moral*; 3) *Life and Social Status*; 4) *Happiness and sadness*; 5) *Anger*; 6) *Knowing and understanding*; 7) *Experience and perception*. Ushbu tadqiqotda adyektiv frazeologik birliklarni insonning tashqi ko'rinishi, insonning ichki fazilatlarini, yosh xususiyatlari, odamlar bilan munosabatlari, turli vaziyatlarda yoki atrof-muhitga ko'ra inson holati, biror nimaning kutilmaganda paydo bo'lishi yoki yo'qolishi va hajm, o'lchov, o'lcham kabi tematik guruhlariga tasniflashni ma'qul ko'rildi.

Leksik-frazeologik maydonni aniqlash uchun iboralarni tanlashda leksik birliklarni tasnifi uchun foydalaniladigan mezonlarga asoslanishi ma'qul. Ingliz va qoraqalpoq tillarining frazeologik lug'atlaridan yalpi tanlab olish natijasida quyidagi frazeologik mavzuiy guruhlar ajratildi. Qiyoslanayotgan tillardagi eng tipik mavzuiy guruhlar quyidagilar: (Rasm qarang)

Ingliz va qoraqalpoq tillarida iboralarni qiyosiy o'rganish ikki madaniyatdagi frazeologik-semantik kichik guruhlarini aniqlash va tadqiq etish, iboralar semantik belgilaridagi farqlarni, shuningdek, bitta semantik kichik guruhlariga kiruvchi iboralar konnotatsiyasi komponentlarini aniqlashga qaratilgan.

Professor V.D. Arakin rus va ingliz tillarini tipologik qiyoslash uchun uchta tamoyilni ajratib ko'rsatgan [1] va ushbu tamoyillarni E. Babaev zamonaviy ingliz va tojik tillarida majoziy o'xshatishli iboralarni taqqoslab tahlil qilishda qo'llagan [2:16].

Iboralarning mavzuiy tasnifi qiyosiy o'rganish ko'rib chiqilayotgan tillarda ham universal, ham differentsial hodisalarini aniqlash imkonini berdi. Adyektiv iboralar ingliz va qoraqalpoq tillarining olam lisoniy manzarasini shakllantirishda faol ishtirok etib, ular asosida ingliz va qoraqalpoq tillari olam manzarasining parchalarini qayta qurish imkonini berdi.

Adyektiv iboralar jarayonini tushunish uchun frazeologik birliklarning kognitiv tabiatini o'rganish muhim edi. Kognitiv yondashuv doirasida frazeologizatsiya kontseptual tizim doirasidan ma'lumotlarni uzatish jarayoni sifatida tushuniladi.

#### Adabiyotlar

1. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. – Л.: «Просвещение», 1979. –С. 259.
2. Бабаев Э. Образные сравнительные обороты в современном английском и таджикском языках: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М.: 1977. –С. 16.
3. Долгова Е.В. [Frazeologicheskie ediniцы angliyskogo yazyka kak sredstvo reprezentatsii znaniy o mezlichnostnykh ot-nosheniyaх](#)// Культура в зеркале языка и литературы. 2020. - С. 35-42.
4. Eshbaev J. Qaraqalpaq tiliniń qısqasha frazeologiyalıq sózligi. – Nókis: "Qaraqalpaqstan", 1985. 160-b.
5. Райхштейн А.Д. Сопоставительный анализ немецкой и русской фразеологии. – М.: 1980. –С. 143.

**REZYUME.** Maqolada komparativ adyektiv iboralarning mavzuiy tasnifi boyicha hozirgi vaqtga qadar qoraqalpoq tilida to'liq frazeologik nazariya va ingliz tilining farqli belgilari ishlab chiqilmagan. Qiyosiy tadqiqotdan tashqari, komparativ adyektiv iboralarning tasnifiy mavzuiy guruhlarini komponentlarini aniqlash lozim. Iboralarning bunday tasnifi tahlil qilinayotgan til leksika sathining ayrim milliy-o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье говорится о не разработанности полной фразеологической теории в каракалпакском языке и различных признаках английского языка для тематической классификации компаративных адективных фразеологизмов. Помимо сопоставительного исследования необходимо определить компоненты классификации тематических групп компаративных

адъективных фразеологизмов. Данная классификация фразеологизмов позволяет определить некоторые национально-специфические особенности лексического уровня анализируемого языка.

**SUMMARY.** The article talks about the lack of development of a complete phraseological theory in the Karakalpak language and various features of the English language for the thematic classification of comparative adjectival phraseological units. In addition to the comparative study, it is necessary to determine the components of the classification of thematic groups of comparative adjectival phraseological units. This classification of phraseological units allows us to determine some nationally specific features of the lexical level of the analyzed language.

## **ATOQLI OTLARNING FALSAFIY VA UMUMNAZARIY FANLAR KONTSEPTSIYASIDA O'RGANILISHI**

**K.T.Yakupova** – *assistent o'qituvchi*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch soʻzlar:** atoqli otlar, lisoniy, denotativ, tilshunoslik, lingvomadaniy, onomastika.

**Ключевые слова:** имена собственные, языкознание, денотативность, лингвистика, лингвокультурология, ономастика.

**Key words:** proper names, linguistic, denotative, linguistics, linguacultural, onomastics.

Dunyo tilshunosligida til egalarning ongida olamni konseptualashtirish va lisoniy voqelantirishning oʻziga xos kognitiv mexanizmlari tadqiqoti doirasida maʼlum tematik maydonga tegishli leksik birliklarni, jumladan, atoqli otlarni ham struktur-semantik, kommunikativ-pragmatik, qiyosiy-tipologik va lingvomadaniy koʻrinishlarda tahlil etish kabi ustuvor yoʻnalishlarda izlanishlar olib borilmoqda. Bunda atoqli otning lingvistik va sotsiolingvistik aspektida tadqiq qilishi nuqtayi nazaridan oʻrganish tushunilib, u oʻz ichiga maʼlum tildagi atoqli otlarning umumiy majmuini ifoda etadigan lugʻat yoki u muayyan davrdagi etnik guruhning tiliga tegishli boʻlgan atoqli otlar majmui tadqiqini ham oladi. Atoqli otning til birligi sifatida ilmiy idrok etilish jarayoni uning olam lisoniy manzarasi yaratilishidagi amaliy qoʻllanishi borasidagi tajribalarning toʻplanib borishi hamda uning tushunib yetilishi hisobiga bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bu jarayonlar parallel va uzluksiz davom etgani holida ketma-ketlik va bir xilligiga koʻra farq qilmaydi. Atoqli ot hodisasiga oid koʻplab masalalar boʻyicha bahsli holat hali ham davom etmoqda va zamonaviy qarashlardagi noaniqlik va ziddiyatlarning kelib chiqishi tarixan uzoq davrlarga borib taqaladi. Bu, bir tomondan, hodisaning murakkabligi bilan, boshqa tomondan, nomlarning koʻp arslilik amaliy qoʻllanilishi tajribasi (shu jumladan badiiy matnlarda qoʻllanilishi ham qamrab olinadi) va bu hodisani ilmiy-nazariy tushunish jarayonlarining dialektik birligi va ziddiyati bilan belgilanadi.

Atoqli otlarni qoʻllash bilan bogʻliq masalalar tahlil qilingan ilk asarlar Aristotelga tegishli. Uning "Ritorika" va "Poetika" asarlarida koʻpincha oʻzaro oʻxshash deb talqin qilingan ismlar va ularning denotatlariga oid baʼzi fikrlar, nutqda ismlardan va ismlar ishtirok etgan iboralardan foydalanishning alohida usullari, estetik yoki hissiy taʼsirni kuchaytirish uchun har bir qoʻllanilgan holatlar koʻzda tutiladi, jumladan: Aristotelida taqqoslashlar, metaforalar, xudolar va mifologik qahramonlar ismlaridan foydalanish, Gomer sheʼriyatida kuchaytirish va boshqalardan foydalanilgan [1]. Aristotelidan taxminan yuz yil oʻtgach, stoiklarga mansub faylasuf Xrissip atoqli otlarni alohida ot kategoriyasiga ajratdi [2]. Antik davrning eng mashhur asari Platonning "Dialog"idir. "Kratil" dialogida faylasuf, Kratil va Germogen oʻrtasidagi, ismlarning tabiati va mohiyati haqidagi bahsni hal qilishga urinib bir qator savollarni koʻrib chiqish bilan shugʻullanadi, bu savollarni Suqrot bilan bahslashuvda: nomlarning tasodifiy tanlovga asoslanib belgilanishi yoki nomlangan narsalarning tabiatiga koʻra belgilanishi; narsalarning oʻz xususiyatlari borasida nima tushunilishi; atoqli otlardan toʻgʻri foydalanish haqidagi masalalarni tadqiq qiladi [3]. Yuqorida keltirilgan mulohazalarni zamonaviy tilga oʻgʻirish orqali muhokama markazidagi onomastikaning zamonaviy qiyofasi atrofidagi muammolar qamrovi batamom belgilab chiqilganiga amin boʻlish mumkin, chunonchi: ismlar tabiati hamda ularning semantikasi, ismlarning badiiy personajlarga muvofiqligi, badiiy matnlar yaratilishi hamda idrok qilinishidagi tarkib va mazmun jihatdan taʼsir qilinishi kabilarni shular jumlasiga kiritish

mumkin. Ammo ismlarni anglashga qaratilgan tajribalar toʻplamining qadimiyrogʻi haqida maʼlumotlar u qadar keng maʼlum emasligini qayd etish lozim.

Zamonaviy ilm - fanda maxsus onomastik tadqiqotlarning boshlanishiga tamal toshi odatda XIX asrda ingliz olimi J. S. Mill tomonidan qoʻyilgan deb hisoblanadi. Uning fikrlari mantiq-falsafiy asosga tayanib (bunda asosan, T. Hobbes gʻoyalari asoslanilgan) qurilgan, shunga qaramay, u tomonidan ishlab chiqilgan asosiy qoidalar keyinchalik tillar nazariyasiga, ayniqsa, referensiya nazariyasiga, nominatsiya nazariyasiga taʼsir koʻrsatgan, ayniqsa, atoqli va turdosh otlar haqidagi qarashlarga taʼsir koʻrsatdi. Millning fikricha, otlar oʻzlari atayotgan narsalarning haqiqiy nomlari boʻlib, bu bizning ular haqidagi tasavvurlarimizning nomlanishi emas. "Barcha ismlar xoh xayoliy, xoh haqqoniy boʻlsin nimanidir atab keladi, shu bilan bir qatorda har alohida narsaning ham oʻz nomi boʻlmasligi mumkin. Ayrimlari uchun esa ularni farqlovchi maxsus, alohida ismlar kerak, masalan, har bir shaxs, yoki makon oʻz alohida nomiga ega boʻlishi kerak va h.k." [4]. John Millga tegishli boʻlgan fikrga koʻra, ismlar hech qanday maʼno bildirmasdan, biror narsani belgilash uchun tanlangan "belgi"lar kabi tushuniladi. Ular biror narsa yoki shaxsni belgilash vazifasini bajaradi, ammo hech qanday mazmuni bayon qilmaydi. Bu munosabat tilshunoslik tomonidan oʻzlashtirilgan va yuz yildan ortiq vaqt mobaynida hukmron boʻlib kelgan.

Ot soʻz turkumiga mansub kategoriya birliklarini turdosh (umumiy) va atoqli otlarga ajratish XVIII asr boshlarida G.V.Leybnits tomonidan ilmiy isteʼmolga kiritilganini qayd etib oʻtish lozim. Bu haqida soʻz yuritarkan olim quyigilarni qayd etgan: "garchand, yagona va unikal predmetlar mavjud boʻlsa ham, aksariyat soʻzlar baribir umumiy terminlardan iborat boʻladi; biz tez-tez aniq bir individlar, shuningdek davlat, shahar, togʻ va boshqa toponimlarni anglatuvchi atoqli otlardan foydalanamiz" [5].

Rus tilshunosligida XX asrdagi falsafiy va filologik turdagi tahlillarda ot soʻz turkumi maxsus turkum kategoriyasidagi soʻz sifatida koʻrib chiqilish anʼanasini, avvalo, P.A. Florenskiy [Florenskiy, 2000], A.F. Losev [Losev, 2010-2013; 1990] hamda Yu.M. Lotman semiotik maktabi vakillarining tadqiqotlarida uchratish mumkin [Lotman, 2000]. Ot soʻz turkumiga mansub birliklarni qoʻllashning u yoki bu sohasiga yondashuv, ular haqidagi falsafiy va filologik tahlillarning olib borilishi, alaloqibat bu hodisani yakuniy holatda chuqur nazariy xulosalarga asoslangan yangi onomastik tadqiqot yoʻnalishlarining paydo boʻlish asosiga aylanishiga turtki boʻlgan.

Olam ilm – fanda ustuvorlik qilgan materialistik ilmiy dunyoqarash bunday gʻoyalarni qabul qilmagan, biroq XX asrning oxirgi oʻn yilligida olimning original gʻoyalari qiziqish sezilarli darajada ortdi. Ilmiy jihatdan, rus tili ismlarining fonetik jihatlarini badiiy matn tahlilida aks ettirilgan holda batafsil bayon etish, "Ismlar" kitobida yoritilgan. Holatning muqoyasa qilinayotgan tillar misolidagi tahliliga quyida batafsil toʻxtalib oʻtiladi:

Ismlar oddiygina belgi emas; ular lingvistik, madaniy va ijtimoiy maʼnolarga ega. Ushbu tahlil ism va uning denotati

o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, ismlarning identifikatsiya, tarixiy kontekstlar va madaniy qadriyatlarini qanday aks ettirishini ko'rsatadi. Ingliz va o'zbek misollarini tahlil qilib, ismlarning turli tillar va madaniyatlarda qanday ishlashini ko'rsatamiz.

Tarixiy va madaniy ahamiyat borasida ingliz tilida keng tarqalgan "Elizabeth" atoli otini ko'rib chiqish mumkin. Ushbu ism ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyatda tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, ko'pincha Britaniya qirolliklari, xususan, qirolliqa "Elizabeth I" va "Elizabeth II" bilan bog'liq. Mazkur rakursda qaraganda atoli ot nafaqat bir kishini bildiradi, balki yetakchilik, tarix va an'analar kabi xususiyatlarni ham ifodalaydi. Ism va uning denotati o'rtasidagi bog'liqlik tarixiy hikoyalar va madaniy xotira orqali mustahkamlanadi. "Elizabeth" ismining ontologik shakli ushbu kontekstda qirollik personajini o'z ichiga oladi, bu esa jamiyatda ma'naviy va psixologik tuzilishni belgilaydi.

"Apple" ismi, asosan, umumiy ot bo'lsa-da, zamonaviy ingliz tilida texnologiya kompaniyasi Apple Inc. tufayli mashhur onimga aylandi. Ushbu denotativ o'zgarish otlarining vaqt o'tishi bilan madaniy va tijorat omillar ta'sirida yangi ma'nolar va assotsiatsiyalarni qanday qabul qilishini ko'rsatadi. Denotativ o'zgarish oddiy meva nomidan texnologiya va innovatsiyalarni ifodalovchi belgiga o'tishni anglatadi.

O'zbek tilida "Islom" ismi keng tarqalgan bo'lib, o'zbek madaniyatida islomning ahamiyatini aks ettiradi. Ism nafaqat bir shaxsni bildiradi, balki diniy identifikatsiya, e'tiqod va madaniy meros kabi konnotatsiyalarga ega. Bu o'zbek tilidagi ismlar ko'pincha chuqur madaniy va diniy qadriyatlarini aks ettirib, shaxsni keng jamiyatiy identifikatsiyaga bog'laydiganligini ko'rsatadi. "Islom" ismining ontologik shakli diniy fazilatlarini o'z ichiga oladi va madaniy kontekstda shaxsning ma'naviy va psixologik tuzilishini shakllantiradi.

"Amir Temur" (Temur) ismi yana bir misolida tahlil qilish yangicha madaniy-tarixiy xususiyatlar haqida ma'lumotni yuzaga chiqaradi. O'zbek xalqi tarixida Amir Temur tarixiy shaxs bo'lib, uning ismi qudrat, fath va milliy faxrni bildiradi. Ushbu ismining tarixiy ahamiyati o'zbek madaniy hayoti hamda dunyoqarashida chuqur o'rnatilgan bo'lib, zamonaviy kontekstlarda qanday qabul qilinishiga ta'sir qiladi. "Amir Temur" ismining ontologik shakli tarixiy jasorat va yetakchilik elementlarini o'z ichiga oladi, bu esa mazkur onimni madaniy va psixologik qabul qilish shart-sharoitini aks ettiradi.

Ingliz va o'zbek ismlarining qiyosiy tahlili ismlar va ularning denotatlari o'rtasidagi bir nechta muhim nuqtalarni ochib beradi:

### Adabiyotlar

1. Аристотель. Этика. Политика. Риторика. Поэтика. Категории / Аристотель. – Минск: «Литература», 1998. –С. 1392. (Классическая философская мысль); – ISBN 985-437-401-7
2. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного / А.В.Суперанская. – Москва: «Наука», 1973. –С. 367.
3. Платон. Кратил / Платон // Античные теории языка и стиля / ред. О.Фрейденоберг. – Москва-Ленинград: Государственное социально-экономическое издательство, 1936. – С. 36–59.
4. Милль Дж. С. Система логики символической и индуктивной / Дж. С. Милль; пер. с англ. – Москва: «Леман», 1914. – С. 22.
5. Лейбниц Г.-В. Новые опыты о человеческом разумении. 1703-1704 / Г.-В. Лейбниц. В 4-х т. Т. 2. -Москва: «Мысль», 1983. – С. 288-289. – (Филос. наследие).
6. Флоренский П. А. Имена / П. А. Флоренский. – Харьков: Фолио; М.: АСТ, 2000. –С. 40.
7. Лосев А. Ф. Философия имени / А. Ф. Лосев. – Москва: Изд-во Московского университета, 1990. –С. 30.

**REZYUME.** Maqolada ism va uning denotati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, ismlarning identifikatsiya, tarixiy kontekstlar va madaniy qadriyatlarini qanday aks ettirilishi ko'rsatadiladi. Ingliz va o'zbek misollarini tahlil qilib, ismlarning turli tillar va madaniyatlarda qanday ishlashini ko'rsatamiz.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматривается взаимосвязь имени и его значения, показано, как имена отражают идентичность, исторический контекст и культурные ценности. Анализируя английские и узбекские примеры, мы показываем, как имена работают в разных языках и культурах.

**SUMMARY.** The article explores and analyzes the relationship between a name and its denotation, showing how names reflect identity, historical contexts, and cultural values. Analyzing English and Uzbek examples, we show how names work in different languages and cultures.



UDK 81<sup>1</sup>255.2

## ADABIY VA SHE'RIY TARJIMALARNING XUSUSIYATI

F.D.Atashova – katta o'qituvchi

Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti

**Tayanch so'zlar:** badiiy tarjima, yozma yoki og'zaki matn, she'riy tarjima, lingvistik kategoriyalar, tarjima jarayonining tahlili va sintezi.**Ключевые слова:** художественный перевод, письменный или устный текст, поэтический перевод, лингвистические категории, анализ и синтез процесса перевода.**Key words:** literary translation, written or oral text, poetic translation, linguistic categories, analysis and synthesis of the translation process.

**Kirish.** Adabiy ijodning asosiy turlaridan biri tarjimadir. «Tarjima» so'zi faoliyatning juda katta doirasini o'z ichiga oladi va taniqli va umume'tirof etilgan tushunchadir. Tarjimaning ko'plab ta'riflari mavjud. Shuni ta'kidlash kerakki, A.V.Fedorov, L.S.Barxudarov, V.S.Vinogradov, V.N.Komissarov, A.D.Shvaytser kabi ko'plab tadqiqotchilar «tarjima» tushunchasining mohiyati haqida aniq qiziqib, so'zning o'ziga xos polisemantikligini ta'kidladilar. Keling, «tarjima» tushunchasining asosiy ta'riflarini ko'rib chiqaylik.

Mashhur sovet tarjimoni A.V.Fyodorov shunday yozadi: «Tarjima, birinchi navbatda, aqliy harakat shaklida sodir bo'ladigan va nutq ishining (matn yoki og'zaki nutq) bir tilda paydo bo'lishidan iborat bo'lgan jarayondir. boshqa – tarjima – tilda qayta yaratiladi; ikkinchidan, bu jarayonning natijasidir, ya'ni. yangi nutq ishi» [1]. Ma'lumki, «tarjima» so'zining ma'nosi haqidagi bu ikki tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir, ya'ni tarjima jarayoni nutq ishining natijasi bo'lgan xususiyatlarini tushuntiradi va aksincha, tarjima jarayonining tabiati bo'lishi mumkin. natijaning xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Biroq, A.V.Fyodorov bu ikki tushunchani ajratib ko'rsatish zarurligini ta'kidlaydi, chunki hozirgi vaqtda tadqiqotchilarning manfaatlari ikkiga bo'lingan: «ba'zilar tarjima va asl nusxa o'rtasidagi munosabatni bir-biriga bog'langan ikkita nutq asari sifatida tahlil qiladilar; boshqalar birinchi navbatda tarjima jarayoni va uni modellashtirish bilan shug'ullanadilar» [7]. Ikkala yo'nalish ham bir-birini istisno qilmaydi, lekin har birining o'ziga xos xususiyatlari bor. Mashhur tilshunos olim L.S.Barxudarov «tarjima» tushunchasiga o'z ta'rifini beradi – bu «bir tildagi nutqiy asarni o'zgartirgan mazmun rejasi-ni, ya'ni ma'nosini saqlab qolgan holda boshqa tildagi nutqiy asarga aylantirish jarayoni» [1]. Shuni ta'kidlash kerakki, L.S.Barxudarov qo'yilgan vazifaning murakkabligini bilgan holda, o'z ta'rifiga ikkita muhim izoh bilan birga keladi, ulardan birida u «tarkib rejasi» yoki «ma'no» atamasini iloji boricha kengroq tushunishga chaqiradi, ya'ni, semasiologiya arsenalida mavjud bo'lgan bilimlarning butun doirasiga asoslangan; boshqasi esa «o'zgartmas tarkib rejasi saqlab qolish» haqida faqat nisbiy ma'noda gapirish mumkinligini ta'kidlaydi. Tillararo transformatsiya jarayonida yo'qotishlar muqarrar, ya'ni asl matnda ifodalangan ma'nolarning to'liq o'tkazilmasligi mavjud. Shuning uchun tarjima matni hech qachon asl matnning mutlaq ekvivalenti bo'la olmaydi. Ushbu ta'riflar mualliflari tarjimoni mazmun rejasi saqlab qolgan holda ifoda rejasi almashtirish pozitsiyasidan ko'rib chiqadilar.

Tarjima asl nusxa asosida yangi matn yaratish ekanligidan kelib chiqqan holda mualliflar tomonidan quyidagi ta'riflar keltirilgan. Professor V.S.Vinogradovning fikricha, «tarjima» bu «ijtimoiy zaruratdan kelib chiqqan jarayon va bir tildagi yozma yoki og'zaki matnda ifodalangan ma'lumotlarni boshqa tildagi ekvivalent (adekvat) matn orqali uzatish natijasi» [2]. Muallif yana tushuntirib beradiki, axborot deganda barcha mazmun, ham semantik, ham stilistik, emotsional-ekspressiv, funksional, baholovchi, janr, estetik xarakterdagi barcha ma'lumotlar tushuniladi; Ekvivalentlik (adekvatlik) deganda tarjima matnida asl nusxaning janrli o'ziga xosligi va asl matndagi barcha turli ma'lumotlarning to'liq saqlanishi tushuniladi. V.N.Komissarov «tarjima» – «TLda asliyatga kommunikativ jihatdan ekvivalent bo'lgan matn yaratiladigan va uning kommunikativ ekvivalentligi tarjima retseptorlari tomonidan asl nusxa bilan aniqlanishida namoyon

bo'ladigan lingvistik vositachilik turi» deb ta'kidlaydi [4]. Keyin muallif ushbu ta'rifning asosiy fikrlarini tushuntirib, batafsil izoh beradi. Xususan, V.N.Komissarov shunday deb yozadi: aloqa uchun zaruriy shart - bu «lingvistik vositachilik» ni amalga oshiradigan oraliq bo'g'inning mavjudligi, ya'ni. asl xabarni retseptor tomonidan idrok etilishi mumkin bo'lgan lingvistik shaklga aylantirish; asl matn va tarjima o'rtasida o'zi «kommunikativ ekvivalentlik» bilan bog'liq bo'lib, u muloqotning o'ziga xos sharoitida zaruriy o'zaro tushunishni ta'minlash uchun yuqori darajadagi umumiylikda ifodalanadi. A.D.Shvaytser «tarjima» tushunchasiga o'zining ta'rifini beradi - «tillararo va madaniyatlararo muloqotning bir yo'nalishli va ikki bosqichli jarayoni bo'lib, unda maqsadli («tarjima») tahlil qilingan asosiy matn asosida ikkinchi darajali matn yaratiladi. (metatmatn) boshqa til va madaniy muhitda birlamchini almashtirib yaratiladi» [8]. Muallifning ta'kidlashicha, bunday formula o'zining barcha noqulayligi bilan tarjima jarayonining ko'p faktorli xususiyatini, uning boshqa tillararo muloqot turlaridan farqini va asosiy paradoksini – tarjimonning asl nusxaga «sodiqlik»ga e'tibor qaratishini va asosiy e'tiborni aks ettiradi. Adres va uning madaniyati normalari [8]. Ushbu ta'riflar tarjima matni ko'proq avtonomiya va ijodkorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq, bu mustaqillikni asl nusxadan masofa sifatida talqin qilish mumkin, buning natijasida asl va yakuniy matn o'rtasidagi bog'liqlik buziladi, keyin esa ikkinchisi shunchaki tarjima deb atalishga haqli emas.

Shunday qilib, biz «tarjima» tushunchasining ta'rifida juda ziddiyatli degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha, tarjima «nutq yoki yozma asarni asl nusxaning shakli va mazmunini saqlab qolgan holda manba tildan ko'rsatma tilga aylantirish jarayoni»dir. Ta'riflarni tahlil qilib, biz tarjimaning bir nechta doimiy xususiyatlarini aniqlashimiz mumkin: polivariatsiya (bir xil asl asarning tarjima qilingan matnining bir nechta versiyalarining mavjudligi), qaytarilmasligi (mavjud tarjimadan asl nusxani to'liq tiklashning mumkin emasligi) va ikki fazali. (tarjima jarayonining tahlili va sintezi). «Tarjima» tushunchasining asosiy ta'riflarini ko'rib chiqib, tarjimaning o'ziga xos turiga, ya'ni badiiy tarjimaga to'xtalib o'tish zarur.

Tilshunos va adabiyotshunos olimlar bir necha bor badiiy matn tushunchasiga ta'rif berishga harakat qilganlar. Ammo matn turlarini (badiiy va badiiy bo'lmagan) farqlash uchun hali ham aniq ta'rif mavjud emas. Matnlarning badiiy va badiiy adabiyotga bo'linishi insonda ikki xil fikrlash: mantiqiy va obrazli tafakkurga ega ekanligiga asoslanadi.

Tarjimashunoslikda muhim o'rinlardan birini badiiy matnni tasniflash egallaydi. Ko'p tasniflar mavjud, biz faqat eng qiziqarlilarini ko'rib chiqamiz. Masalan, til va tarjima muammolari bo'yicha yetakchi sovet tadqiqotchilaridan biri A.V.Fedorovning tasnifi. Uning tasnifi tarjima qilinayotgan materialning tabiatidagi farqlarga asoslanadi va u quyidagilarni ajratadi: 1) axborot matnlari, hujjatli matnlar (tijorat va biznes xarakterdagi) va ilmiy matnlar; 2) ijtimoiy-siyosiy matnlar (shu jumladan, marksizm klassiklarining asarlari, tahririy maqolalar va nutqlar); 3) (badiiy) adabiy matnlar [7]. Biz tasniflashning tematik xarakterga ega ekanligini payqadik. Katarina Raysning yana bir tasnifi tarjimon uchun qulayroqdir, chunki u tufayli tarjimon o'z e'tiborini nimaga qaratish kerakligini biladi: 1) til mazmuniga yo'naltirilgan matnlarning tavsiflovchi funksiyasiga ko'ra; 2) til - shakl yo'naltirilgan matnlarning ifoda vazifasiga ko'ra; 3) murojaat vazifasiga ko'ra – murojaatga



yo'naltirilgan matnlar [5].

Badiiy matnlar turli xarakterga ega bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: intellektual, hissiy, estetik. Demak, badiiy matn mantiqiy matn maqsadidan farqli maqsadni ko'zlaydi, ya'ni badiiy matnlar o'quvchiga ta'sir o'tkazish, unda bevosita badiiy tasvir orqali ifodalangan voqea, hodisalarga ma'lum bir emotsional yoki oqilona munosabatni uyg'otishga qaratilgan. tasvir. Shuni qo'shimcha qilish joizki, badiiy matn boshqa matn turlaridan kompozitsiya deb ataladigan tuzilishi bilan farq qiladi. Bu badiiy shaklning eng muhim, organuvchi elementi bo'lib, asarga birlik va yaxlitlik berib, uning tarkibiy qismlarini bir-biriga va butunga bo'ysundiruvchi, ya'ni matnni tartibga solish usulidir. Badiiy matn yuqori darajadagi milliy-madaniy va zamon konditsiyasi bilan ajralib turishini ham qayd etishimiz mumkin. Shunday qilib, adabiy matn doimo millat, madaniyat yoki davrning xususiyatlarini aks ettiradi. Milliy o'ziga xoslik til shakllarining o'zida mustahkamlangan. Badiiy sinovning muhim muammolaridan biri bu idrokning noaniqligidir. Va bu hodisaning uchta asosiy sababi bor: lingvistik noaniqlik, muallifning niyati va o'quvchining tayyorligi. Shuni ham ta'kidlash joizki, adabiy matn obyektiv bo'lishi mumkin emas, muallifning pozitsiyasidan, muallifning personajlar va hodisalarga munosabatidan yoki muallifning intonatsiyasidan xoli bo'lishi mumkin emas [6].

She'riy tarjima so'zlashuv san'atining alohida turi bo'lgan she'riy matnga asoslanadi. U ma'lum sifatlariga ega: to'liqlik (yoki izchillik), to'liqlik, idiomatiklik (yoki yaxlitlik), madaniy jihatdan ajralmaslik, individuallik, optimallik, ochiqlik va izchillik [6]. Ushbu turdagi matnning timsoli xususiyati tufayli «she'riy matn» tushunchasiga to'liq ta'rif berishning iloji yo'q, chunki ikoniklik she'riy fikrlash jarayonining ham vositasi, ham natijasidir. Biroq, uni she'riy matnning matn ichidagi va matndan tashqari tomonlarini hisobga olgan holda, shuningdek, uning o'ziga xosligini belgilovchi qator omillardan foydalangan holda ko'rib chiqish mumkin. Masalan, she'riy matnni quyidagicha ko'rib chiqish: o'ziga xos ifoda rejasi va mazmuniga ega bo'lgan lingvistik kategoriya; madaniy toifa; estetik kategoriya; ma'naviy kategoriya, san'atning boshqa turlari qatorida inson madaniy faoliyatining namoyon bo'lishi sifatida; dunyoning badiiy tasvirini va she'riy tafakkur xususiyatlarini o'z ichiga olgan antropolinguistik kategoriya. Shuni ta'kidlash kerakki, she'riy matnning asosiy tipologik parametrlari ma'naviyat, obrazlilik va ularning estetik jihatdan qimmatli lingvistik obyektivlashuvidir. Badiiy obyektning yaxlitligi printsipi

Elektron virtual kutubxona – multimedia xonasining keng imkoniyatlaridan biri, elektron nusxa yoki elektron multimedia darsliklari mujassamlangan, tarmoqqa ulangan kutubxona. Internet tarmog'idan o'zbek tilini o'rganuvchilar unumli foydalanishlari mumkin: mustaqil ta'lim jarayonida ma'lumotlar to'plash, mavzularni o'zlashtirish, berilgan mavzuda referat, insho yozish va boshqalar. Shuningdek, talaba elektron pochta – axborotni bir kompyuterdan ikkinchisiga yuborishni ta'minlovchi tizim orqali o'qituvchi yoki tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi mumkin. Videomateriallar bilan ishlash til o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalarining bu vositasi turli ko'rinishda qo'llanilishi mumkin. Masofaviy ta'lim – masofadan internet tarmog'i orqali o'qitish usuli bo'lib, bu borada respublikamizda ma'lum sohalar bo'yicha test-tajribalar o'tkazilmoqda [2:67].

Tillarni o'qitish tizimi hisoblangan kompyuterda lingvomadaniyatga oid quyidagi turdagi topshiriqlardan foydalaniladi:

✓ Close the gap – bo'sh kataklarni to'ldirish topshirig'i. Bunda semantika va grammatika sohalarini o'rganish kerak;

✓ krossvordlar va leksik topshiriqlar;

✓ elektron pochtdan foydalanib bajariladigan mashq (turli xatlar yoki elektron hikoyalar tuzish asosida) word-hunting;

✓ matnlarning avtomatik tarjimasini va tahriri bo'yicha o'yinlar;

✓ grammatikaning turli sohalarini bo'yicha diagnostik testlar o'tkazish;

✓ CD-ROMda standart o'qitish kurslaridan foydalanish.

Mashg'ulotlarda kompyuterdan foydalanishning turli-tuman usullari mavjud. Sanab o'tilgan va boshqa bir qator kompyuter texnologiyalarini til o'qitish jarayonida foydalanish samarali natija beradi.

XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash «ta'lim texnologiyasi» yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor o'quvchilar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning obyektini, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini «texnologiyalashtirish»ning tashkiliy jihatlari o'rganishga alohida urg'u berildi.

60-yillarning boshlarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish «texnologiya» tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rila boshlandi. Dasturiy ta'lim o'quvchilarga muayyan bilimlarni alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta'lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yurita boshlagan «Dasturiy ta'lim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha birlashgan qo'mita» tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta'lim o'zida ta'lim maqsadlari, ularni o'zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta'lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi.

Pedagoglar elektron axborot-ta'lim resursi haqida muayyan tushunchalarga ega bo'lishlari taqozo qilinadi.

**Xo'sh, elektron axborot-ta'lim resursi deganda nima tushuniladi?**

XX asr oxiri XXI asr boshlarida barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasida qo'llanilayotgan tushuncha va atamalar miqdori ko'paydi. Bu holat muayyan chalkashliklarga ham sabab bo'lmoqda. Mashhur fransuz matematig Rene Dekart: «So'zlar ma'nosini aniqlang. Shunda siz dunyoni yarim chalkashlikdan xalos etgan bo'lasiz» deb bejiz aytmagan. Kichik tadqiqotimizni o'tkazish jarayonida ham bir-biriga juda o'xshash, ba'zan ajratish, farqlash qiyin bo'ladigan atama va tushunchalarga duch keldik. Jumladan, resurs, axborot ta'lim resursi, interfaol elektron axborot ta'lim resursi, raqamli ta'lim resursi kabi tushunchalar mohiyatini to'g'ri anglab olish taqozo qilinadi.

Avvalo, resurs atamasi haqida. Resurs so'zi fransuzcha bo'lib, «ressource» – yordamchi vosita demakdir. Biror narsaning manbasi, yordamchi ashyo deganidir [3:40]. Ta'limiy resurslar deyilganda quyidagi yordamchi vositalarni qamrab olish mumkin: axborot-ta'lim muhitining tarkibiy qismlari, axborot-ta'lim sohasi va ijtimoiy-pedagogik «ta'lim mazmuni» (ta'lim standarti, o'quv rejasi, o'quv dasturi, o'quv adabiyotlari), umumiy pedagogik taraqqiyot vositalari; didaktik, motivatsion va takomillashtiruvchi vazifalarni bajaruvchi didaktik vositalar [4:23].

Metodik adabiyotlarda quyidagi ta'riflar keltirilgan:

Axborot ta'lim resursi – bu ta'lim sohasida yangi axborot texnologiyalaridan maqbul foydalanishni, ularni ta'lim faoliyatining barcha turlari va shakllariga joriy etishni ta'minlaydigan texnik, dasturiy ta'minot, telekommunikatsiya va uslubiy vositalar majmuyi. Bu – o'quv-ma'lumotlar bazasi, bilimlar bazasi; texnik va dasturiy vositalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash deb ham tushuniladi.



Interfaol elektron axborot ta'lim resursi – bu turli xil aloqa obyektlari: kompyuter, aloqa-texnik vositalari, dasturiy ta'minot va uning imkoniyatlari, muayyan darsning vazifalarini hal qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan va tanlangan elementlar, shuningdek talaba va o'qituvchining axborot almashish jarayonini amalga oshirishga hissa qo'shadigan tadbirlar.

Raqamli ta'lim resurslari – bu raqamli ravishda taqdim etilgan fotosuratlar, videokliplar, statik va dinamik modellar, virtual haqiqat va interfaol modellashtirish obyektlari, kartografik materiallar, ovoz yozuvlari, ramziy obyektlar va biznes grafikasi, matnli hujjatlar va ta'lim

jarayonini tashkil qilish uchun zarur bo'lgan boshqa o'quv materiallari.

Elektron ta'lim resurslari – bu kompyuter texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan va joriy qilingan o'quv vositalarini birlashtiradigan eng keng tarqalgan atama. Raqamli ta'lim resurslari – bu elektron ta'lim resurslarining maxsus holati, raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan va ishlaydigan ta'lim resurslari.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, lingvomadaniy kompetensiya va shu kabi boshqa yondashuvlarni rivojida raqamli texnologiyalarning ahamiyati katta. Chunki elektron tarzda darslar tashkil etilsa o'quvchilar uchun ham qiziqarli bo'ladi.

#### **Adabiyotlar**

1. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest: 2006. 19-b.
2. Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. - T.: 2007.
3. Насс О.В. Формирование компетентности педагогов в проектировании электронных образовательных ресурсов в контексте обновления общего среднего и высшего образования: автореф. дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.01 / О. В. Насс ; Московский городской пед. ун-т. – М.: 2010 –С. 40.
4. Борщевская Ю.М. Педагогические условия использования образовательных ресурсов как средства индивидуализации развития детей 6–8 лет: автореф. дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01 / Ю. М. Борщевская ; Нижегород. гос. архитектур.-строит. ун-т. – Н. Новгород: 2009. –С. 23.

**REZYUME.** Ushbu maqolada o'zbek tili ta'limida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va ularning rivoji haqida to'xtalgan. Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samarali usullari haqida ma'lumot berilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье основное внимание уделяется эффективному использованию цифровых технологий в образовании узбекского языка и их развитию. Дана информация об эффективных методах использования цифровых технологий в развитии лингвокультурной компетенции.

**SUMMARY.** This article focuses on the effective use of digital technologies in Uzbek language education and their development. Information is given on the effective methods of using digital technologies in the development of linguistic and cultural competence.

### **SCAMPER TEXNIKASI ASOSIDA BOLA BILAN ISHLASHNING MAXSUS MASHQLARI VA FAOLIYAT TURLARINI TASHKIL ETISH USULLARI**

**A.Karimova** – *assistent o'qituvchi*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

**Tayanch so'zlar:** texnika, intellektual qobiliyat, integratsiya, minimalizm, innovatsion, eliminate (chiqarib tashlash), reverse (teskariy o'zgartirish)

**Ключевые слова:** техника, интеллектуальные способности, интеграция, минимализм, инновационный, устранение, реверс.

**Key words:** technique, intellectual ability, integration, minimalism, innovative, eliminate, reverse.

Maktabgacha ta'lim bolalarning ijtimoiy, jismoniy va intellektual rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois bu davrda qo'llaniladigan ta'lim metodlari va texnikalari juda muhimdir. SCAMPER texnikasi bolalarda ijodkorlikni va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan metodlardan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tez o'zgaruvchan va o'rganishga moyil bo'lgan davrda bo'lishadi. Shu sababli ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhimdir. SCAMPER texnikasi bolalarni turli xil fikrlash jarayonlariga undaydi va ularning muammolarni hal qilishda ijodiy yechimlar topish qobiliyatlarini oshiradi.

Scamper texnikasining ta'limdagi ahamiyatini quyidagicha belgilash mumkin:

**1.Ijodiy fikrlashni kengaytiradi.** SCAMPER texnikasi bolalarga mavjud narsalarni yangicha usullarda ko'rishga va ularni o'zgartirishga undaydi. Bu esa, bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

**2.Muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi.** Har bir SCAMPER elementi bolalarni muammolarni turli yo'llar bilan ko'rib chiqishga va yechimlar izlashga undaydi. Bu kelajakda murakkab vaziyatlarni hal qilishda yordam beradi.

**3.O'z-o'zini ifoda etishni o'rgatadi.** SCAMPER texnikasi orqali bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishga va turli materiallar yoki g'oyalar bilan ishlashga o'rganadilar. Bu ularning o'z-o'zini ifoda qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

**4.Turli sohalarga qiziqishni kengaytiradi.** Bolalar SCAMPER texnikasini qo'llagan holda turli sohalarni – san'atdan fanlargacha kasf etadilar, bu esa ularning qiziqish doiralarni kengaytiradi [4].

Maktabgacha ta'limda SCAMPER texnikasini qo'llash bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu texnika nafaqat

bolalarning shaxsiy rivojlanishida, balki ularning ke-lajakdagi akademik va professional faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo'lishlarida ham muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'lim muassasalari ushbu texnikani o'z dasturlariga integratsiya qilish orqali, bolalarni yangi asrning talablariga javob beradigan tarzda tayyorlashi mumkin.

Maktabgacha ta'lim bolalarning jismoniy, ijtimoiy, va intellektual rivojlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Shu sababli bu davrda qo'llaniladigan ta'lim metodlari va yondashuvlarining samaradorligi alohida ahamiyat kasb etadi. SCAMPER texnikasi aynan shunday yondashuvlardan biri bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda katta o'rin tutadi.

SCAMPER texnikasi maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ishlatiladigan noyob va samarali metodlardan biridir. Bu texnika Bob Eberle tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi bolalarda muammolarni hal qilish, yangi g'oyalar yaratish va mavjud narsalarni yangicha tarzda ko'rish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. SCAMPER texnikasi quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

-bolalarga bir narsani boshqasi bilan almashtirish orqali yangi g'oyalarni yaratishni o'rgatadi.

-turli narsa yoki g'oyalarni birlashtirish orqali yangi mahsulot yoki yechimlarni yaratishga undaydi.

-mavjud narsa yoki g'oyani yangi sharoitlarga moslashtirish imkoniyatini beradi.

-mavjud narsa yoki g'oyani o'zgartirish yoki yangilash imkoniyatini taqdim etadi.

-mavjud narsa yoki g'oyani boshqa maqsadda qo'llashni o'rgatadi.

-keraksiz yoki ortiqcha elementlarni chiqarib tashlash orqali soddalashtirishni o'rgatadi.

-jarayon yoki narsani teskarisiga o'g'irish orqali yangi perspektivalarni kashf qilishga yordam beradi.

Scamper texnikasining bolalar tarbiyasidagi o'rnini quyidagicha izohlash mumkin:

1. SCAMPER texnikasi bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini kengaytiradi. Bolalar turli xil vaziyatlarda o'zgacha yechimlar izlashga o'rganadilar, bu esa ularning muammolarni hal qilishda o'ziga xos yondashuvlarini shakllantiradi. Masalan, bitta o'yinchoqni turli xil o'yinlar uchun qo'llash orqali bolalar o'yinchoqning ko'p qirraliligi va uni boshqa maqsadlar uchun qanday foydalanish mumkinligini o'rganadilar.

2. Scamper texnikasi bolalarga nafaqat mavjud narsalarni qanday o'zgartirish yoki yaxshilash mumkinligini o'rganishga yordam beradi, balki bu jarayonda ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlari ham rivojlanadi. Bolalar nima uchun ba'zi narsalar ishlamayotganini yoki ularni qanday qilib yanada samarali qilish mumkinligini o'ylab ko'rishadi.

3. Har bir SCAMPER elementi bolalarni turli muammolarni hal etish uchun turli usullarni sinab ko'rishga undaydi. Bolalar, masalan, bitta o'yinchoqni boshqacha maqsadda ishlatish orqali, muammolarni ijodiy va noan'anaviy usullar bilan hal qilishga o'rganadilar.

4. SCAMPER texnikasi bolalarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini beradi. Bu bolalarning o'zini o'zi ifoda etish qobiliyatini oshirish bilan birga, ularning ijtimoiy moslashuvini ham yaxshilaydi. Bolalar guruhdagi boshqa bolalar bilan o'z g'oyalarini baham ko'rish orqali o'zaro hamkorlik qilishni va bir-birlaridan o'rganishni o'rganadilar [5].

SCAMPER texnikasi maktabgacha yoshdagi bolalarni turli sohalarida muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda juda samarali vositadir. Bu texnika orqali bolalar nafaqat o'zlarining fikrlash qobiliyatlarini, balki muammolarni hal qilish, o'zaro muloqot qilish va ijtimoiy moslashuv qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Shunday qilib, SCAMPER texnikasi bolalar tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, ularning kelajakdagi shaxsiy va akademik muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi.

SCAMPER texnikasi, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda nihoyatda samarali metodlardan biri hisoblanadi. Bu texnika maktabgacha ta'lim tizimida, shuningdek, turli yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan darslarda qo'llanilishi mumkin. SCAMPER texnikasi bolalarda yangi g'oyalar yaratish, mavjud narsalarni yangicha ko'rish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

SCAMPER texnikasi orqali o'tkazilgan mashqlar va faoliyatlar bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar turli xil usullar bilan mavjud narsalarni o'zgartirish, yangi maqsadlar uchun qo'llash yoki umuman yangi g'oyalarni yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, bolalarni biror o'yinchoqni boshqa tarzda ishlatishga yoki odatdagi materiallardan mutlaqo yangi narsa yaratishga undash, ularning ijodiy tafakkurini rag'batlantiradi.

Tanqidiy fikrlash – bu muammolarni tahlil qilish va samarali yechimlar topish qobiliyatidir. SCAMPER texnikasi bolalarga biror narsa yoki jarayonni qanday qilib takomillashtirish yoki soddalashtirish mumkinligini o'rganishga yordam beradi. Bolalar nima uchun ba'zi narsalar yaxshi ishlamayotganini yoki ularni qanday qilib yanada samarali qilish mumkinligini o'rganishadi. Bu jarayon, shuningdek, bolalarni mavjud narsalarni tanqid qilishga va alternativ yechimlarni taklif qilishga undaydi.

SCAMPER texnikasi turli xil dars rejalariga va faoliyatlarga osongina integratsiya qilinishi mumkin. Masalan, rassomlik darslarida bolalar mavjud rasmlarni qanday qilib o'zgartirishlari yoki yangi uslublar yaratishlari mumkinligi ustida ishlashlari mumkin. Matematika darslarida esa, "Eliminate" yoki "Reverse" usullarini qo'llagan holda,

matematik muammolarni hal qilishning yangi usullarini o'rganishlari mumkin [3].

SCAMPER texnikasi, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, bolalarning turli vaziyatlarda o'zgacha yondashuvlar qo'llash qobiliyatlarini shakllantiradi. Ushbu texnika orqali bolalar yangi g'oyalarni yaratish, mavjud narsalarni takomillashtirish va muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadilar. Shunday qilib, SCAMPER texnikasi bolalarni kelajakda muvaffaqiyatli va moslashuvchan shaxslar bo'lishga tayyorlaydi.

SCAMPER texnikasi maktabgacha ta'limda qo'llanilganda, bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ajoyib vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir element asosida yaratilgan mashqlar va faoliyatlar bolalarni turli xil fikrlash jarayonlariga jalb qiladi va ularning ijodkorligini oshiradi.

Almashtirishda bolalar o'zlarining sevimli ertaklarini boshqa qahramonlar bilan almashtirib hikoya qilishadi. Masalan, "Uch cho'pon" ertagini "Uch mushuk" sifatida qayta hikoya qilish. Rasm chizish darsida bolalar o'z rasmlarida osmonni ko'k rang o'rniga yashil yoki qizil rangga bo'yashadi. Bu mashq orqali bolalar ranglar va ularning ta'sirini o'rganishadi.

Birlashtirishda bolalar ikki xil o'yinchoqni birlashtirib, yangi o'yinchoq yaratishadi. Masalan, konstruktor va loydan foydalanib, yangi turdagi qal'ani qurish. Musiqa va raqs darslarini birlashtirish. Bolalar musiqa asboblari yordamida o'zlarining sevimli qo'shiqlariga raqsga tushishadi, bu orqali musiqiy tuyg'ular va jismoniy harakatlar o'rtasidagi aloqani o'rganadilar.

Moslashtirishda mavjud o'yinlarni yangi qoidalarga moslashtirish holda o'ynaydilar. Masalan, "Yerga tushirma" o'yinini faqat bir oyoqda turgan holda o'ynash. Fasllar mavzusida turli fasllarda kiyiladigan kiyimlarni rasmlar orqali ko'rsatib, bolalarga ularni to'g'ri tanlashni o'rgatish [4].

O'zgartirishda mavjud rasmlarga yangi elementlar qo'shish orqali ularni o'zgartiradilar. Masalan, dengiz manzarasiga quyosh nuri effektini qo'shish. Qog'ozdan tayyorlangan samolyotlarni turli shakllar va o'lchamlarda qayta yasash, shunda ularning uchish xususiyatlari qanday o'zgarishini kuzatish.

Foydalanishda qog'oz qoldiqlaridan san'at asarlari yaratish, masalan, qog'ozdan gul yasash yoki qog'ozdan devor bezaklarini tayyorlash. Eski matolar yoki kiyimlardan yangi o'yinchoqlar yasash, bu orqali bolalarga qayta ish-lashning ahamiyatini o'rgatish.

Chiqarib tashlash jarayonida rasmlardan ortiqcha elementlarni olib tashlash orqali oddiy, ammo ta'sirli tasvirlarni yaratish. "Minimalizm san'ati" darsida bolalar faqat ikkita rang yoki shakldan foydalanib, o'z rasmlarini yarata-dilar, bu esa ularning diqqat markazini oshiradi.

Teskari bajarishda hikoyalarni teskarisiga qaytarib hikoya qilish, masalan, hikoyani oxiridan boshlab, boshiga qarab hikoya qiladilar. An'anaviy o'yinlarni teskarisiga o'ynatish, masalan, "Tom va Jerry" o'yinini teskari qilib, "Jerry va Tom" sifatida o'ynash [5].

Bu kabi faoliyatlar orqali bolalar turli fikrlash usullarini sinab ko'rishadi, yangi ko'nikmalar hosil qilishadi va o'zaro ijodiy hamkorlik qilishni o'rganadilar. SCAMPER texnikasi maktabgacha ta'limda bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi, ularni yangi muhitda moslashuvchan va innovatsion yechimlar topishga tayyorlaydi.

SCAMPER texnikasi, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida qo'llanilganda, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan samarali usuldir. Ushbu texnika bolalar tarbiyasida turli psixologik va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bolalar almashtirish jarayonida mavjud narsalar yoki g'oyalar o'rniga yangilarini qo'llash orqali o'z

dunyoqarashlarini kengaytiradilar. Bu jarayon ularning moslashuvchanligini va yangiliklarga ochiqqligini oshiradi. Misol uchun, ertak qahramonlarini almashtirish orqali bolalar turli rollarni sinab ko'rishadi, bu esa ularning empatiya qobiliyatini va ijtimoiy tushunchalarini rivojlantiradi.

Birlashtirish mashqlari bolalarning hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularni yangi yechimlar yaratishga undaydi. Masalan, turli o'yinchoqlarni birlashtirib yangi o'yinchoq yaratish jarayoni bolalarga turli vaziyatlarda hamkorlik qilish va bir-birlarining g'oyalarini qadrlashni o'rgatadi.

Moslashuvchanlik bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bolalar turli sharoitlarga moslasha olish qobiliyatini rivojlantirish orqali kelajakda turli ijtimoiy va akademik vaziyatlarga tezroq va samaraliroq javob bera olishadi. Misol uchun, yangi qoidalarga asoslangan o'yinlar bolalarga tezkor qarorlar qabul qilishni va vaziyatni tez tahlil qilishni o'rgatadi [4].

O'zgartirish mashqlari bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bolalar mavjud narsalarni qayta ishlash orqali o'zlarining tasavvurlarini amalga oshiradilar, bu esa ularning o'z-o'zini ifoda etish qobiliyatlarini oshiradi.

Bolalarni mavjud narsalarni boshqa maqsadda qo'llashga undash ularning qarashlarini kengaytiradi va

muammolarga noan'anaviy yechimlar topish qobiliyatini oshiradi. Misol uchun, qog'oz qoldiqlaridan san'at asarlari yaratish bolalarning ijodkorligini va ekologik tafakkurini rivojlantiradi.

Ortib qolgan yoki keraksiz elementlarni chiqarib tashlash orqali bolalar soddalik va samaradorlik haqida o'rganadilar. Bu mashq ularning diqqatini asosiy elementlarga qaratishga yordam beradi, bu esa o'quv va ijodiy faoliyatlarida diqqatni jamlash qobiliyatini oshiradi.

Testkari fikrlash bolalarga mavjud g'oyalar yoki jarayonlarni yangicha ko'rishga yordam beradi. Bu ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'zlarining an'anaviy yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Masalan, hikoyani teskarisiga qaytarib hikoya qilish orqali bolalar voqealar oqimini tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Har bir SCAMPER elementi asosida yaratilgan mashqlar va faoliyatlar bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga keng ko'lamli ta'sir ko'rsatadi. Ular nafaqat bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi, balki ularning ijtimoiy moslashuvchanligi, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari va o'z-o'zini ifoda etish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shunday qilib, SCAMPER texnikasi maktabgacha ta'limda bolalarning to'liq va har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

#### **Adabiyotlar**

1. Xasanova Sh.T. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish. // "Tafakkur" –T.:. 2020
2. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. // "Tafakkur". –T.: 2013.
3. Alex Osborn. "Applied Imagination: Principles and Procedures of Creative Thinking". Charles Scribner's Sons. 1993. –P.300.
4. Michael Michalko. "Thinkertoys: A Handbook of Creative-Thinking Techniques". Ten Speed Press. 1991. –P.416.
5. Roger Von Oech. "A Whack on the Side of the Head: How You Can Be More Creative". Warner Books. 1983. –P.224.

**REZYUME.** Maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishida bolalarning turli faoliyatlarida maxsus qiziqarli mashqlar orqali SCAMPER texnikasini qo'llash orqali ijodiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatish borasida so'z yuritiladi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье говорится об обучении творческому и критическому мышлению путем применения методики SCAMPER через специальные интересные упражнения в сфере дошкольного образования.

**SUMMARY.** The article talks about teaching creative and critical thinking by applying the SCAMPER technique through special interesting exercises in the field of preschool education.

### **RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLIISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI**

**T.M.Kudenov** – *assistent o'qituvchi*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so'zlar:** raqamli ta'lim muhiti, mustaqil ta'lim, kompetensiya, innovatsion yondashuv, shaxsiylashtirilgan ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

**Ключевые слова:** цифровая образовательная среда, независимое образование, компетентность, инновационный подход, персонализированное образование, информационно-коммуникационные технологии.

**Key words:** digital educational environment, independent education, competence, innovative approach, personalized education, information and communication technologies.

Raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Talabalar uchun mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari kengaydi, bu esa ta'lim jarayonida yangi yondashuvlarni qo'llashni talab qiladi. Mustaqil ta'lim kompetensiyasi zamonaviy talabning asosiy fazilatlaridan biriga aylandi, chunki u bilimlarni mustaqil ravishda qabul qilish, tanlash va amaliyotda qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhiti sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha innovatsion yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

#### **Raqamli ta'lim muhitining o'ziga xosligi**

Raqamli ta'lim muhitining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. **Moslashuvchanlik:** Talabalar o'zlarining individual ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim materiallarini tanlashlari mumkin.

2. **Shaxsiylashtirish:** Platformalar talabalarning bilim darajasi, o'rganish uslubi va qiziqishlariga mos material-larni taqdim etadi.

3. **Cheksiz resurslarga ega bo'lish:** Raqamli muhitda talabalar dunyoning istalgan joyidan kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin.

Bu o'ziga xosliklar talabalar uchun mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

#### **Innovatsion yondashuvlar**

Talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi innovatsion yondashuvlar samarali bo'ladi:

##### **1. Gamifikatsiya elementlaridan foydalanish**

Gamifikatsiya ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Masalan:

- Talabalar uchun bilimlarni o'rganish jarayonini o'yinga aylantiruvchi vazifalar yaratish.

- Ballar, darajalar va mukofotlar tizimidan foydalanish orqali talabalarni rag'batlantirish.

##### **2. Shaxsiylashtirilgan ta'lim dasturlari**

Raqamli platformalar yordamida har bir talabaga individual ta'lim rejasi tuzish:

- Onlayn testlar va diagnostika natijalariga asoslanib individual kurslarni shakllantirish.

- O'zlashtirish jarayonini kuzatish uchun sun'iy intellekt vositalarini qo'llash.

##### **3. Masofaviy va gibrid ta'lim texnologiyalari**

Masofaviy ta'lim platformalari (Moodle, Google Classroom, Canvas) yordamida talabalar mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish:

- Video darslar va interaktiv mashg‘ulotlarni yaratish.
- Teskari aloqa vositalari orqali talabalar bilan onlayn muloqotni yo‘lga qo‘yish.

#### **4. Kooperativ ta‘lim muhitini shakllantirish**

Talabalarni kichik guruhlarga bo‘lib, birgalikda masalalarni hal qilishni tashkil etish:

- Jamoaviy onlayn loyiha va vazifalarni yaratish.
- Virtual laboratoriyalar va seminarlar tashkil etish orqali hamkorlikni rivojlantirish.

#### **5. Raqamli simulyatorlar va virtual haqiqat texnologiyalari**

Murakkab fanlarni o‘rganish uchun real hayotga yaqinlashtirilgan virtual simulyatorlardan foydalanish:

- Tibbiyot, muhandislik yoki kimyo kabi fanlarda tajriba o‘tkazish imkoniyatini beruvchi virtual laboratoriyalar.

#### **Ta‘lim sifatiga ta‘siri**

Innovatsion yondashuvlarning talabalarining mustaqil ta‘lim kompetensiyasini rivojlantirishdagi asosiy ta‘sirlari quyidagilardan iborat:

- **Bilimlarning chuqurlashishi:** Raqamli texnologiyalar materiallarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi.

• **Motivatsiyaning oshishi:** Zamonaviy yondashuvlar orqali talabalar o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

• **Amaliy ko‘nikmalarining shakllanishi:** Simulyatorlar va real amaliyotga yaqin vazifalar orqali talabalar ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**Xulosa.** Raqamli ta‘lim muhiti talabalarining mustaqil ta‘lim olish kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Innovatsion yondashuvlar, masalan, gamifikatsiya, shaxsiylashtirilgan ta‘lim dasturlari va virtual texnologiyalar yordamida talabalarining ta‘lim jarayoniga jalb etilishi va bilim olish samaradorligi oshadi. Kelgusida raqamli texnologiyalarni yanada takomillashtirish va ularni ta‘lim jarayonida qo‘llashni kengaytirish dolzarab masala bo‘lib qoladi.

#### **Tavsiyalar**

1. Talabalar uchun raqamli platformalarda shaxsiylashtirilgan ta‘lim kurslarini ishlab chiqish.
2. O‘qituvchilarni raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha maxsus tayyorlash.
3. Virtual va qo‘shimcha haqiqat texnologiyalarini ta‘lim tizimiga kengroq tatbiq etish.

#### **Adabiyotlar**

1. Siemens, G. (2005). *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age*.
2. Anderson, T. (2008). *The Theory and Practice of Online Learning*. Edmonton: AU Press.
3. Prensky M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. *On the Horizon*, 9(5), 1–6.
4. Moodle Docs (2023). *Using Moodle: A Comprehensive Guide to the World's Most Popular Learning Management System*.
5. Воронов В.В., Шустов А.Ю. Цифровые образовательные платформы: возможности и вызовы. -Москва: «Юрайт», 2020.
6. Chen B., Bryer T. (2012). Investigating Instructional Strategies for Using Social Media in Formal and Informal Learning. *The International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 13(1).
7. Bonk C. J., Graham C.R. (2012). *The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs*. -San Francisco: «Pfeiffer».

**РЕЗЮМЕ.** Ushbu maqolada raqamli ta‘lim muhitida talabalarining mustaqil ta‘lim olish kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari o‘rganiladi. Ta‘lim jarayonida shaxsiylashtirilgan yondashuvni qo‘llash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va interaktiv platformalarni joriy etish orqali talabalarining mustaqil o‘quv ko‘nikmalarini takomillashtirish yo‘llari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, ushbu jarayonda pedagog va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning yangi shakllari yoritiladi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье исследуются инновационные подходы к развитию компетентности самостоятельного обучения студентов в цифровой образовательной среде. Показаны пути совершенствования навыков самостоятельного обучения студентов путем использования персонализированного подхода в образовательном процессе, использования информационно-коммуникационных технологий, внедрения интерактивных платформ. Также в этом процессе будут выделены новые формы взаимодействия педагога и студентов.

**SUMMARY.** This article explores innovative approaches to developing students' independent learning competence in a digital educational environment. It shows ways to improve students' independent learning skills by using a personalized approach in the educational process, using information and communication technologies, and introducing interactive platforms. This process will also highlight new forms of interaction between teachers and students.

## **МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАТИКИ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ**

**О.Кунназаров – докторант**

*Нукусский государственный педагогический институт имени Ажсинияза*

**Таянч сўзлар:** интерфаол ўқитиш методлари, информатика, лойиҳалаш фаолияти, танкидий фикрлаш, таълим технологиялари.

**Ключевые слова:** интерактивные методы обучения, информатика, проектная деятельность, критическое мышление, образовательные технологии.

**Key words:** interactive teaching methods, computer science, project activities, critical thinking, educational technologies.

**Введение.** В современном мире информатика и информационные технологии занимают основное место в образовательном процессе и профессиональной деятельности. Быстрое развитие технологий требует от учащихся способности адаптироваться к новым условиям, что невозможно осуществить без глубокого понимания основ информатики и навыков работы с информационными системами [9:4-14]. Однако традиционные методы обучения часто оказываются неэффективными для достижения этих целей, поскольку они не всегда обеспечивают активное вовлечение студентов в учебный процесс. В последние годы особое внимание уделяется интерактивным методам обучения, которые помогают учащимся более активно участвовать, формировать критическое мышление и развивать креативность [2:12-20]. Интерактивные методы, такие как игровые технологии, проектная работа, групповые дискуссии и

использование мультимедийных ресурсов, направлены на создание более динамичной и стимулирующей образовательной среды. Они не только повышают интерес к изучаемым предметам, но и способствуют развитию социальных навыков, необходимых для успешной деятельности в современном обществе [5:50-55]. Целью данной статьи является исследование методики преподавания информатики и информационных технологий с использованием интерактивных методов, выявление их влияния на качество образования и удовлетворенность учащихся. Также мы поставили задачу проанализировать успешные практики применения интерактивных подходов в учебном процессе и рассмотреть их возможности и ограничения.

**Метод.** Для достижения поставленных целей и задач в исследовании использована многогранная методология, включающая в себя количественный и

качественный подходы. Это позволило глубже понять влияние интерактивных методов в преподавании информатики и информационных технологий. Методология исследования состоит из нескольких основных этапов.

**Анализ литературы**

На первом этапе были рассмотрены существующие научные публикации, статьи и исследования, посвященные интерактивным методам обучения. Анализ теоретических основ позволил определить основные направления и подходы к использованию интерактивных методов в образовательном процессе, а также выявить их преимущества и недостатки.

**Выбор методов исследования**

Второй этап заключался в определении методов, используемых для сбора данных. К основным методам относятся:

**Анкетирование:** Проведение опросов среди студентов и преподавателей по применению интерактивных методов в преподавании информатики. Анкеты были разработаны с учетом специфики предмета и включали в себя закрытые и открытые вопросы.

**Наблюдение:** изучение уроков с использованием интерактивных методов. Наблюдение за взаимодействием студентов и преподавателей, а также анализ учебной деятельности в классе позволили получить качественную информацию о влиянии этих методов на образовательный процесс.

**Интервью:** Проведение полуструктурных интервью с учителями информатики, активно использующими интерактивные методы. Это помогло выявить их личный опыт, трудности и достижения, связанные с применением этих методов.

**Выбор выборки**

Для исследования были отобраны студенты и преподаватели из различных образовательных учреждений, включая школы и университеты. Количественный аспект выборки обеспечивает широкую репрезентативность, что способствует более точным выводам. При отборе участников учитывался их опыт преподавания информатики и вовлеченность в различные формы интерактивного обучения.

**Анализ данных**

Собранные данные анализировали с помощью описательной статистики для количественных данных и контент-анализа для качественных данных. Это позволило выявить закономерности, тенденции и взаимосвязи в полученных данных. Результаты были сформированы в виде диаграмм и таблиц для наглядной презентации.

**Следствие.** В ходе исследования, направленного на изучение влияния интерактивных методов обучения на процесс изучения информатики и информационных технологий, были достигнуты следующие результаты:

Категория	Результаты
<b>Общие выводы по применению интерактивных методов</b>	
Повышение активности студентов	85% студентов считают, что интерактивные методы (групповые проекты, обсуждения, технологии) повышают их интерес к предмету.
Улучшение усвоения материала	78% студентов и 72% преподавателей согласны, что интерактивные методы помогают лучше понимать и усваивать материал.
<b>Оценка эффективности различных методов</b>	
Групповая работа	90% студентов отмечают, что работа в группах улучшает обучение и способствует обмену идеями и обратной связи.
Обсуждения	75% респондентов считают, что об-

и дискуссии	суждения развивают критическое мышление и помогают обосновать свою точку зрения.
Использование технологий	80% студентов, использующих платформы электронного обучения (например, Moodle, Edmodo), довольны образовательным процессом.
<b>Проблемы и вызовы</b>	
Недостатки в подготовке учителей	60% учителей считают, что нуждаются в дополнительной подготовке по использованию интерактивных технологий
Технические проблемы	30% студентов и преподавателей сталкивались с техническими проблемами, мешающими проведению интерактивных уроков.

**Рекомендации.** На основании полученных данных были сформулированы следующие рекомендации:

**Обучение учителей:** Необходимо организовать тренинги и мастер-классы для учителей по использованию интерактивных методов и технологий в обучении, что поможет повысить их уверенность и компетентность. **Инфраструктура:** обеспечение образовательных учреждений необходимым оборудованием и доступом к Интернету для успешного применения интерактивных технологий. **Разработка учебных материалов:** Примеры создания и распространения ресурсоемких учебных материалов и успешного использования интерактивных методов в обучении информатике. Исследование подтвердило, что интерактивные методы обучения оказывают существенное влияние на процесс обучения информатике и информационным технологиям. При использовании этих методов повышается вовлеченность студентов и их удовлетворенность обучением. Однако для успешной интеграции интерактивных методов в образовательный процесс необходимо решить проблемы, связанные с подготовкой преподавателей и техническим обеспечением.

**Обсуждение.** Результаты исследования показывают, что интерактивные методы обучения значительно повышают качество образования в области информатики и ИТ. Методы, такие как групповые проекты, дискуссии и использование технологий, усиливают вовлеченность студентов, о чем свидетельствуют 85% опрошенных. Это подтверждает недостаточность традиционных лекционных методов для современных студентов. Активное обучение не только повышает интерес, но и развивает навыки критического мышления и сотрудничества, что важно для будущих специалистов. Однако внедрение интерактивных методов сталкивается с проблемами. 60% преподавателей отмечают необходимость дополнительной подготовки для использования этих методов, а также необходимость устранения технических проблем, вызывающих неудовлетворенность у студентов и преподавателей. Для решения этих вопросов требуются инвестиции в подготовку педагогов и инфраструктуру учебных заведений. Важно, чтобы образовательные учреждения продолжали развивать подходы к обучению, акцентируя интерактивность. Рекомендуется проводить учебные семинары и программы для повышения квалификации преподавателей, а также создать команду педагогов-практиков для обмена опытом и распространения эффективных практик.

**Заключение.** В заключение, результаты исследования подтверждают, что интерактивные методы обучения являются эффективным способом повышения качества образования в области информатики и информационных технологий. Они



способствуют вовлечению студентов, развитию критического мышления и навыков коллективной работы, что соответствует современным требованиям рынка труда. Для успешного внедрения интерактивного обучения требуется подготовка преподавателей и

улучшение инфраструктуры. Дальнейшие исследования могут помочь оценить долгосрочное влияние этих методов на образовательные траектории и психоэмоциональное состояние студентов, создавая более поддерживающую образовательную среду.

**Литература**

1. Блувштейн И.Д. 2019. Интерактивные методы обучения: от теории к практике. -М.: «Наука».
2. Громова Н.В. 2019. «Развитие критического мышления у студентов с помощью интерактивных технологий» // Научные ведомости Белгородского государственного университета. Серия: Гуманитарные науки, 21(6), 12-20.
3. Кузнецова Л.А. 2020. «Эффективность использования проектного обучения в педагогике: опыт и рекомендации». Вестник образования, 3(2), 15-22.
4. Михайлов А.И. 2021. «Сравнительный анализ традиционных и интерактивных методов обучения в вузах». Современные проблемы науки и образования, 3, 45-50.
5. Петрова С.Н., & Смирнова, Е. А. 2021. «Инновационные подходы к обучению информатике в современном обществе». Информационные технологии в образовании, 6(1), 50-55.
6. Соловьёва Т.В. 2022. Методы активного обучения: практическое руководство для преподавателей. СПб.: «Питер».
7. Jonassen D.H. 2000. Transcending the Limits of Student-Centered Learning through Design. Educational Technology Research and Development, 48(2), 27-41.
8. Salomon G. (1993). Distributed Cognitions: Psychological and Educational Considerations. -New York: Cambridge University Press.
9. Shulman L.S. (1986). Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching. Educational Researcher, 15(2), 4-14.
10. White G., & Cummings, J. (2020). Interactive Learning Environments in the Digital Age. -New York: «Springer».

**РЕЗЮМЕ.** Мақолада информатика соҳасида таълим сифатини ошириш воситаси сифатида интерактив ўқитиш усуллари таҳлил қилинади. Тадқиқотнинг мақсади – ушбу усулларнинг талабаларнинг материални ўзлаштиришига таъсирини баҳолаш. Сўровлар, кузатиш ва имтиҳон натижаларини таҳлил қилиш усуллари қўлланилди. Натижалар шуни кўрсатадики, лойиҳа фаолияти ва ролли ўйинлар каби интерактив усуллар нафақат академик ўзлаштиришни яхшилашга, балки танқидий фикрлаш ва ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантиришга ҳам ёрдам беради. хулоса қисмида интерактив таълимни жорий этиш муҳимлиги таъкидланади ва ўқитувчилар учун тавсиялар берилади.

**РЕЗЮМЕ.** В статье анализируются интерактивные методы обучения как инструмент повышения качества образования в информатике. Цель исследования — оценка влияния таких методов на усвоение материала студентами. Используются анкетирование, наблюдение и анализ экзаменов. Результаты показывают, что интерактивные методы, включая проектную деятельность и деловые игры, способствуют улучшению успеваемости, развитию критического мышления и навыков сотрудничества. В заключении подчеркивается важность внедрения интерактивного обучения и даются рекомендации для преподавателей.

**SUMMARY.** The article analyzes interactive teaching methods as a tool for enhancing the quality of education in the field of computer science. The aim of the study is to assess the impact of these methods on students' material comprehension. Surveys, observation, and exam analysis were used. The results show that interactive methods, including project-based activities and role-playing games, contribute to improved academic performance, critical thinking, and collaboration skills. The conclusion emphasizes the importance of implementing interactive learning and provides recommendations for teachers.

**TABIY VA AMALIY JARAYONLARNI VEKTORLAR ALGEBRASIGA MODELLASHTIRISH ORQALI O'QITISHDA TALABALARNING MATEMATIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH**

*M.K.Movlonov – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti*

**Tayanch soʻzlar:** vektor, skalyar, matematika, kimyo, informatika, mexanika, kuch, tezlik, tezlanish, koʻchish, miqdor.

**Ключевые слова:** вектор, скаляр, математика, химия, информатика, механика, сила, скорость, ускорение, смещение, количество.

**Key words:** vector, scalar, mathematics, chemistry, computer science, mechanics, force, speed, acceleration, displacement, quantity.

Hozirgi zamonaviy matematikada vektor tushunchasining qoʻllanilishi muhim rol oʻynaydi. Vektorlar yordamida turli xil murakkablikdagi koʻplab muammolar hal qilinadi. Shuning uchun ushbu mavzu dolzarbligi oʻzgar olmay kelmoqda. Insoniyat uchun vektorlar tushunchasiga qiziqish XIX asrdan mexanika va fizikada muammolar paydo boʻlishi bilan bogʻliq boʻlib, vektorlarga taʼrifni birinchi marta 1845- yilda irlandiyalik matematik Uilyam Xemilton kiritgan. Koʻp oʻtmay, koʻplab dunyo fanlariga vektorli hisob-kitoblarning tez kiritilishi sodir boʻldi. Vektorlar yordamida hisob-kitoblar yaratildi, u bilan tahlil qilindi va vektor fazosi nazariyasi ham ilgari surildi.


Vektorlar va ularning matematika kursidagi tatbiqlari dastur talablariga mos boʻlib, vektor tushunchasi matematikaning muhim tushunchalaridan biri, balki boshqa fanlarni oʻrganish uchun ham muhim hisoblanadi. Matematika fanining asosiy tushunchalaridan biri “vektor” tushunchasidir. Ushbu tushunchaning rivojlanishi uning matematika, informatika, mexanikaning turli sohalarida shuningdek, texnologiyada keng qoʻllanilishi tufayli yuzaga keldi. Matematika va mexanikaning turli sohalarida juda keng qoʻllanilib, talabalar oʻz kasbiy faoliyatlarida bu oʻrinda fanlarni oʻrganishda katta imkoniyatiga ega boʻladilar.

Maʼlumki, faqatgina son qiymatlari bilan aniqlanuvchi: masofa, vaqt, massa, va harorat kabi miqdorlar skalyar miqdorlar deb; faqat son qiymati bilangina emas, balki

yoʻnalishi bilan ham aniqlanadigan kuch, koʻchish, tezlik va tezlanish kabi miqdorlar vektor miqdorlar deb ataladi.

Shuni taʼkidlash lozimki, skalyar miqdorlar(sonlar)ni qoʻshish, ayirish, koʻpaytirish, boʻlish natijasida yana skalyar miqdorlar hosil boʻladi. Vektor miqdorlarni qoʻshish, ayirish va skalyar miqdorga koʻpaytirish natijasida yana vektor miqdorlar hosil boʻlsada, vektor miqdorlarni koʻpaytirish natijasida baʼzida skalyar miqdorlar, baʼzida esa vektor miqdorlar ham hosil boʻladi.

Buni quyidagi misollarda keltirish mumkin:



1. Toʻgʻri chiziqli harakatda kuch  $\vec{F}$  vektor kattalikni  $\vec{S}$  koʻchish vektoriga koʻpaytmasi bu koʻchishda bajarilgan A skalyar miqdor ishni beradi.

$$A = F \cdot S \cdot \cos \alpha$$

2. Biron S sirt orqali  $\vec{v}$  vektori bilan oʻtayotgan suyuqlikning vaqt birligida oʻtadigan miqdori skalyar miqdor boʻladi.

3. Qattiq jismining biron nuqtasiga qoʻyilgan  $\vec{F}$  kuch taʼsiridagi aylanma harakati, bu yerda hosil boʻladigan kuch momenti vektoriga bogʻliq boʻladi.

4. Qo'zg'almas o'q atrofida  $\vec{\omega}$  – burchak tezlik bilan aylanma harakat qilayotgan qattiq jismning  $\vec{r}$  – radius vektor orqali aniqlanadigan ixtiyoriy M nuqtasini tezligi  $\vec{v}$ ,  $\vec{\omega}$  burchak tezlik va  $\vec{r}$  – radius vektorlarni ko'paytmasi ko'rinishida aniqlanib, vektor kattalik bo'ladi.

Shuning uchun ham, matematikada skalyar miqdorlar(sonlar) bilan birgalikda vektor miqdorlar (vektor)ni o'rganish zaruriyati paydo bo'lgan. Bizga ma'lumki matematika-fizik va amaliy jarayonlarni miqdor(skalyar va vektor) jihatidan o'rganuvchi fandir. Faqatgina kattaligi bilan emas, yo'nalishi bilan ham aniqlanadigan ba'zi bir fizik kattaliklar masalan kuch, tezlik va tezlanishlarni matematikada yo'naltirilgan kesma-vektor orqali belgilash(ko'rsatish) o'rganish uchun oson bo'ladi.

Hozirgi zamon matematikasining eng asosiy tushunchalaridan biri, bu vektor bo'lib, uning umumlashgani tenzor tushunchasi bo'ladi. "Vektor" tushunchasi birinchi marta irlandiyalik matematik va astronom Uiliam Gamiltonning asarlarida 1845-yilda paydo bo'lgan. Bunda u vektor tushunchasini kompleks sonlarni umumlashtiruvchi sonlar sistemasini qurishda foydalangan. U.Gamilton "skalyar", "skalyar ko'paytma", "vektor ko'paytma" tushunchalarini ham birinchilardan bo'lib foydalangan [1].

Umuman olganda vektor tushunchasini ikkiga bo'lib o'rganiladi.

1. Haqiqiy hayotda uchraydigan fizik jarayonlarni aks ettiruvchi vektor.

2. Matematikada o'rganiladigan vektor.

Fizikadagi vektor: kattaligi, yo'nalishi va qo'yilish nuqtasi bilan xarakterlanadi. Masalan kuch-vektori kattaligi, yo'nalishi va quyilish nuqtasi bilan xarakterlanadi. Uni fazoni boshqa bir nuqtasiga ko'chirganimizda uni harakatga ta'siri o'zgarib ketishi mumkin. Bunda ko'chirilgan nuqtada kuch bilan birga aylanuvchi moment vektori ham hosil bo'ladi.

Matematikadagi vektor - yo'nalishga ega bo'lgan kesma bo'lib, faqatgina kattaligi va yo'nalishi bilan to'la xarakterlanadi. Matematikada vektorlar faqat erkin vektorlar sifatida qaralib, uni tekislikning yoki fazoning istalgan nuqtasiga parallel ko'chirish mumkin. Shuning uchun ham, matematikada kattaligi va yo'nalishi bir xil vektorlar teng vektorlar deyiladi. Vektor lotinchadan vektor "ko'chiruvchi" ma'nosini anglatadi.

Bundan tashqari matematikadan vektor koordinatalari orqali to'liq xarakterlangani uchun, uni nafaqat uch o'lchovli Yevklid fazosida, balki istalgan

$n$  o'lchovli fazoga umumlashtirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda vektorni matematikada istalgan masalan, tartiblangan sonlar to'plami sifatida ham o'rganish mumkin. Bunda tartiblangan sonlar to'plamini vektor satr, vektor ustun deb ham qarash mumkin. Quyida biz vektor tushunchasi qo'llaniladigan sohalar, boshqacha qilib aytganda matematikadagi vektorlar algebrasiga modellashtirishdan iborat masalalar haqida qisqacha ma'lumotlar keltiramiz. Vektor-ko'rsatuvchi. Vektor tushunchasi kundalik hayotimizda uchraydigan kattalikdir. Undan biz biror bir ob'yektni kam vaqt sarflab, tezda topishda yordam beradigan yoki "yo'l belgilari"da qo'llaniladigan ko'rsatuvchi sifatida har kuni foydalanamiz [2].

*Fizikada vektor.* Kattaligi, yo'nalishi va qo'yilish nuqtasi bilan harakatlanadigan barcha fizik kattaliklar. Masalan kuch, tezlik, tezlanish va boshqa real vektorlar. Adabiyotda vektor. Masalan: Ivan Andrevich Krilovning "Oqqush, cho'rtanbaliq va qisqichbaqa" haqidagi masalida bu jonzoqlarning turli yo'nalishda harakatlanishi natijasida (aravaga qo'yilgan kuchlarning teng ta'sir etuvchisi nolga teng) bo'lganligi uchun arava o'z joyida qoladi. Bunda har kim aravani o'z tomoniga tortaversa, ish bajarilmaydi, - degan ma'juziy ma'no ham bor.

*Ximiyada vektor.* Kimyoviy jarayonlarning matematik modellarini yaratishga yordam beradi. Masalan, atomning tuzilishini ko'rsatish uchun bir xil vektorlardan foydalaniladi.

*Biologiyada vektor.* Parazitlarni bir organizmdan ikkinchisiga o'tkazuvchi organizmlar-vektor hisoblanadi. Masalan, bitlar toshmalni tiflarni uyg'otuvchilarni o'tkazadi, kalamushlar-o'latni bir organizmdan ikkinchisiga o'tkazuvchi vektorlardir.

